



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№8

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

8-jild
8-son
Avgust, 2026

August, 2026
Volume 8
Number 8

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

globalsciencehub.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

globalsciencehub.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Неземайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Mundarija

Mintaqada tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishda iqtisodiy baholashni takomillashtirish	8
<i>Maftuna Musurmon qizi Quldasheva</i>	
Mintaqada oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning institutsional va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	13
<i>Maftuna Musurmon qizi Quldasheva</i>	
Yashil iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanish bosqichlari: Nazariy yondashuvlar tipologiyasi va ularning qiyosiy tahlili.....	19
<i>Sardorbek Bahodir o'g'li Murodillayev</i>	
Namangan viloyatida investitsiya mexanizmlari harakatlanishining ijtimoiy-iqtisodiy omillari va hududiy xususiyatlari.....	29
<i>Ikrom Ergashboyevich Kenjayev</i>	
Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiy sektorlarning rivojlanish darajasi va ekologik-iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili.....	35
<i>Mohigul Mansur qizi Usmonova</i>	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi va uning aholi xarid qobiliyatiga mosligini baholash.....	40
<i>Zafar Ulug'bek o'g'li Ramazonov</i>	
Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining mehnat bozorida ishga joylashishiga ko'maklashish mexanizmi sifatida skrining markazlarini shakllantirish.....	44
<i>Vazira Saidmuradovna Uzakova</i>	
Transfert narxlarni nazorat qilish mexanizmi: Xalqaro tajriba va O'zbekistonda uni takomillashtirish yo'nalishlari.....	49
<i>Baxodir Ergashevich Kurbonov</i>	
Kichik biznes rivojlanishining hududiy tahlili Andijon viloyati misolida.....	54
<i>Bekzod Tursunali o'g'li Omonqulov</i>	
Oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobatni rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari.....	59
<i>Maftuna Raxmon qizi Xalilova</i>	
Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida agrotadbirkorlik sub'ektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	63
<i>Alisher Boboqulovich Qurbonov</i>	
Qashqadaryo viloyati hududlarida yer-suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llari.....	67
<i>Alisher Boboqulovich Qurbonov</i>	



Contents

Improving the economic assessment of household income growth driven by regional entrepreneurship development.....	8
<i>Maftuna Kuldasheva</i>	
Improving the institutional and organizational-economic mechanisms for the development of family entrepreneurship in the region.....	13
<i>Maftuna Kuldasheva</i>	
Stages in the formation of the green economy concept: A typology of theoretical approaches and their comparative analysis.....	19
<i>Sardorbek Murodillayev</i>	
Socio-economic factors and regional features of investment mechanisms in the Namangan region..	29
<i>Ikrom Kenjayev</i>	
The level of development of green economic sectors in Kashkadarya region and an analysis of ecological and economic indicators.....	35
<i>Mokhigul Usmonova</i>	
Dynamics of agricultural product production and assessment of its compliance with the purchasing power of the population.....	40
<i>Zafar Ramazonov</i>	
Formation of screening centers as a mechanism for facilitating employment of university graduates in the labor market.....	44
<i>Vazira Uzakova</i>	
Transfer pricing control mechanism: International experience and directions for its improvement in Uzbekistan.....	49
<i>Bakhodir Kurbonov</i>	
Regional analysis of small business development: The case of Andijan region.....	54
<i>Bekzod Omonqulov</i>	
Foreign experience in developing competition between higher education institutions and the possibilities of its application in the conditions of Uzbekistan.....	59
<i>Maftuna Khalilova</i>	
Development trends of agribusiness entities in Kashkadarya and Surkhandarya regions.....	63
<i>Alisher Kurbonov</i>	
Ways to improve the efficiency of land and water resources utilization in the territories of Kashkadarya region.....	67
<i>Alisher Kurbonov</i>	



Содержание

Совершенствование экономической оценки роста доходов населения за счет развития предпринимательства в регионе.....	8
<i>Мафтуна Кулдашева</i>	
Совершенствование институциональных и организационно-экономических механизмов развития семейного предпринимательства в регионе.....	13
<i>Мафтуна Кулдашева</i>	
Этапы формирования концепции зелёной экономики: Типология теоретических подходов и их сравнительный анализ.....	19
<i>Сардорбек Баходир угли Муродиллаев</i>	
Социально-экономические факторы и региональные особенности функционирования инвестиционных механизмов в Наманганской области.....	29
<i>Икром Эргашбоевич Кенжаев</i>	
Уровень развития зелёных секторов экономики в Кашкадарьинской области и анализ эколого-экономических показателей.....	35
<i>Мохигул Мансур кизи Усмонова</i>	
Динамика производства сельскохозяйственной продукции и оценка её соответствия покупательной способности населения.....	40
<i>Зафар Улугбек угли Рамазонов</i>	
Формирование скрининг центров как механизм содействия трудоустройству выпускников вузов на рынке труда.....	44
<i>Вазира Саидмуродовна Узакова</i>	
Механизм контроля трансфертного ценообразования: Международный опыт и направления его совершенствования в Узбекистане.....	49
<i>Баходир Эргашевич Курбонов</i>	
Территориальный анализ развития малого бизнеса на примере Андижанской области.....	54
<i>Бекзод Турсунали угли Омонкулов</i>	
Зарубежный опыт развития конкуренции между высшими учебными заведениями и возможности его применения в условиях Узбекистана.....	59
<i>Мафтуна Рахмановна Халилова</i>	
Тенденции развития субъектов агробизнеса в Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областях.....	63
<i>Алишер Бобокулович Курбонов</i>	
Пути повышения эффективности использования земельно-водных ресурсов на территориях Кашкадарьинской области.....	67
<i>Алишер Бобокулович Курбонов</i>	



MINTAQADA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA IQTISODIY BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Quldasheva Maftuna Musurmon qizi

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ РОСТА ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ ЗА СЧЕТ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РЕГИОНЕ

Кулдашева Мафтун

IMPROVING THE ECONOMIC ASSESSMENT OF HOUSEHOLD INCOME GROWTH DRIVEN BY REGIONAL ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT

Kuldasheva Maftuna

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqada tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirish jarayonini kompleks iqtisodiy baholashning nazariy va uslubiy jihatlarini tadqiq etilgan. Hududlarda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish darajasi hamda uning aholi daromadlariga ta'sirini aniqlashda qo'llanilayotgan amaldagi statistik ko'rsatkichlarning imkoniyatlari va cheklovlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillarni o'zaro integratsiyalashgan holda aks ettiruvchi indikatorlar tizimi taklif etilgan. Shuningdek, ko'rsatkichlarni yagona baholash mezoniga keltirish uchun normalizatsiya usuli va integral indeksni hisoblash metodikasi ishlab chiqilgan. Taklif etilgan indikatorlar tizimi hududlar kesimida tadbirkorlikni rivojlantirish samaradorligini baholash, aholi daromadlarining o'sish omillarini aniqlash hamda iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: mintaqaviy iqtisodiyot, tadbirkorlik, aholi daromadlari, iqtisodiy baholash, indikatorlar tizimi, integral indeks, normalizatsiya, samaradorlik, hududiy rivojlanish.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретические и методологические аспекты комплексной экономической оценки повышения доходов населения посредством развития предпринимательства в регионе. Проанализированы возможности и ограничения существующих статистических показателей, применяемых для оценки уровня развития предпринимательской деятельности и её влияния на доходы населения в регионах. По результатам исследования предложена система индикаторов, интегрирующая экономические, социальные и институциональные факторы. Кроме того, разработаны метод нормализации показателей и методика расчёта интегрального индекса, обеспечивающие единый подход к экономической оценке. Предлагаемая система индикаторов имеет научно-практическое значение для оценки эффективности развития предпринимательства в регионах, выявления факторов роста доходов населения и определения приоритетных направлений региональной экономической политики.

Ключевые слова: региональная экономика, предпринимательство, доходы населения, экономическая оценка, система индикаторов, интегральный индекс, нормализация, эффективность, региональное развитие.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological aspects of comprehensive economic assessment of increasing population income through the development of entrepreneurship in the region. It analyzes the capabilities and limitations of the existing statistical indicators used to assess the level of entrepreneurial development and its impact on population income at the regional level. Based on the research findings, a system of indicators integrating economic, social, and institutional factors is proposed. In addition, a normalization method and an integrated index calculation methodology have been developed to ensure a unified assessment framework. The proposed indicator system has significant scientific and practical value for evaluating the effectiveness of regional entrepreneurship development, identifying the factors influencing population income growth, and determining the priority directions of regional economic policy.

Keywords: regional economy, entrepreneurship, population income, economic assessment, indicator system, integrated index, normalization, efficiency, regional development.



KIRISH

Mintaqalarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi turmush darajasini oshirish bugungi kunda davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishishda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, hududlarning tabiiy, iqtisodiy va demografik salohiyatidan samarali foydalanish orqali tadbirkorlik subyektlari sonini ko'paytirish, ularning iqtisodiy faolligini rag'batlantirish va ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish aholi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash hamda hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha qator institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq mazkur islohotlarning hududlar iqtisodiyotiga va aholi daromadlariga ta'sirini kompleks baholash metodologiyasi yetarli darajada shakllanmagan. Amaliyotda asosan tadbirkorlik subyektlari soni, ishlab chiqarish hajmi yoki bandlik ko'rsatkichlari alohida baholanadi. Ushbu ko'rsatkichlarning har biri muhim bo'lsa-da, ular tadbirkorlik rivojlanishining aholi daromadlariga ko'rsatayotgan umumiy iqtisodiy ta'sirini to'liq ifodalay olmaydi.

Mintaqaviy rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari tadbirkorlikni baholashda faqat iqtisodiy natijalar emas, balki bandlik, mehnat unumdorligi, investitsion faollik, innovatsion rivojlanish, soliq tushumlari, ishlab chiqarish samaradorligi va aholi real daromadlari kabi o'zaro bog'liq ko'rsatkichlarni yagona tizim asosida tahlil qilishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, indikatorlar tizimiga asoslangan kompleks iqtisodiy baholash usullarini ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari mintaqaviy iqtisodiyotni boshqarish organlari, mahalliy hokimiyatlar hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqishda iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqada tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirish masalalari jahon va milliy iqtisodiyot fanida ko'plab olimlar tomonidan turli nazariy va amaliy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlikning iqtisodiy o'sish, bandlik va aholi farovonligiga ta'siri bo'yicha ilmiy qarashlar mavjud bo'lsa-da, mintaqaviy darajada ushbu jarayonlarni kompleks indikatorlar tizimi asosida baholash masalalari hali ham yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Tadbirkorlik nazariyasining shakllanishida J.Schumpeter innovatsiyalarni iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholab, tadbirkorni iqtisodiy tizimdagi transformatsion o'zgarishlarning bosh subyekti deb hisoblaydi. Uning fikricha, tadbirkorlikning rivojlanishi yangi ishlab chiqarish usullari, texnologiyalar va bozorlarning shakllanishi orqali iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv mintaqalarda daromadlar o'sishining asosiy omillaridan biri sifatida tadbirkorlikni baholash uchun nazariy asos yaratadi.

M.Porter esa hududlarning raqobatbardoshligi bevosita tadbirkorlik muhiti, infratuzilma, innovatsion salohiyat va institutsional omillarga bog'liqligini asoslaydi. Uning klasterlar nazariyasiga ko'ra, tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi hamkorlik va raqobat muhitining rivojlanganligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, aholi daromadlarining ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Z.Acs va D.Audretsch ilmiy ishlarida tadbirkorlik iqtisodiy o'sishning muhim institutsional omili sifatida talqin qilinib, ayniqsa kichik va o'rta biznesning rivojlanishi yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni joriy etish hamda hududlar iqtisodiy faolligini oshirishdagi roli asoslab berilgan. Mualliflar tadbirkorlikni baholashda faqat korxonalar soni yoki ishlab chiqarish hajmini emas, balki innovatsion faollik, mehnat unumdorligi va bandlik ko'rsatkichlarini ham kompleks hisobga olish zarurligini ta'kidlaydilar.

Xalqaro tashkilotlar, xususan Jahon banki, OECD, Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) va BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) hisobotlarida ham tadbirkorlikning aholi daromadlariga ta'siri ko'p omilli tizim sifatida baholanadi. Mazkur tashkilotlar hududiy rivojlanishni tahlil qilishda biznes muhiti, bandlik, mehnat unumdorligi, investitsiyalar, raqamlashtirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish va inson kapitali ko'rsatkichlarini integratsiyalashgan holda baholashni tavsiya etadi. Bu yondashuv tadbirkorlikni rivojlantirish natijalarini alohida statistik ko'rsatkichlar orqali emas, balki kompleks indikatorlar tizimi asosida aniqlashning afzalligini ko'rsatadi.

O'zbekistonlik olimlar Sh.Sh.Fayziyeva, B.Yu.Xodiyev, R.X.Ergashev, M.S.Qosimova, S.K.Salayev va boshqa tadqiqotchilar mintaqaviy iqtisodiyot, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda aholi daromadlarini oshirish masalalarini keng o'rganganlar. Ularning ilmiy ishlarida tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, hududiy iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish, bandlikni oshirish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritilgan. Shu bilan birga, tadbirkorlik rivojlanishining natijadorligini yagona integral baholash modeli orqali aniqlash masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mavjud ilmiy tadqiqotlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat ishlarda tadbirkorlik rivojlanishi alohida iqtisodiy yoki ijtimoiy ko'rsatkichlar asosida baholangan. Biroq hududlarda tadbirkorlikning aholi daromadlariga ko'rsatayotgan ta'sirini iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional indikatorlarni o'zaro integratsiyalashgan holda aks ettiruvchi yagona baholash tizimi bo'yicha ilmiy-uslubiy yondashuvlar yetarli emas. Aynan ushbu ilmiy bo'shliq mazkur tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada mintaqada tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishni baholash uchun indikatorlarni tanlash mezonlari ishlab chiqiladi, ularning o'zaro bog'liqligi tizimlashtiriladi hamda kompleks integral baholash metodikasi taklif etiladi.



Mazkur yondashuv tadbirkorlik rivojlanishining hududiy samaradorligini aniqroq baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishning ilmiy asoslanganligini oshirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mintaqada tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishni iqtisodiy baholashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan kompleks yondashuv qo'llanildi. Bu jarayonda erishilgan natijalar xalqaro tajriba bilan qiyoslanadi, shuningdek, kelgusida tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirish imkoniyatlarini kengaytirish yo'llari belgilab olindi. Shuningdek, dialektik va tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, mantiqiy umumlashtirish hamda ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Mazkur usullar hududiy iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik faoliyatining aholi daromadlariga ta'sirini ko'p omilli tizim sifatida o'rganish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqada tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirish jarayonini baholash shuni ko'rsatadiki, amaliyotda ko'pincha alohida statistik ko'rsatkichlarga tayaniladi. Xususan, faol tadbirkorlik subyektlari soni, yangi tashkil etilgan korxonalar, bandlik darajasi yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad ko'rsatkichlari alohida baholanadi. Bunday yondashuv ayrim yo'nalishlar bo'yicha holatni aks ettirsada,


tadbirkorlik rivojlanishining aholi daromadlariga kompleks ta'sirini to'liq ifodalay olmaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hududlarda tadbirkorlikning rivojlanish sur'atlari bilan aholi daromadlarining o'sishi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Biroq ushbu bog'liqlik barcha hududlarda bir xil namoyon bo'lmaydi. Ayrim tumanlarda tadbirkorlik subyektlari sonining ortishi daromadlarning sezilarli o'sishiga olib kelgan bo'lsa, ayrim hududlarda esa bu ta'sir nisbatan past bo'lgan. Bu holat tadbirkorlikni baholashda nafaqat miqdoriy, balki sifat ko'rsatkichlarini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mintaqaviy darajada iqtisodiy baholash quyidagi beshta ustuvor yo'nalish asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- tadbirkorlik faolligining rivojlanish darajasi;
- investitsiya va ishlab chiqarish salohiyati;
- bandlik va mehnat bozori holati;
- aholi daromadlarining o'sish dinamikasi;
- tadbirkorlikning hududiy iqtisodiyotga

qo'shayotgan yakuniy hissasi.

Mazkur yo'nalishlarning o'zaro uyg'un holda baholanishi hudud iqtisodiyotining real holatini aniqlash imkonini beradi. Shu bois iqtisodiy baholashda ko'p omilli yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



1-rasm. Mintaqada tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini iqtisodiy baholashning konseptual modeli



Taklif etilgan konseptual modelga ko'ra, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi birinchi navbatda ishlab chiqarish va xizmatlar hajmini kengaytiradi. Natijada yangi ish o'rinlari yaratiladi, mehnat bozori faollashadi va aholi daromadlarining o'sishi uchun iqtisodiy asos shakllanadi. Ushbu jarayon yakuniy bosqichda hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, tadqiqot davomida aniqlanishicha, iqtisodiy baholashda faqat yakuniy natijalarni emas, balki ularni shakllantiruvchi omillarni ham baholash zarur. Ayniqsa, investitsion muhit, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati, infratuzilma rivojlanganligi, raqamli

xizmatlardan foydalanish darajasi hamda institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tadbirkorlik samaradorligini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Shu sababli iqtisodiy baholashning zamonaviy metodologiyasi tadbirkorlikni rivojlantirish natijalarini faqat statistik ko'rsatkichlar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'liq iqtisodiy jarayonlar tizimi sifatida ko'rib chiqishni talab etadi. Mazkur yondashuv boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ustuvor yo'nalishlarni aniqlash, resurslarni samarali taqsimlash va hududlar o'rtasidagi rivojlanish tafovutlarini qisqartirish imkonini beradi.

1-jadval.

Mintaqada tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini iqtisodiy baholash mezonlarining ustuvorlik tavsifi

Baholash yo'nalishi	Baholash mezon	Aholi daromadlariga ta'siri	Boshqaruv qarorlaridagi ahamiyati
Tadbirkorlik faolligi	Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari dinamikasi	Yangi daromad manbalari shakllanadi	Hududning iqtisodiy faolligini baholash
Investitsion muhit	Xususiy investitsiyalar va kreditlardan foydalanish darajasi	Ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligi oshadi	Investitsiya siyosatini takomillashtirish
Bandlik	Tadbirkorlik orqali yaratilgan ish o'rinlari	Aholining barqaror daromad manbalari kengayadi	Bandlik dasturlarini rejalashtirish
Ishlab chiqarish samaradorligi	Mahsulot va xizmatlar hajmining o'sishi	Korxonalar daromadi va ish haqi fondi ortadi	Raqobatbardoshlikni oshirish
Moliyaviy natijalar	Soliq tushumlari va foydalilik darajasi	Hudud iqtisodiy salohiyati mustahkamlanadi	Fiskal siyosatni takomillashtirish
Ijtimoiy natijalar	Real daromadlar va turmush darajasidagi o'zgarishlar	Aholi farovonligi oshadi	Hududiy ijtimoiy rivojlanishni baholash

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini iqtisodiy baholash bir yoki ikkita statistik ko'rsatkich bilan cheklanmasligi lozim. Baholash tizimi tadbirkorlik faolligi, investitsiya jarayonlari, bandlik, ishlab chiqarish samaradorligi, moliyaviy natijalar hamda ijtimoiy ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur.

Taklif etilgan mezonlar tizimi hududiy iqtisodiyotning rivojlanish darajasini kompleks baholash imkonini beradi. Xususan, tadbirkorlik subyektlari sonining ortishi yangi ish o'rinlari yaratilishi, ishlab chiqarish hajmining kengayishi va aholi real daromadlarining o'sishi bilan birgalikda tahlil qilingandagina iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy natijalarini aks ettiradi.

Shuningdek, ushbu yondashuv hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarning natijadorligini tahlil qilish uchun ham metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Mintaqada tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini baholashda alohida statistik ko'rsatkichlardan foydalanish hududiy rivojlanishning haqiqiy holatini to'liq aks ettirmaydi. Shu bois

baholashda iqtisodiy va ijtimoiy omillarni kompleks yondashuv asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq.

2. Tadbirkorlikning aholi daromadlariga ta'siri investitsiya faolligi, bandlik, ishlab chiqarish samaradorligi va tadbirkorlik muhitining rivojlanish darajasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni o'zaro bog'liq holda baholash iqtisodiy tahlilning ishonchligini oshiradi.

3. Taklif etilgan metodologik yondashuv hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish samaradorligini baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlarini belgilash uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

4. Baholash natijalaridan hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirishda foydalanish mumkin.

5. Kelgusidagi tadqiqotlarda iqtisodiy baholash tizimini raqamli monitoring vositalari va ekonometrik prognozlash usullari bilan boyitish mintaqaviy rivojlanishning uzoq muddatli istiqbollarini aniqlash imkonini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. 2022-2026-



yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida.

3. Schumpeter J.A. *The Theory of Economic Development*. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. - 255 p.

4. Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition // *Harvard Business Review*. - 1998. - Vol. 76, No. 6. - P. 77-90.

5. Acs Z.J., Audretsch D.B. *Entrepreneurship, Innovation and Technological Change*. - Boston: Now Publishers Inc., 2005. - 95 p.

6. OECD. *Entrepreneurship at a Glance 2023*. - Paris: OECD Publishing, 2023.

7. World Bank. *World Development Report 2024: The Middle Income Trap*. - Washington, DC: World Bank, 2024.

8. United Nations Development Programme (UNDP). *Human Development Report 2023/2024*. - New York: UNDP, 2024.

9. Xodiyev B.Yu. Mintaqaviy iqtisodiyot. - Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2019. - 320 b.

10. Fayziyeva Sh.Sh. Mintaqalarda tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi daromadlarini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari // *Biznes-ekspert* ilmiy jurnali. - 2023. - № 4. - B. 45-53.

11. Ergashev R.X. Tadbirkorlik iqtisodiyoti. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. - 284 b.

12. Qosimova M.S. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. - 296 b.

13. Salayev S.K. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy yo'nalishlari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar* ilmiy elektron jurnali. - 2022. - № 5. - B. 112-121.

14. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy holati (2020-2025-yillar statistik to'plamlari).

15. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Rasmiy statistik va tahliliy materiallar. - Toshkent, 2025.

16. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. Bandlik va aholi daromadlari bo'yicha yillik hisobotlar. - Toshkent, 2025.

17. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati sharhi va statistik byulletenlar. - Toshkent, 2025.

18. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari. - Qarshi, 2025.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Quldasheva Maftuna Musurmon qizi QDTU "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida assistenti / Кулдашева Мафтуна Мусурмон кизи — ассистент кафедры «Инновационная экономика» Каршинского государственного технического университета / Kuldashева Maftuna — Assistant at the Department of Innovative Economics, Karshi State Technical University.

E-mail: quldasheva.maftuna@mail.ru



MINTAQADA OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Quldasheva Maftuna Musurmon qizi

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ И ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РЕГИОНЕ

Кулдашева Мафтун

IMPROVING THE INSTITUTIONAL AND ORGANIZATIONAL-ECONOMIC MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF FAMILY ENTREPRENEURSHIP IN THE REGION

Kuldasheva Maftuna

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqada oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning institutsional va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning amaldagi institutsional tizimi, davlat tomonidan yaratilgan tashkiliy-iqtisodiy sharoitlar hamda ularning aholi bandligi va daromadlariga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat organlari, moliya institutlari, ta'lim muassasalari, mahalla institutlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga asoslangan takomillashtirilgan institutsional mexanizm taklif etilgan. Shuningdek, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oilaviy tadbirkorlik, institutsional mexanizm, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, mintaqaviy iqtisodiyot, davlat qo'llab-quvvatlashi, bandlik, aholi daromadlari, hududiy rivojlanish, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация

В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты совершенствования институциональных и организационно-экономических механизмов развития семейного предпринимательства в регионе. Проведен анализ действующей институциональной системы поддержки семейного предпринимательства, организационно-экономических условий, созданных государством, а также их влияния на занятость населения и рост доходов. По результатам исследования предложен усовершенствованный институциональный механизм, основанный на укреплении взаимодействия между государственными органами, финансовыми институтами, образовательными учреждениями, институтами махалли и субъектами семейного предпринимательства. Кроме того, разработаны организационно-экономические механизмы поддержки семейного предпринимательства с учетом социально-экономических особенностей регионов.

Ключевые слова: семейное предпринимательство, институциональный механизм, организационно-экономический механизм, региональная экономика, государственная поддержка, занятость, доходы населения, региональное развитие, экономическая эффективность.

Abstract

This article examines the theoretical and practical aspects of improving the institutional and organizational-economic mechanisms for the development of family entrepreneurship in the region. It analyzes the existing institutional support system for family entrepreneurship, the organizational and economic conditions created by the government, and their impact on employment and population income growth. Based on the research findings, an improved institutional mechanism is proposed, aimed at strengthening cooperation among government authorities, financial institutions,



educational organizations, mahalla institutions, and family entrepreneurship entities. In addition, organizational and economic support mechanisms have been developed taking into account the socio-economic characteristics of the regions.

Keywords: family entrepreneurship, institutional mechanism, organizational and economic mechanism, regional economy, government support, employment, population income, regional development, economic efficiency.

KIRISH

Bugungi kunda mintaqalarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, aholi bandligini kengaytirish hamda daromadlarini oshirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqsadlarga erishishda oilaviy tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim institutsional bo'g'ini sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Oilaviy tadbirkorlik nafaqat aholining o'zini o'zi band qilishini ta'minlaydi, balki hududlarda yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish, kambag'allikni qisqartirish va aholining barqaror daromad manbalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy instrument hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan institutsional islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, oilaviy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlar ajratish, biznesni ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillarini soddalashtirish, tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish hamda aholini kasb-hunarga o'qitish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada oilaviy tadbirkorlik subyektlari soni ortib, ularning hududiy iqtisodiyotdagi ulushi va aholi daromadlarini shakllantirishdagi roli sezilarli darajada kuchaymoqda.

Mavjud ilmiy tadqiqotlarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning ayrim iqtisodiy, tashkiliy va moliyaviy jihatlarini keng yoritilgan bo'lsa-da, hududiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda davlat organlari, moliya institutlari, ta'lim tizimi, mahalla institutlari va tadbirkorlik subyektlari O'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yagona tizim sifatida mujassamlashtiruvchi institutsional hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Mazkur ilmiy bo'shliqni to'ldirish maqsadida ushbu maqolada mintaqada oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning amaldagi institutsional tizimi kompleks tahlil qilinadi, uning samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanadi hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga oluvchi takomillashtirilgan institutsional va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar taklif etiladi. Taklif etilgan yondashuv hududlarda oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning institutsional va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari institutsional iqtisodiyot, boshqaruv nazariyasi, oilaviy biznesni rivojlantirish konsepsiyasi hamda hududiy rivojlanish nazariyalari kesishgan nuqtada shakllangan ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning muvaffaqiyati moliyaviy resurslar hajmidan ko'ra ko'proq samarali institutlar, davlat siyosati, biznes muhiti, ta'lim tizimi va mahalliy boshqaruv institutlari o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik bilan izohlanmoqda.

Institutsional iqtisodiyot nazariyasining asoschilaridan biri Douglass C. North institutlarni jamiyatda shakllangan rasmiy va norasmiy qoidalar tizimi sifatida tavsiflab, ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish hamda iqtisodiy agentlarning xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish orqali izohlaydi. Olimning fikricha, iqtisodiy o'sishning barqarorligi resurslarning ko'pligi bilan emas, balki samarali ishlaydigan institutlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Mazkur nazariya oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat boshqaruvi, huquqiy baza, moliyaviy institutlar va mahalliy boshqaruv organlari O'rtasidagi institutsional hamkorlikni takomillashtirish zarurligini ilmiy asoslaydi.

Oliver E. Williamson tomonidan ishlab chiqilgan tranzaksiya xarajatlari nazariyasida iqtisodiy subyektlarning samaradorligi boshqaruv mexanizmlarining sifati hamda institutlararo munosabatlarning tashkil etilishiga bog'liqligi ko'rsatib berilgan.

Ronald H. Coasening firma nazariyasida iqtisodiy institutlarning asosiy vazifasi bozor mexanizmlaridagi tranzaksiya xarajatlarini minimallashtirishdan iboratligi asoslab berilgan. Ushbu nazariya oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni qisqartirish, davlat xizmatlarini soddalashtirish hamda tadbirkorlar uchun qulay institutsional muhit yaratishning nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

Oilaviy biznesni boshqarish sohasidagi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda J.H. Astrachan, K.E. Gersick, I.P. Lansberg, J.J. Chrisman, J.H. Chua va P. Sharma oilaviy korxonalarni rivojlantirishning boshqaruv xususiyatlari, avlodlar almashinuvi, strategik boshqaruv hamda institutsional barqarorlik masalalarini chuqur tadqiq etganlar. Ularning ilmiy ishlarida oilaviy biznes muvaffaqiyatining asosiy omili sifatida faqat moliyaviy qo'llab-quvvatlash emas, balki institutsional boshqaruv sifati, bilimlar almashinuvi, oila a'zolari O'rtasidagi vakolatlar taqsimoti va tashqi institutlar bilan samarali hamkorlik e'tirof etiladi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham institutsional omillarning ustuvorligini tasdiqlaydi. OECDning tadbirkorlik siyosati bo'yicha tavsiyalarida kichik va oilaviy biznesni rivojlantirish davlat boshqaruvi sifati, tartibga solishning shaffofligi, moliyalashtirish imkoniyatlari va innovatsion infratuzilma bilan uzviy bog'liqligi qayd etiladi. Jahon banki tadqiqotlarida esa tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy omillari sifatida biznes yuritish sharoitlari, institutsional ishonch va davlat xizmatlarining samaradorligi e'tirof etiladi. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) hamda BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) hisobotlarida oilaviy tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirish, munosib bandlikni ta'minlash hamda inklyuziv iqtisodiy o'sishga erishishning muhim institutsional vositasi sifatida baholanadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning turli jihatlarini keng tadqiq etilgan. Jumladan, Sh.Sh.Fayziyeva mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlikni davlat tomonidan



qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini, B.Yu. Xodiyev kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning institutsional asoslarini, R.X.Ergashev hududiy iqtisodiyotni boshqarish mexanizmlarini, M.S. Qosimova esa tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish omillarini tadqiq qilgan. Mazkur ilmiy ishlarda davlat siyosati va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarining ahamiyati asoslab berilgan bo'lsa-da, hududiy darajada davlat organlari, mahalla institutlari, moliyaviy tashkilotlar, ta'lim muassasalari va oilaviy tadbirkorlik subyektlarini yagona koordinatsiyalashgan institutsional tizim sifatida bog'lovchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm kompleks tarzda ishlab chiqilmagan.

Adabiyotlarning tizimli tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy, moliyaviy yoki tashkiliy jihatlari alohida yo'nalishlar sifatida yoritilgan. Biroq ularning o'zaro funksional bog'liqligini ta'minlaydigan, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini inobatga oluvchi hamda barcha manfaatdor institutlarning hamkorligini yagona boshqaruv modeli asosida integratsiyalovchi institutsional va tashkiliy-iqtisodiy mexanizm yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mazkur ilmiy bo'shliq ushbu tadqiqotning konseptual asosini tashkil etadi hamda muallif tomonidan taklif etilayotgan 5M institutsional mexanizmini ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosini institutsional iqtisodiyot nazariyasi, hududiy rivojlanish konsepsiyasi, tizimli yondashuv hamda tashkiliy boshqaruv tamoyillari tashkil etadi. Tadqiqotda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning institutsional va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalasi iqtisodiy tizimning o'zaro bog'liq elementlari sifatida kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Bunda davlat boshqaruvi organlari, moliya institutlari, ta'lim muassasalari, mahalla institutlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi institutsional aloqalar yagona tizim sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqotda tizimli tahlil, institutsional tahlil, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, ekspert baholash, grafik modellashirish hamda iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tizimli tahlil usuli orqali oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda ishtirok etuvchi institutlarning o'zaro funksional bog'liqligi o'rganildi. Qiyosiy tahlil yordamida milliy va xorijiy tajribalar solishtirildi hamda amaldagi mexanizmlarning ustun va zaif tomonlari aniqlandi. Grafik modellashirish usuli asosida esa oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning mualliflik institutsional modeli ishlab chiqildi.

Mazkur tadqiqotda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional mexanizmi ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv davlat boshqaruvi, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, inson kapitalini rivojlantirish, bozor infratuzilmasi hamda monitoring va baholash tizimlarini yagona boshqaruv modeli doirasida o'zaro bog'laydi. Taklif etilgan metodik yondashuv nafaqat alohida institutlar faoliyatini, balki ularning o'zaro hamkorligi natijasida yuzaga keladigan sinergik samarani ham baholash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan institutsional mexanizm hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni shakllantirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning amaldagi institutsional tizimi tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda ushbu sohani qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, mavjud mexanizmlar asosan alohida institutlar faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan. Natijada davlat organlari, moliya institutlari, ta'lim muassasalari, mahalla institutlari va bozor infratuzilmasi O'rtasidagi o'zaro hamkorlik yetarli darajada integratsiyalashmagan.


1-jadval.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional mexanizmining tarkibiy bloklari

Tarkibiy blok	Asosiy mazmuni	Kutilayotgan natija
Institutsional tartibga solish	Normativ-huquqiy baza, davlat boshqaruvi, institutsional muvofiqlashtirish	Boshqaruv samaradorligini oshirish
Moliyaviy qo'llab-quvvatlash	Imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, grantlar, kafillik mexanizmlari	Investitsion faollikni oshirish
Inson kapitalini rivojlantirish	Kasbiy tayyorgarlik, tadbirkorlik ko'nikmalari, maslahat xizmatlari	Mehnat unumdorligini oshirish
Bozor integratsiyasi va infratuzilma	Kooperatsiya, logistika, marketing, elektron savdo platformalari	Sotuv hajmi va raqobatbardoshlikni oshirish
Monitoring va baholash	Natijadorlik indikatorlari, raqamli monitoring, teskari aloqa tizimi	Davlat qo'llab-quvvatlashining samaradorligini oshirish

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish samaradorligi institutsional va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning o'zaro uyg'unligiga bog'liq. Institutsional tartibga solish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, inson kapitalini rivojlantirish, bozor integratsiyasi hamda

monitoring tizimining kompleks faoliyati tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishi va aholi daromadlarining o'sishini ta'minlaydi. Mazkur tarkibiy bloklar 5M institutsional mexanizmining konseptual asosini tashkil etadi.



1-rasm. Mintaqada oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi



1-rasmda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi keltirilgan. Mazkur model tashqi institutsional muhit, ishtirokchi institutlar hamda 5M mexanizmining o'zaro funksional bog'liqligini aks ettiradi. Modelning amaliy ahamiyati oilaviy tadbirkorlik subyektlarini kompleks qo'llab-quvvatlash orqali ishlab chiqarish, bandlik va aholi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlashga qaratilganligidadir.

2-jadval.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning 5M institutsional mexanizmi: amalga oshirish yo'nalishlari va kutilayotgan natijalar

5M mexanizmi komponenti	Asosiy amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Mas'ul institutlar	Kutilayotgan natija
Muvofiqlashtirish (Management)	Davlat organlari, banklar va mahalla institutlari faoliyatini yagona platforma orqali muvofiqlashtirish	Viloyat hokimligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi	Institutlararo hamkorlik kuchayadi
Moliyalashtirish (Money)	Imtiyozli kreditlar, grantlar va kafillik mexanizmlarini hudud ehtiyojiga moslashtirish	Tijorat banklari, Tadbirkorlikni rivojlantirish jamg'armasi	Moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi
Malaka (Man)	Tadbirkorlarni o'qitish, konsalting va mentorlik xizmatlarini rivojlantirish	OTMlar, Biznesni rivojlantirish markazlari	Inson kapitali va tadbirkorlik kompetensiyalari rivojlanadi
Bozor (Market)	Kooperatsiya, logistika va elektron savdo platformalarini rivojlantirish	Savdo-sanoat palatasi, eksportni qo'llab-quvvatlash tashkilotlari	Mahsulot realizatsiyasi va eksport salohiyati ortadi
Monitoring (Monitoring)	KPI asosida natijalarni muntazam baholash va raqamli monitoring tizimini joriy etish	Statistika organlari, mahalliy hokimliklar	Davlat dasturlarining samaradorligi oshadi

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 5M institutsional mexanizmi oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonini alohida yo'nalishlar bo'yicha emas, balki yagona integratsiyalashgan boshqaruv tizimi asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Mazkur mexanizmining har bir komponenti o'zaro funksional bog'liqlikda ishlaydi: Management komponenti institutlararo muvofiqlashtirishni ta'minlash, Money moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni kuchaytiradi. Man komponenti inson kapitalini rivojlantirishga, Market mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga olib chiqishga, Monitoring esa natijadorlikni muntazam baholash va boshqaruv qarorlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli 5M mexanizmini kompleks joriy etish hududlarda oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirish va aholi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish samaradorligi alohida qo'llab-quvvatlash vositalarining mavjudligi bilan emas, balki ular o'rtasidagi institutsional uyg'unlik darajasi bilan belgilanadi. Mavjud amaliyotda davlat tomonidan kreditlash, subsidiya ajratish, kasb-hunarga o'qitish va maslahat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha alohida dasturlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ularning yagona boshqaruv tizimi asosida muvofiqlashtirilmaganligi kutilayotgan natijaga to'liq erishish imkonini cheklamoqda.

Taklif etilgan integratsiyalashgan institutsional va tashkiliy-iqtisodiy mexanizm mazkur kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, uning asosiy afzalligi davlat organlari, moliya institutlari, ta'lim muassasalari, mahalla institutlari va bozor infratuzilmasi O'rtasidagi funksional aloqalarni yagona tizim doirasida tashkil etishdan iborat. Bunday yondashuv qo'llab-quvvatlash choralarining takrorlanishini kamaytiradi, resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi hamda boshqaruv qarorlarining izchilligini ta'minlaydi. Taklif etilgan modelning yana bir muhim jihati shundaki, u oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish natijalarini faqat moliyalashtirish hajmi yoki ro'yxatdan o'tgan tadbirkorlik subyektlari soni orqali emas, balki yaratilgan ish o'rinlari, mehnat unumdorligi, mahsulot realizatsiyasi, qo'shilgan qiymat va aholi daromadlarining o'sishi kabi yakuniy natijalar asosida baholash imkonini beradi. Mazkur yondashuv hududiy rivojlanish samaradorligini kompleks baholash uchun amaliy ahamiyatga ega.

Shuningdek, ishlab chiqilgan mexanizm hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olgan holda moslashtirilishi mumkin. Bu esa uni nafaqat Qashqadaryo viloyati, balki mamlakatning boshqa hududlarida ham qo'llash imkonini beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning mavjud institutsional tizimi alohida institutlar faoliyatiga asoslangan bo'lib, ular O'rtasidagi



hamkorlik va muvofiqlashtirish mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlash choralarining samaradorligini pasaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, tadqiqot davomida davlat boshqaruvi, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, inson kapitalini rivojlantirish, bozor integratsiyasi hamda monitoring tizimlarini yagona boshqaruv modeli asosida birlashtiruvchi integratsiyalashgan institutsional va tashkiliy-iqtisodiy mexanizm ishlab chiqildi. Mazkur model institutlararo hamkorlikni kuchaytirish orqali oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, taklif etilgan mexanizmni amaliyotga joriy etish natijasida hududlarda oilaviy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faolligi ortishi, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi yaxshilanishi, kooperatsiya aloqalari rivojlanishi hamda yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatlari kengayishi kutiladi.

To'rtinchidan, ishlab chiqilgan yondashuv davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlash dasturlarining natijadorligini aholi daromadlari, bandlik, mehnat unumdorligi va biznesning barqaror rivojlanishi kabi yakuniy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholash imkonini beradi.

Beshinchidan, taklif etilgan integratsiyalashgan institutsional va tashkiliy-iqtisodiy mexanizm hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlariga moslashtirilishi mumkin bo'lgan universal boshqaruv modeli hisoblanadi. Mazkur modelni amaliyotga tatbiq etish oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirish va hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son Farmoni. Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirishga oid navbatdagi islohotlar to'g'risida.

3. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge University Press, 1990.

4. Williamson O.E. The Economic Institutions of Capitalism: Firms, Markets, Relational Contracting. New York: Free Press, 1985.

5. Coase R.H. The Firm, the Market, and the Law. Chicago: University of Chicago Press, 1988.

6. Astrachan J.H., Zellweger T.M. Family Business. Routledge, 2021.

7. Chrisman J.J., Chua J.H., Sharma P. Trends and Directions in the Development of a Strategic Management Theory of the Family Firm // Entrepreneurship Theory and Practice.

8. OECD. SME and Entrepreneurship Outlook 2023. Paris: OECD Publishing, 2023.

9. World Bank. World Development Report 2022: Finance for an Equitable Recovery. Washington, D.C.: World Bank, 2022.

10. International Labour Organization (ILO). World Employment and Social Outlook: Trends 2024. Geneva: ILO, 2024.

11. United Nations Development Programme (UNDP). Human Development Report 2023/2024. New York: UNDP, 2024.

12. Xodiyev B.Yu. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2020.

13. Fayziyeva Sh.Sh. Fayziyeva Sh.Sh. Mintaqalarda tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi daromadlarini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari // *Biznes-ekspert* ilmiy jurnali. - 2023. - № 4. - B. 45-53.

14. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekistonning hududlari bo'yicha statistik to'plam. Toshkent, 2025.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Quldasheva Maftuna Musurmon qizi QDTU “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasida assistenti / Кулдашева Мафтуна Мусурмон кизи — ассистент кафедры «Инновационная экономика» Каршинского государственного технического университета / Kuldashева Maftuna — Assistant at the Department of Innovative Economics, Karshi State Technical University.

E-mail: quldasheva.maftuna@mail.ru



YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI: NAZARIY YONDASHUVLAR TIPOLOGIYASI VA ULARNING QIYOSIY TAHLILI

Murodillayev Sardorbek Bahodir o'g'li

ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОНЦЕПЦИИ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ: ТИПОЛОГИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ И ИХ СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Муродиллаев Сардорбек Баходир угли

STAGES IN THE FORMATION OF THE GREEN ECONOMY CONCEPT: A TYPOLOGY OF THEORETICAL APPROACHES AND THEIR COMPARATIVE ANALYSIS

Murodillayev Sardorbek Bahodir o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi va evolyutsiyasi nazariy hamda institutsional nuqtai nazardan tahlil qilindi. Xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda mavjud davriylashtirish modellari qiyosiy tahlil qilinib, ularning metodologik cheklovlari aniqlandi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, kontent tahlil, tarixiy-xronologik va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Natijada yashil iqtisodiyot konsepsiyasi rivojlanishining xalqaro miqyosda tan olingan tarixiy voqealar va rasmiy hujjatlarga asoslangan to'rt bosqichli davriylashtirish modeli ishlab chiqildi. Shuningdek, OECD, UNEP, Jahon banki va akademik adabiyotlarda berilgan ta'riflar umumlashtirilib, ekologiya, iqtisodiyot, ijtimoiy tenglik, innovatsiyalar hamda uzoq muddatli barqarorlikni qamrab oluvchi mualliflik ta'rifi taklif etildi. Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyot nazariyasini takomillashtirish, mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish hamda yashil transformatsiya jarayonlarini baholashning metodologik asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Аннотация. В статье проведен теоретический и институциональный анализ формирования и эволюции концепции «зеленой экономики». Выполнено сравнительное исследование существующих международных и национальных моделей периодизации, выявлены их методологические ограничения. В исследовании использованы методы сравнительного анализа, контент-анализа, историко-хронологического и системного подходов. В результате предложена четырехэтапная модель периодизации развития концепции зеленой экономики, основанная на международно признанных исторических событиях и официальных документах. Кроме того, на основе обобщения подходов OECD, UNEP, Всемирного банка и академической литературы разработано авторское определение зеленой экономики, объединяющее экологические, экономические, социальные, инновационные и долгосрочные аспекты устойчивого развития. Полученные результаты могут быть использованы для дальнейшего совершенствования теории зеленой экономики, разработки методологии оценки региональной экономической безопасности и анализа процессов зеленой трансформации.

Abstract. This study examines the formation and evolution of the green economy concept from theoretical and institutional perspectives. Existing international and national periodization models are critically compared to identify their methodological limitations. The research employs comparative analysis, content analysis, historical-chronological analysis, and a systems approach. Based on these methods, a new four-stage periodization model is proposed, in which each stage is linked to internationally recognized historical events and official policy documents. In addition, the definitions of the green economy developed by the OECD, UNEP, the World Bank, and leading scholars are comparatively analyzed, resulting in an integrated authorial definition that incorporates ecological sustainability, economic efficiency, social equity, innovation, and long-term regional development. The findings contribute to strengthening the theoretical foundations of the green economy and provide a methodological framework for future studies on regional economic security and green transformation, particularly in developing and transition economies.



Kalit soʻzlar: yashil iqtisodiyot, yashil oʻsish, barqaror rivojlanish, davriylashtirish, institutsional yondashuv, mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik, ekologik iqtisodiyot, yashil transformatsiya.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленый рост, устойчивое развитие, периодизация, институциональный подход, региональная экономическая безопасность, экологическая экономика, зеленая трансформация.

Keywords: green economy, green growth, sustainable development, periodization, institutional approach, regional economic security, ecological economics, green transformation.

KIRISH

Dunyo iqtisodiyoti resurs tanqisligi bilan yuzmayuz keldi. Ekologik muammolar ham kun sayin ogʻirlashdi. Shu ikki omil odamlarni yangi yoʻl izlashga majbur qildi. Jarayon 1962 yildan boshlangan. Oʻshandan beri toʻrt bosqichni bosib oʻtdi. Natijada «yashil iqtisodiyot» degan tushuncha paydo boʻldi. Bugun bu tushunchani BMT, Jahon banki, turli ekologik tashkilotlar va deyarli butun dunyo mamlakatlari tan oladi. BMT ning taʼrifiga koʻra bu - odamlar farovonligini oshiradigan, tengsizlikni kamaytiradigan, tabiatga zarar bermaydigan iqtisodiyot [1]. Termin esa ancha oldin, 1989 yilda iqtisodchilar Devid Pirs, Anil Markandiya va Edvard Barbye tomonidan tayyorlangan “Blueprint for a Green Economy” hisobotida atama birinchi marta ilmiy muomalaga kiritilgan [2].

Muammoning dolzarbligi ikki tomondan koʻrinadi. Birinchisi nazariy tomon. Xalqaro adabiyotda tushunchani turlicha guruhlashgan, lekin koʻpchilik faqat mazmun oʻzgarishini kuzatgan, institutsional yondashuv asosida alohida oʻrganilmagan. Death Global Janub davlatlari misolida toʻrtta diskursni ajratgan - yashil qayta tiklanish, yashil oʻsish, yashil transformatsiya va yashil inqilob [3]. Georgeson, Maslin va Poessinouw esa boshqacha yoʻl tutgan, ular OECD, UNEP va Jahon banki boshchiligidagi WAVES loyihasining oʻlchash usullarini solishtirgan [4]. Milliy adabiyotda ham bir model bor. Vaxabov va Xajibakiyev toʻrt bosqichli davriylashtirish taklif qilishgan, mezon sifatida esa voqealar mazmunini olishgan [5]. Bu ishlarning har biri qimmatli. Ammo bittasi ham bosqich chegarasini aniq xalqaro hujjatga bogʻlamagan. Mintaqaviy oʻlchov ham hech qaysi birida yoʻq.

Ikkinchi jihat amaliy tomon. Taʼrif borasida ham kelishuv yoʻq. OECD bu tushunchani boshqacha koʻradi - resurs tejamkorligi va past karbonli uzoq muddatli oʻsish rejasi sifatida [6]. UNEP esa boshqa yoʻldan boradi, uning markazida ijtimoiy tenglik va ekologik xavfni kamaytirish turadi [1]. Jahon banki oʻz hisobotida inklyuziv oʻsish gʻoyasini ilgari suradi, aholining eng zaif qatlamlariga foyda yetishini birinchi oʻringa qoʻyadi. Akademik doiralarda esa vaziyat yanada murakkab. Koʻp tadqiqotchi tushunchani «soyabon konsepsiya» deb ataydi, chunki uning ostida turli yoʻnalish yashirinadi. Baʼzilar «bahsli konsepsiya» ham deyishadi, sababi oddiy - yagona, hammaga birdek tushunarli taʼrif hali yoʻq [7]. Toʻrttala yondashuvni yonma-yon qoʻysak, bitta umumiy jihat koʻrinadi. Ularning barchasi global yoki milliy darajada gapiradi. Mintaqa darajasidagi barqaror rivojlanish esa chetda qolib ketadi.

Bu boʻshliqning amaliy ahamiyati katta, ayniqsa tranzit iqtisodiyoti mamlakatlari uchun. Oʻzbekiston ham chetda qolmadi. 2019 yil 4 oktabrda Prezident PQ-4477 sonli qaror imzoladi. Shu qaror bilan 2019-2030 yillarga

moʻljallangan yashil iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi tasdiqlandi [8]. Bugun bu siyosat koʻzga koʻrinadigan natija bermoqda. 2025 yil oxiriga kelib quyosh stansiyalari quvvati 3930 MVtga yetdi. Shamol stansiyalari esa 1652 MVtni tashkil qildi. Yil davomida 3,2 milliard kub metr tabiiy gaz tejaldi [9]. 2026 yilning birinchi yarmida rasm yanada yaxshilandi - quyosh va shamol stansiyalari oʻtgan yilga nisbatan 24,3 foiz koʻproq energiya berdi [10]. Bunday tez oʻzgarishlarni xalqaro nazariyaga toʻgʻri joylashtirish oson emas. Buning uchun aniq davriylashtirish kerak. Mintaqa darajasini hisobga oluvchi taʼrif ham zarur.

Tadqiqotning maqsadi - yashil iqtisodiyot tushunchasiga oid mavjud xalqaro va milliy modellarni tanqidiy koʻzdan oʻtkazish. Shu bilan birga uning institutsional taʼriflarini ham tahlil qilish. Bu tahlil orqali ularning umumiy kamchiligi ochiladi. Kamchilikni bartaraf etish uchun ikkita narsa taklif etiladi. Birinchisi - institutsional yetuklik mezoniga tayangan yangi davriylashtirish modeli. Ikkinchisi - mintaqaviy kontekstga moslashtirilgan, sintezlangan taʼrif.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

birinchidan, mavjud xorijiy va milliy davriylashtirish modellarini qiyosiy tahlil qilish;

ikkinchidan, ularning umumiy metodologik kamchiliklarini aniqlash;

uchinchidan, institutsional yetuklik mezoniga asoslangan, har bir bosqichi tekshiriladigan xalqaro voqeaga bogʻlangan yangi model taklif etish;

toʻrtinchidan, tushunchaning institutsional taʼriflarini (OECD, UNEP, Jahon banki, akademiklar) tahlil qilish;

beshinchidan, mintaqaviy oʻlchovni oʻz ichiga olgan, besh yoʻnalishga asoslangan sintezlangan taʼrifni taklif etish.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda bir nechta usul birga qoʻllaniladi. Asosiysi - qiyosiy tahlil usuli. U orqali xalqaro va milliy davriylashtirish modellari yonma-yon qoʻyiladi, ularning mezonlari solishtiriladi. Tizimli yondashuv ham muhim oʻrin tutadi, chunki yashil iqtisodiyot tushunchasi alohida elementlardan emas, oʻzaro bogʻliq qismlardan iborat, shuning uchun uni bir butun sifatida koʻrish kerak.

Institutsional taʼriflarni tahlil qilishda kontent-tahlil usuli qoʻllaniladi. OECD, UNEP, Jahon banki va akademik manbalardagi matnlar diqqat bilan oʻrganiladi, ulardagi takrorlanuvchi tushunchalar va farqli jihatlar ajratib olinadi. Bundan tashqari tarixiy-xronologik usul ham ishlatiladi, u orqali tushunchaning shakllanish bosqichlari aniq vaqt ketma-ketligida koʻrsatiladi. Sintez va induksiya usullari esa yakuniy bosqichda kerak boʻladi



- turli manbalardan olingan xulosalar birlashtirilib, yangi, umumlashtirilgan ta'rifga aylantiriladi.

Tadqiqot ob'ekti - yashil iqtisodiyot kontsepsiyasi va uning nazariy evolyutsiyasi.

Tadqiqot predmeti - ushbu kontsepsiyaning davriylashtirish mezonlari hamda institutsional ta'riflari o'rtasidagi bog'liqlik.

Ma'lumot manbai sifatida xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari va O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari ishlatiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot mavzusida ilmiy ishlar, tadqiqotlar juda ko'p. Mualliflar tomonidan amalga oshirilgan ushbu tadqiqotlarda yashil iqtisod kontsepsiyasini turli tomondan ochib berishga harakat qilingan. Xalqaro adabiyotda asosiy e'tibor tipologiya va o'lchash usullariga qaratilgan - bu haqida kirish qismida to'xtaldik. Endi esa boshqa qatlamga o'tamiz.

Bibliometrik tahlil qiluvchi tadqiqotlar alohida guruhni tashkil qiladi. 2016-2022 yillar oralig'ida chop etilgan 1022 ta maqolani o'rgangan bir ish shuni ko'rsatdi - mavzuga qiziqish 2016 yildan keyin keskin oshgan, ayniqsa iqlim inqirozi mavzusi bilan bog'liq nashrlar ko'paygan [11].

Yevropa Atrof-muhit Agentligi ham o'zining hisobotida boshqacha yondashuv taklif qiladi. U yerda tushuncha «printsipal to'plami» sifatida ko'riladi - avlodlar orasidagi adolat, ehtiyotkorlik tamoyili, tabiiy kapitalni qadrlash kabi. Bu ta'rif OECD yoki UNEP ta'riflaridan farq qiladi, chunki u aniq ta'rif emas, balki tamoyillar ro'yxati beradi [12].

Milliy adabiyotga o'tsak, manzara boyroq. Axmatov Sh. o'z ishida O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xorij tajribasini alohida o'rgangan, Stern, Jekson va Lovins kabi g'arb iqtisodchilarining g'oyalarini milliy kontekstga moslashtirishga harakat qilgan [13]. Boshqa bir tadqiqotda esa yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni moliyalashtirish nuqtai nazaridan ko'rilgan, u yerda ekologik siyosat va iqtisodiy mexanizmlar orasidagi bog'liqlik alohida ta'kidlangan [14].

Bu adabiyotlarning barchasida bitta umumiy xususiyat bor. Ular davriylashtirish yoki ta'rif masalasini alohida, chuqur tadqiqot predmeti sifatida ko'rmaydi. Ko'pincha bu masala boshqa, kengroq mavzuning (masalan moliyalashtirish yoki xorij tajribasi) bir qismi sifatida qisqa yoritiladi. Aynan shu bo'shliq keyingi bo'limda to'ldiriladi.

Yashil iqtisodiyot va shunga yondosh mavzularda O'zbekistonda ham ko'plab tadqiqotlar olib borilgan va ilmiy ishlar qilingan. Har bir muallif o'z sohasi doirasida yondashgan. Vaxabov va Xajibakiyev to'rt bosqichli davriylashtirishga asos solishdi, ularning modeli hozirgacha darslik darajasida qo'llaniladi [5]. Axmatov esa boshqa yo'ldan borib, Stern, Jekson va Lovins kabi g'arb iqtisodchilarining g'oyalarini o'rganib, ularni milliy kontekstga qanday moslashtirish mumkinligini tahlil qildi [13]. Saloxov S.S maqolada asosan bank kreditlari orqali quyosh panellari sotib olishni moliyalashtirishni va Klark-Fisher modelini tahlil qilingan, davlat

mablag'larining ijobiy indikatorlarini ko'rsatishga harakat qildilar [15].

Milliy tadqiqotlardan birida yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasining ustuvor yo'nalishlari alohida ko'rsatilgan. Ular energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi manbalar, iqlim o'zgarishiga moslashish va suvdan foydalanish samaradorligi asosiy o'rinni egallaydi [16]. Bu yerda ham 2030 yilgacha bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlar keltirilgan, lekin davriylashtirish masalasi alohida ko'tarilmagan.

Xitoyda tushuncha o'ziga xos yo'l bosib o'tgan. Bir tadqiqotga ko'ra, «yashil iqtisodiyot» atamasini mamlakat ichida birinchi bo'lib Liu taklif qilgan, uning markazida ekologik iqtisodiyotning muvofiqlashtirilgan rivojlanishi turadi [17]. Bu - G'arb ta'riflaridan farq qiladigan nuqta, chunki xitoylik olimlar ko'proq «yashil tog'lar - oltin tog'lar» degan milliy falsafiy tamoyilga tayanishadi, sof iqtisodiy hisob-kitobga emas.

Janubiy Koreyada esa boshqacha yo'l tanlangan - u yerda nazariyadan ko'ra qonunchilik oldinga chiqqan. Metyus buni alohida tahlil qildi. Uning yozishicha, Koreya dunyoda birinchi bo'lib «Yashil o'sish asosiy qonuni»ni qabul qilgan davlat, bu esa strategiyani shunchaki tavsiya emas, majburiy milliy ustuvorlikka aylantirgan [18]. J.Mathews shuningdek Koreya strategiyasini Xitoyning O'n ikkinchi besh yillik rejasiga bilan solishtiradi, ikkalasi ham sanoatni qayta qurish va yangi o'sish drayverlarini yaratishga qaratilgan.

Yaponiya tajribasi biroz kechroq, lekin keng qamrovli. 2020 yil dekabrda mamlakat «Yashil o'sish strategiyasi»ni qabul qildi, unda 14 ta ustuvor tarmoq belgilandi - dengiz shamol energetikasi, vodorod, yadro energetikasi, elektromobillar shular jumlasidan [19]. Bu strategiyaning o'ziga xosligi shunda - u nafaqat 2050 yilgacha uglerod neytralligini, balki har bir tarmoq uchun aniq o'sish bosqichlarini ham belgilaydi.

Shu o'rinda bitta narsani ochiq aytish kerak. Sanab o'tilgan ishlarning hech biri davriylashtirishni yoki ta'rifni asosiy, mustaqil tadqiqot predmeti sifatida ko'rmaydi. Har birida bu masala boshqa, kengroq mavzuning yon qismi sifatida qisqa yoritiladi. Aynan shu bo'shliq - institutsional yetuklik mezoniga asoslangan, xalqaro voqealarga izchil bog'langan davriylashtirish yo'q ekanligi - keyingi bo'limda to'ldiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyot kontsepsiyasining evolyutsiyasi mavjud ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinishini yana bir bor tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik tadqiqotlarda yashil iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari konseptual, siyosiy yoki institutsional nuqtai nazardan yoritilgan bo'lsa-da, ularning davriy chegaralari aniq xalqaro hujjatlar va tarixiy voqealar bilan tizimli bog'lanmagan. Shu sababli turli mualliflarda bir xil davrlar turlicha boshlanish sanalari bilan uchraydi, bu esa kontsepsiyaning evolyutsiyasini yagona metodologiya asosida tahlil qilishni qiyinlashtiradi.

Death 2014-yilda yashil iqtisodiyot rivojlanishini asosan siyosiy diskurslarning almashinuvi orqali izohlaydi. Uning yondashuvi kontsepsiyaning mafkuraviy transformatsiyasini ochib berishda muhim ahamiyatga



ega bo'lsa-da, tarixiy bosqichlarning boshlanish mezonlarini aniqlash imkonini bermaydi [3].

Georgeson, Maslin va Poessinouw hammuallifligida 2017-yilda yashil iqtisodiyotni baholashda OECD, UNEP va Jahon banki yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilgan. Ularning tadqiqoti indikatorlar va baholash usullarining farqlarini ko'rsatadi, biroq konsepsiyaning tarixiy rivojlanish bosqichlarini izohlashni maqsad qilmagan [4]

O'zbekiston olimlari Vaxabov va Xajibakiyev tomonidan taklif etilgan davriylashtirish modeli milliy ilmiy adabiyotlarda muhim qadam hisoblanadi. Biroq unda bosqichlar asosan vaqt oralig'i yoki tarixiy voqealar ketma-ketligi asosida guruhlangan bo'lib, har bir davrning boshlanishi xalqaro miqyosda tan olingan normativ hujjatlar bilan izchil [5].

Mazkur tadqiqotda taklif etilgan davriylashtirish modeli yuqoridagi yondashuvlardan bir necha jihati bilan farq qiladi. Birinchidan, har bir bosqich chegarasi aniq tarixiy voqea yoki xalqaro hujjat bilan asoslandi. Jumladan, birinchi bosqich Rachel Carsonning Silent Spring asari, ikkinchi bosqich Brundtland komissiyasining Our Common Future hisoboti, uchinchi bosqich UNEP Green Economy Initiative va to'rtinchi bosqich BMTning 2030-yil Barqaror rivojlanish kun tartibi hamda Parij bitimi bilan bog'landi. Bu esa davriylashtirishning subyektivligini kamaytiradi va uning ilmiy takrorlanish imkoniyatini oshiradi.

Ikkinchidan, tadqiqotda yashil iqtisodiyotning evolyutsiyasi faqat ekologik yoki iqtisodiy nuqtai nazardan emas, balki institutsional yetuklik darajasi bo'yicha baholandi. Natijada konsepsiyaning oddiy ekologik tashabbusdan xalqaro iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishiga aylanish jarayoni izchil yoritildi.

Uchinchidan, mavjud adabiyotlarda yashil iqtisodiyot ko'pincha ekologik barqarorlik yoki iqtisodiy o'sish bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Mazkur tadqiqot esa yashil iqtisodiyotni mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik bilan bog'lashga urinadi. Muallif tomonidan taklif etilgan besh komponentli yondashuv (ekologiya, iqtisodiyot, ijtimoiy tenglik, innovatsiyalar va uzoq muddatli barqarorlik) yashil iqtisodiyotning faqat ekologik emas, balki iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi tizimli omil


ekanligini ko'rsatadi. Bu yondashuv, ayniqsa, resurslarga boy va iqtisodiy tuzilmasi transformatsiya bosqichida bo'lgan mintaqalar uchun dolzarb hisoblanadi.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Taklif etilgan davriylashtirish modeli konseptual xarakterga ega bo'lib, uning amaliy qo'llanilishi kelgusida alohida empirik tadqiqotlar orqali sinovdan o'tkazilishi zarur. Bundan tashqari, muallif ta'rifining universalligini turli mamlakatlar va mintaqalar misolida tekshirish keyingi ilmiy izlanishlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lishi mumkin.

Yashil iqtisodiyot bugun siyosat olamida ko'p gapiriladigan mavzu. Lekin uning ildizi uzoqqa boradi. Termin birinchi marta 1989 yilda paydo bo'ldi. Uni Devid Pirs, Anil Markandiya va Edvard Barbye taklif qilishdi. Ular «Blueprint for a Green Economy» nomli hisobot yozishdi [2]. O'shanda tushuncha hali to'liq shakllanmagan edi. Keyingi yillarda vaziyat o'zgardi. 2011 yilga kelib BMT Atrof-muhit dasturi o'z ta'rifini berdi. Ularning fikricha bu - odamlar farovonligini oshiradigan, ijtimoiy tenglikni mustahkamlaydigan, tabiatga kam zarar keltiradigan iqtisodiyot [1]. Shu ta'rif hozir eng ko'p qo'llaniladigan variant hisoblanadi.

Tushunchaning tarixini o'rganish oson emas, chunki u bir yo'nalishda emas, turli tomonlardan rivojlangan. Ba'zi tadqiqotchilar buni davrlarga bo'lib o'rganishga harakat qilishgan. Death o'z ishida to'rtta diskursni ajratdi - yashil qayta tiklanish, yashil o'sish, yashil transformatsiya va yashil inqilob. U buni Global Janub davlatlari misolida ko'rsatdi [3]. Georgeson, Maslin va Poessinouw esa boshqacha yo'l tanladi. Ular institutsiyalar - OECD, UNEP, Jahon banki - o'lchash usullarini solishtirdi [4]. Milliy adabiyotda ham bir model mavjud. Vaxabov va Xajibakiyev to'rt bosqichli davriylashtirish taklif qilishdi. Lekin ularning mezoni sifatida voqealarning mazmuni emas shunchaki yillar kesimida guruhlarga ajratishgan xolos [5].

Bu uch model qimmatli, shubhasiz. Lekin ularda umumiy bir kamchilik bor. Hech biri bosqich chegarasini aniq xalqaro hujjatga bog'lamaydi. Sana tanlash ko'pincha erkin, asoslanmagan qoladi. Bundan tashqari mintaqa darajasi butunlay chetda qoladi - barcha model global yoki eng yaxshi holatda milliy miqyosda gapiradi.




1.1-rasm. “Yashil iqtisodiyot” ning rivojlanish bosqichlari



Yuqorida ko'rilgan modellarning bo'shlig'ini to'ldirish uchun 1.1-rasmda ko'rsatilgandek “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining evolutsiyasi to'rt bosqichli yangi model taklif etiladi. Har bir bosqich chegarasi tasodifiy tanlanmagan. Ularning barchasi tekshiriladigan va muhim xalqaro voqealarga bog'langan.

Birinci bosqich - ong uyg'onishi (1962-1986). Bu davrda hali yagona nazariya yo'q edi. Odamlar faqat

muammoni his qila boshlashdi. Sanoat rivojlanishi bilan tabiat o'rtasidagi ziddiyat kundalik hayotda ko'zga tashlana boshladi. 1962-1986- yillar davomida insonlarning iqtisodiy faoliyatini ekologiya bilan bog'liqligini, inson tabiatdan ayro emasligini anglab yetish davri bo'lgan.



1.2-rasm. Yashil iqtisodiyot kontsepsiyasi rivojlanishining birinchi - Iqtisodiy faoliyat va ekologiyaning o'zaro bog'liqligini anglash bosqichi yillar kesimida


Ba'zi adabiyotlar olimlar yashil iqtisodiyot konsepsiyasini rivojlanishining ilk bosqichlarini 1950-yillardan boshlanishi haqida yozishgan. Ammo tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko'rsatdiki, bu davrda ekologiya yoki yashil iqtisodiyot sohasida alohida etiborga molik ishlar bo'lmaganligi va shunchaki rasmiy sana sifatida qabul qilingan. Atrof-muhitni anglab yetish, tabiatni asrash, ekologiyaga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni cheklashga oid tashabbuslar va tadqiqotlar o'tgan asrning ikkinchi choragidan boshlab o'z cho'qqisiga chiqa boshlagan.

Biz 1962-yilni rasmiy birinchi bosqichning boshlanishi sifatida tanlashimizning asosiy sababi esa Rachel Carsonning “Silent Spring” asarini nashr qilishi, iqtisodiyot va tabiat o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy dalillar bilan isbotlab berishi aynan shu sohadagi burilish nuqtasi bo'lgan.

Ikkinchi bosqich - nazariy shakllanish (1987-2007). Nega ikkinchi bosqich 1987-yildan boshlanadi? Chunki aynan shu vaqtgacha olimlar o'z tadqiqotlarida, hisobotlarida va asarlarida “tabiatni himoya qilishimiz kerak, resurslar tugab ketyapti, iqtisodiy faoliyatni

cheklashimiz kerak” degan fikrlarni ilgari surishardi. Aynan shu davrdan boshlab esa “Qanday qilib tabiatga zarar yetkazmagan holda iqtisodiy rivojlanishga erisha olamiz?” degan savolga javob izlaydigan tadqiqotlar amalga oshirildi hamda barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot g'oyaviy jihatdan shakllana boshladi.

Aynan 1987-yilda BMTning Atrof-muhit va Taraqqiyot bo'yicha Jahon Komissiyasi raisi Gro Harlem Brundtland tomonidan elon qilgan “Bizning umumiy kelajagimiz” (Ing. Our common future) hisobotida birinchi marta iqtisodiy rivojlanish va ekologiyani himoya qilish bir biriga qarama-qarshi emasligi e'tirof etildi. Undagi “barqaror rivojlanish – bu kelajak avlod ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga putur yetkazmagan holda bugungi avlod ehtiyojlarini ta'minlash” degan jumla yuqoridagi fikrga isbot bo'la oladi. Bu davr yigirma yilga cho'zildi. Oraliqda 1992 yilgi Rio sammiti, 1997 yilgi Kioto protokoli kabi muhim voqealar bo'lib o'tdi. Tushuncha shu davrda ilmiy va siyosiy nutqning doimiy qismiga aylandi, lekin hali institutsional shaklga kirmagan edi.



1.3-rasm. Yashil iqtisodiyot kontsepsiyasi rivojlanishining ikkinchi bosqichi yillar kesimida

Uchinchi bosqich - institutsionallashtirish (2008-2014). Bu davrda yashil iqtisodiyot haqidagi ilmiy kontsepsiya va nazariyalar shakllanib bo'ldi va xalqaro tashkilotlar siyosati, davlat dasturlari, rivojlanish strategiyalari ishlab chiqila boshlandi. Bunga asosiy turtki bergan omil 2008-yildagi jahon iqtisodiy inqirozi edi. Shu davrdan boshlab davlatlar va xalqaro tashkilotlar barqaror rivojlanish kontsepsiyasiga shunchaki g'oya emas, balki davlatni iqtisodiy rivojlanishi uchun yangi iqtisodiy tizim bo'lishi mumkinligini tushunishdi.

2008-yil jahon iqtisodiy inqirozdan keyin BMT ning atrof muhit bo'yicha dasturi – UNEP (Ing. United national environmental program) tomonidan “Yashil iqtisodiyot tashabbusi” (Green Economy Initiative - GEI) [23] dasturni yo'lga qo'ydi. Ushbu loyiha taklifi Buyuk

Briyaniyaning London shahrida taqdim etilgan bo'lib, u Germaniya, Norvegiya va Yevropa komissiyasi tomonidan moliyalashtiriladi. Ushbu loyiha doirasidagi tadqiqotlarda ekotizimning yomonlashishi, ozon qatlamining yemirilishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, atrof muhitning ifloslanishi kabi muammolarning iqtisodiy oqibatlari va qashshoqlikning ortishiga olib kelishini yoritishgan. Bu loyihaning asosiy maqsadi jahon iqtisodiy inqirozidan keyin iqtisodiy tiklanishni, rivojlanishni ta'minlaydigan, yangi ish o'rinlarini yaratadigan hamda ekologik zararlarni kamaytirishga qaratilgan rivojlanish strategiyasi – yashil iqtisodiyotni ilgari surgan. Aynan shu voqealar sababli yashil iqtisodiyot o'zing yangi rivojlanish bosqichiga chiqdi.




1.4-rasm. Yashil iqtisodiyot kontsepsiyasi rivojlanishining uchinchi bosqichi yillar kesimida



To'rtinchi bosqich - amaliy transformatsiya (2015-hozirgacha). Ushbu bosqichda davlatlar tomonidan yashil iqtisodiyot konsepsiyalari va institutsionallashtirish natijalari amaliyotga tatbiq etila boshladi. Bu bosqichda davlatlar va tashkilotlar past uglerodli ishlab chiqarishni, ekologik zararlarni real harakatlar orqali kamaytirishni va yashil ishlab chiqarishni amaliyotga qo'llay boshlashdi. Bu amaliy natijalarning boshlang'ich nuqtasi sifatida 2015-yilda BMT tomonidan "Dunyomizni o'zgartirish: 2030-yil Barqaror rivojlanish kun tartibi" (Ing. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development) nomli yana bir muhim hujjat ommaga taqdim etiladi [24]. Bu hujjatning asosiy qismi "Barqaror rivojlanish maqsadlari" bo'lib unda 2030-

yilgacha qashshoqlikni kamaytirish, inklyuziv iqtisodiy rivojlanish va tabiatni muhofaza qilish niyatida 17 ta global maqsad va 169 ta vazifalar qabul qilinadi.

2015-yilda Fransiyada BMT Iqlim o'zgarishi bo'yicha Asosiy Konvensiyasi (Ing. UNFCCC) doirasida 196 davlat ishtirokida global iqlim isishini 1.5-2°C darajadan yuqori o'sishini cheklash majburiyatini yuklaydigan "Parij iqlim bitimi" qabul qilindi [25]. Bu hujjat global ravishda dunyodagi ushbu bitimga a'zo davlatlarga yashil energiya va past karbonli iqtisodiyotga o'tishni siyosiy majburiyat qilib qo'ydi. Bu bosqichda yashil iqtisodiyot ilmiy nazariyadan siyosiy amaliy harakatga aylanib boshladi.



1.5-rasm. Yashil iqtisodiyot kontsepsiyasi rivojlanishining to'rtinchi bosqichi yillar kesimida

Turli davrlarda BMT ning bosh kotiblari, AQSH Prezidentlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan yashil iqtisodiyotga har-xil rakurslarda turlicha ta'riflar berilgan. Ular yashil iqtisodiyotga asosan, ekologiyani asragan holda barqaror rivojlanish yoki inkulziv iqtisodiy o'sish yo'li sifatida qarashgan. Har bir tashkilot o'z konteksiga mos ta'rif berganligi sababli yashil iqtisodiyot terminiga universal ta'rif shakllanmagan, ijtimoiy o'lchovlar va amaliy mexanizmlar yetarli emasligi uchun ta'riflar g'oya darajasida qolgan. Qolaversa yashil iqtisodiyot turli adabiyotlarda turlicha talqin qilingani sababli u aynan siyosiy, ekologik yoki iqtisodiy terminligiga aniqlik kiritish qiyin va bahsli konsepsiya sifatida qaraladi. Ko'plab manbalarda yashil iqtisodiyotning ta'rifini o'rganish jarayonida ularni turli guruhga ajratish orqali umumiy va farqli jihatlarini tahlil qilishga harakat qilamiz. Bizning nuqtayi nazarimizda, hozirgacha yashil iqtisodiyot atamasini izohlash uchun berilgan ta'riflarda to'rtta yondashuv mavjud, xususan:

1. OECD. "Yashil o'sish" ni resurslardan tejamkor foydalangan holda past karbonli uzoq muddatli iqtisodiy o'sish jejasi sifatida ko'radi.

2. UNEP. Yashil iqtisodiyotni ijtimoiy tenglik va farovonlikni oshiruvchi hamda ekologik xavflarni kamaytiruvchi iqtisodiyot sifatida ko'radi.

3. World Bank. Inkulziv yashil o'sishni iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni uygunlashtirilgan yo'li sifatida ko'radi.

4. Akademiklar. Georgeson, Loiseau, Merino-Saum va boshqalar yashil iqtisodiyotni "Soyabon konsepsiyasi" (yashil iqtisodiyot - bu katta soyabon, uning ostida turli yo'nalishlar bor. Masalan: ekologik iqtisodiyot, bioiqtisodiyot, sanoat ekologiyasi, aylanish iqtisodiyoti - barchasi yashil iqtisodiyot soyaboni ostida jamlanadi.) va "bahsli konsepsiya" (Bu atama yashil iqtisodiyotning aniq va yakdil ta'rif yo'qligini bildiradi. Turli tashkilotlar va olimlar uni turlicha talqin qilishadi: kimdir uni "ekologik xavflarni kamaytiruvchi iqtisodiyot" desa, boshqalar "yangi o'sish modeli" yoki "siyosiy shior" sifatida ko'radi.) sifatida baholashadi.

1. Biz esa o'rganishlarimiz natijasida, yashil iqtisodiyot asosan quyidagi: Ekologiya: Toza energiyadan foydalanish va resurslardan tejamkor foydalanish orqali ekologik xavflarni kamaytirish.



2. Iqtisodiyot: Importga qaramlikni kamaytirish, energiya mustaqilligini ta'minlash va yashil energiyaga sarmoya kiritish orqali samaradorlikni oshirish.

3. Ijtimoiy tenglik: Har bir mamlakat yashil energiyadan foydalana olishi sababli resurslarning notekis taqsimlanganligi tufayli yuzaga kelgan nomutanosiblikni salbiy oqibatlarini yashil energiya orqali kamaytirib, adolatni ta'minlash.

4. Innovatsiya: Yashil texnologiyalarni joriy etish, yangi imkoniyatlar yaratish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish.

5. Uzoq muddatli barqarorlik: Ekologik xavflarni kamaytirish va kelajak avlodlar uchun

resurslarni saqlash hamda uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish.

kabi besh yo'nalishni qamrab oladi degan xulosaga keldik. Bizning fikrimizcha shu besh yo'nalish asosida yashil iqtisodiyot - bu resurslardan samarali foydalanib, past karbonli rivojlanishni ta'minlaydigan, barchaga toza energiya manbalari orqali energiyadan foydalanish imkonini beruvchi, ijtimoiy adolatni mustahkamlovchi va iqtisodiy mexanizmlar yordamida ekologik xavflarni kamaytirib, uzoq muddatli mintaqaviy barqaror rivojlanishning muhim omilidir.

1.1-jadval

Yashil iqtisodiyot atamasini aniqlashga yondashuvlar

Yil / Manba	Muallif / Tashkilot	Ta'rif / Fikr
1989	London Environmental Economics Centre (Pearce, Markandya, Barbier) – Blueprint for a Green Economy	“Yashil iqtisodiyot – ekologik zararlarni iqtisodiy hisoblash va hukumat siyosatiga integratsiya qilish orqali barqaror rivojlanishga erishish.”
2008	UNEP – Green Economy Initiative (GEI)	“Yashil iqtisodiyot – inson farovonligini oshirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash bilan birga ekologik xavf va resurs tanqisligini kamaytiruvchi tizim.”
2011	UNEP – Green Economy Report	“Yashil iqtisodiyot – ekologik xavflar va resurs yetishmovchiligini kamaytirish orqali inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni yaxshilashga olib keladigan iqtisodiyot.”
2011	OECD – Towards Green Growth	“Yashil o'sish – iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bilan birga, tabiiy resurslar va ekotizim xizmatlarini saqlash va barqaror foydalanishni ta'minlashdir. Investitsiya va innovatsiyalarni tezlashtiradi.”
2012	World Bank – Inclusive Green Growth Report	“Yashil iqtisodiyot – farovonlik va ijtimoiy tenglikni oshiruvchi, ekologik xavflarni kamaytiruvchi iqtisodiyot.”
2015	BMT – Agenda for Sustainable Development (SDGs)	Yashil iqtisodiyot global maqsad sifatida mustahkamlandi, 17 ta SDG bilan uyg'unlashtirildi.
2017	Georgeson, Maslin, Poessinou – The Global Green Economy (Geography and Environment)	“Yashil iqtisodiyot – ekologiyaga kam ta'sir qiladigan, ijtimoiy inkluziv jamiyat qurishni maqsad qilgan siyosiy-ilmiiy qolib yoki amaliy harakatlar jamlanmasi.”
2016–2020	Loiseau va Merino-Saum (Journal of Cleaner Production)	Yashil iqtisodiyot “umbrella concept” (soyabon konsepsiya) va “contested concept” (bahsli konsepsiya) sifatida baholangan.
2020	Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X va boshqa olimlar	yashil iqtisodiyot - barqaror rivojlanish o'rnini bosa olmaydi va barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi muhim me'zon hisoblanadi.
2024	Shoxistaxon Axunova va Gulbaxor Sultonova	yashil iqtisodiyotga o'tishning muhim vazifalari hamda uning samaradorligini oshirishga, dekarbonizatsiyaga erishishga va tabiiy resurslardan yanada oqilona foydalanish
2024	Egamberdiyev Humoyun	Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi – iqtisodiy o'sishni saqlab qolgan holda tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga zarar yetkazmaslikdir
2025	Tirkashev.F.M. va Nazarova.M.Sh	Yashil iqtisodiyot – bu atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish, tabiiy resurslardan oqilona va tejamonkor foydalanish, karbon chiqindilarini kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish hamda fuqarolarning ekologik madaniyatini oshirishga qaratilgan iqtisodiy yondashuvdir.
2026	Muallif ta'rif	Yashil iqtisodiyot - bu resurslardan samarali foydalanib, past karbonli rivojlanishni ta'minlaydigan, barchaga toza energiya manbalari orqali energiyadan foydalanish imkonini beruvchi, ijtimoiy adolatni mustahkamlovchi va iqtisodiy mexanizmlar yordamida ekologik xavflarni kamaytirib, uzoq muddatli mintaqaviy barqaror rivojlanishning muhim omili.

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

Mazkur tadqiqot natijasida yashil iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanish evolyutsiyasi ilmiy hamda institutsional jihatdan tizimli tahlil qilindi. Mavjud ilmiy yondashuvlar o'rganilishi shuni ko'rsatdiki, konsepsiyaning rivojlanish bosqichlarini yoritishga qaratilgan tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, ularning aksariyatida davrlar chegaralari aniq xalqaro hujjatlar yoki tarixiy voqealar bilan asoslanmagan. Shu bilan birga, mavjud davriylashtirishlarda yashil iqtisodiyotning mintaqaviy rivojlanish va iqtisodiy xavfsizlik bilan o'zaro bog'liqligi yetarli darajada ochib berilmagan.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida tadqiqotda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi evolyutsiyasining to'rt bosqichli davriylashtirish modeli taklif qilindi. Modelning o'ziga xos jihati shundaki, har bir bosqich xalqaro miqyosda tan olingan tarixiy voqea yoki rasmiy hujjat asosida belgilandi. Xususan, birinchi bosqich ekologik ongning shakllanishi, ikkinchi bosqich barqaror rivojlanish nazariyasining shakllanishi, uchinchi bosqich yashil iqtisodiyotning xalqaro institutlar siyosatiga integratsiyalashuvi, to'rtinchi bosqich esa uning amaliy transformatsiya bosqichi sifatida asoslandi. Mazkur yondashuv yashil iqtisodiyot evolyutsiyasini izchil va ilmiy asoslangan tarzda tavsiflash imkonini beradi.

Shuningdek, yashil iqtisodiyotga berilgan ilmiy ta'riflar qiyosiy tahlil qilinib, ularni ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional yondashuvlar nuqtai nazaridan umumlashtirish asosida muallifning konseptual ta'rifi ishlab chiqildi. Taklif etilgan ta'rif yashil iqtisodiyotni resurslardan samarali foydalanish, past karbonli rivojlanish, ijtimoiy adolat, innovatsiyalar va uzoq muddatli mintaqaviy barqaror rivojlanishni o'zaro bog'lovchi yaxlit iqtisodiy tizim sifatida talqin qiladi.

Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyotning nazariy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi hamda uning evolyutsiyasini tizimli baholash uchun metodologik asos yaratadi. Taklif etilgan davriylashtirish modeli va muallif ta'rifi keyingi tadqiqotlarda mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni baholash metodikasini ishlab chiqish, shuningdek, O'zbekiston hududlarida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilishda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

1. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasining rivojlanish bosqichlarini o'rganishda davriylashtirish mezonini sifatida faqat vaqt oralig'i yoki tarixiy voqealardan emas, balki xalqaro miqyosda tan olingan rasmiy hujjatlar va institutsional o'zgarishlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu konsepsiya evolyutsiyasini ilmiy jihatdan asosli va takror tekshirish mumkin bo'lgan model asosida baholash imkonini beradi.

2. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlarida yashil iqtisodiyot bo'yicha olib boriladigan ilmiy izlanishlarda ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy yondashuvlarni integratsiyalashgan holda tahlil qilish, shuningdek, konsepsiyani mintaqaviy iqtisodiy

xavfsizlik bilan bog'liq holda o'rganish maqsadga muvofiq.

3. Davlatning yashil iqtisodiyotga oid strategik hujjatlar va hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda ushbu tadqiqotda taklif etilgan to'rt bosqichli davriylashtirish modelidan konseptual asos sifatida foydalanish tavsiya etiladi. Bu siyosiy qarorlarning xalqaro rivojlanish tendensiyalari bilan uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi.

4. Yashil iqtisodiyotning mazmunini baholashda faqat ekologik ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, resurslardan foydalanish samaradorligi, energiya xavfsizligi, ijtimoiy tenglik, innovatsion rivojlanish va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni qamrab oluvchi kompleks yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq.

5. Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu maqolada ishlab chiqilgan konseptual yondashuv asosida mintaqaviy yashil iqtisodiyot va iqtisodiy xavfsizlikni kompleks baholovchi indikatorlar tizimi hamda integral indeksni ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bunday metodika hududlarning yashil transformatsiya darajasini o'zaro taqqoslash va rivojlanish ustuvor yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] United Nations Environment Programme. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication [Elektron resurs]. – Nairobi: UNEP, 2011. – 631 p. <https://wedocs.unep.org/handle/20.500.11822/32245>
- [2] Pearce D., Markandya A., Barbier E. Blueprint for a Green Economy [Elektron resurs]. – London: Earthscan, 1989. – 192 p. https://archive.org/details/isbn_1853830666
- [3] Death C. Four discourses of the green economy in the global South // Third World Quarterly. – 2015. – Vol. 36, No. 12. – P. 2207-2224. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/01436597.2015.1068110>
- [4] Georgeson L., Maslin M., Poessinouw M. The global green economy: a review of concepts, definitions, measurement methodologies and their interactions // Geo: Geography and Environment. – 2017. – Vol. 4, No. 1. <https://rgs-ibg.onlinelibrary.wiley.com/doi/full/10.1002/geo2.36>
- [5] Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. va boshqalar. Yashil iqtisodiyot: darslik. – Toshkent: Universitet, 2020. – 262 b.
- [6] OECD. Towards Green Growth. – Paris: OECD Publishing, 2011. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2011/05/towards-green-growth_g1g1342a/9789264111318-en.pdf
- [7] Loiseau E., Saikku L., Antikainen R. va boshqalar. Unpacking the Green Economy concept: A quantitative analysis of 140 definitions // Journal of Cleaner Production. – 2019. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0959652619332093>
- [8] 'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019-2030 yillar davrida



O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>

[9] O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi ma'lumotlari // Gazeta.uz. – 2026-yil, 5-yanvar. <https://www.gazeta.uz/oz/2026/01/05/energy/>

[10] O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi ma'lumotlari // Gazeta.uz. – 2026-yil, 3-iyul. <https://www.gazeta.uz/oz/2026/07/03/green-energy/>.

[11] Green economy studies amongst the global climate change challenge between 2016 and 2022: a bibliometric review // *Frontiers in Ecology and Evolution*. – 2023. <https://www.frontiersin.org/journals/ecology-and-evolution/articles/10.3389/fevo.2023.1168437/full>.

[12] European Environment Agency. Green economy // *Europe's environment — the fourth assessment*.

<https://www.eea.europa.eu/publications/europes-environment-aoa/chapter3.xhtml>

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Murodillayev Sardorbek Bahodir o'g'li
Alexander Dubcek University of Trenčín tadqiqotchisi va
Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi /
Муродиллаев Сардорбек Баходир угли —
исследователь Университета Александра Дубчека в
Тренчине и независимый соискатель Каршинского
государственного технического университета /
Murodillaev Sardorbek— Researcher at Alexander
Dubček University of Trenčín and Independent
Researcher at Karshi State Technical University.

E-mail: sardorbek99m@gmail.com



NAMANGAN VILOYATIDA INVESTITSIYA MEKANIZMLARI HARAKATLANISHINING IJTIMOY- IQTISODIY OMILLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI

Kenjayev Ikrom Ergashboyevich

СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ МЕХАНИЗМОВ В НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Кенжаев Икром Эргашбоевич

SOCIO-ECONOMIC FACTORS AND REGIONAL FEATURES OF INVESTMENT MECHANISMS IN THE NAMANGAN REGION

Ikrom Ergashboyevich Kenjayev

Abstract. This article examines the socio-economic factors and regional characteristics affecting the functioning of investment mechanisms in the Namangan region. The study analyses the region's demographic potential, gross regional product growth, investment infrastructure development, and structural changes in the sources of fixed capital investment financing. The dynamics of foreign direct investment by type of economic activity for 2020–2025 are also assessed.

Keywords: investment mechanism, regional development, demographic potential, investment infrastructure, gross regional product.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Namangan viloyatida investitsiya mexanizmlarining harakatlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar va hududiy xususiyatlar tadqiq etilgan. Viloyatning demografik salohiyati, yalpi hududiy mahsulot o'sishi, investitsiya infratuzilmasining rivojlanishi hamda asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalaridagi tarkibiy o'zgarishlar tahlil qilingan. Shuningdek, 2020–2025-yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar dinamikasi baholangan.

Kalit so'zlar: investitsiya mexanizmi, hududiy rivojlanish, demografik salohiyat, investitsiya infratuzilmasi, yalpi hududiy mahsulot.

Аннотация. В статье исследованы социально-экономические факторы и региональные особенности, влияющие на функционирование инвестиционных механизмов в Наманганской области. Проанализированы демографический потенциал региона, динамика валового регионального продукта, развитие инвестиционной инфраструктуры и структурные изменения в источниках финансирования инвестиций в основной капитал. Также дана оценка динамике прямых иностранных инвестиций по видам экономической деятельности за 2020–2025 годы.

Ключевые слова: инвестиционный механизм, региональное развитие, демографический потенциал, инвестиционная инфраструктура, валовой региональный продукт.

KIRISH

Hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishi investitsiya resurslarini shakllantirish, jalb qilish va iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida samarali taqsimlash mexanizmlarining qay darajada ishlashiga bog'liq. Investitsiya mexanizmi hududning ishlab chiqarish, moliyaviy, infratuzilmaviy va mehnat salohiyatini o'zaro bog'lovchi iqtisodiy vositalar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Uning samaradorligi hududdagi demografik jarayonlar, bozor sig'imi, mehnat resurslari,

yalpi hududiy mahsulot hajmi, ishlab chiqarish tarkibi va investitsiya infratuzilmasining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

J.M. Keynes investitsiyalarni yalpi talab, ishlab chiqarish hajmi va bandlikni oshiruvchi muhim makroiqtisodiy omil sifatida baholagan [1]. J. Schumpeter investitsiyalarni innovatsiyalar, yangi texnologiyalar va ishlab chiqarishning tarkibiy yangilanishini ta'minlovchi asosiy manbalardan biri sifatida ko'rsatgan [2]. Hududiy iqtisodiyot



nazariyalarida esa investitsiyalar iqtisodiy o'sishning hududlar o'rtasida notekis taqsimlanishi va o'sish markazlarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omil sifatida talqin qilinadi [3].

Investitsiya resurslarining hududga jalb etilishi faqat moliyaviy imtiyozlarga emas, balki rivojlangan transport-logistika tizimi, energiya ta'minoti, bank-moliya xizmatlari, sanoat zonalar, raqamli infratuzilma, malakali mehnat resurslari va samarali davlat boshqaruvi ham bog'liq. M. Porter hududlarning raqobatbardoshligi va investitsion jozibadorligini ishlab chiqarish omillari, talab sharoitlari, o'zaro bog'liq tarmoqlar va raqobat muhitining rivojlanganligi bilan izohlagan [4].

Namangan viloyati O'zbekistonning aholisi zich joylashgan va demografik salohiyati yuqori hududlaridan biridir. Aholi sonining barqaror ko'payishi bir tomondan mehnat resurslari va ichki iste'mol bozori kengayishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan yangi ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarish quvvatlarini ko'paytirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga bo'lgan talabni kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiya va hududiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy adabiyotlarda turli nazariy yondashuvlar asosida o'rganilgan. J.M. Keynes investitsiyalarni iqtisodiy o'sish va bandlikning muhim omili sifatida baholagan bo'lsa [1], J. Schumpeter ularning innovatsion yangilanish va tadbirkorlik faolligidagi rolini asoslab bergan [2].

F. Perroux va G. Myrdal tadqiqotlarida investitsiya oqimlarining ayrim hududlar va tarmoqlarda jamlanishi iqtisodiy o'sish markazlarini shakllantirishi, biroq hududlar o'rtasidagi tafovutlarni ham kuchaytirishi mumkinligi ko'rsatilgan [3; 5]. M. Porter hududlarning investitsion jozibadorligi infratuzilma, mehnat resurslari, bozor talabi va raqobat muhiti bilan bog'liqligini ta'kidlagan [4].

D. North investitsiya faoliyati samaradorligi mulk huquqlarining himoyasi, institutsional barqarorlik va davlat boshqaruvi sifatiga bog'liqligini asoslagan [6].

Xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida esa transport, energetika, moliya, raqamli xizmatlar va inson kapitali infratuzilmasi hududlarga investitsiya jalb etishning muhim omillari sifatida qayd etilgan [7; 8].

Mavjud ilmiy ishlarda hududiy investitsiya jozibadorligi va xorijiy investitsiyalar masalalari keng o'rganilgan. Biroq demografik o'sish, yalpi hududiy mahsulot dinamikasi, investitsiyalarni moliyalashtirish tarkibi va xorijiy investitsiyalarning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishini yagona tizim doirasida baholash masalasi yetarli darajada yoritilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning axborot bazasini Namangan viloyatining 2020–2025-yillardagi demografik, makroiqtisodiy va investitsion ko'rsatkichlari, O'zbekiston hududlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hamda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar haqidagi ma'lumotlar tashkil etdi.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

statistik kuzatish va dinamik qatorlar tahlili;
qiyosiy va tarkibiy tahlil;
hududlararo taqqoslash;
guruhlash va tizimlashtirish;
trend tahlili;
ilmiy abstraksiyalash va umumlashtirish.

Investitsiya mexanizmining transformatsiyasi korxona va aholi mablag'lari ulushining kamayishi hamda jalb qilingan, xorijiy va institutsional kapital manbalarining roli ortishi orqali baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Demografik jarayonlar investitsiya mexanizmlariga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Aholi sonining o'sishi mehnat resurslari taklifini, ichki iste'mol hajmini va uy-joy, transport, ta'lim, tibbiyot hamda boshqa xizmatlarga talabni oshiradi. Shu bilan birga, demografik bosim yangi ish o'rinlari va ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini ko'paytirishni talab qiladi (1-jadval).

1-jadval.

Namangan viloyatida demografik ko'rsatkichlar dinamikasi, ming kishida¹

Yil	Doimiy aholi soni,	Tabiiy o'sish, %	Aholi sonining o'sishi, %
2020	2867,4	61,2	56,6
2021	2931,1	66,5	63,6
2022	2997,6	68,9	66,5
2023	3066,1	70,7	68,6
2024	3131,7	67,6	65,6
2025	3190,8	61,3	59,1

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Namangan viloyatining doimiy aholisi 2020-yildagi 2 867,4 ming kishidan 2025-yilda 3 190,8 ming kishiga yetgan. Natijada aholi soni 323,4 ming kishiga yoki 11,3 foizga oshgan.

Mazkur o'sish viloyatda mehnat resurslari bazasi va ichki iste'mol bozori kengayib borayotganini ko'rsatadi. O'rtacha hisobda yiliga qariyb 64,7 ming kishilik aholi o'sishi kuzatilgan. Bu sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, savdo, transport va xizmatlar sohalarida yangi ish o'rinlarini yaratishni talab qiladi.

¹ Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.




Demografik salohiyat investitsiya faolligiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, aholining ko'payishi mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabni oshirib, investorlar uchun bozor imkoniyatlarini kengaytiradi. Ikkinchidan, bandlikni ta'minlash va infratuzilmaga bo'lgan yuklamani kamaytirish uchun katta hajmdagi yangi investitsiyalar zarur bo'ladi.

Shu sababli Namangan viloyatida investitsiya siyosatini sanoat ishlab chiqarishi, xizmatlar sohasi, uy-

joy qurilishi, transport, ta'lim va sog'liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirish bilan uyg'unlashtirish lozim.

Yalpi hududiy mahsulot hududda yaratilgan yakuniy tovar va xizmatlar qiymatini ifodalovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. YaHM hajmining o'sishi hududdagi ishlab chiqarish, xizmatlar, qurilish va investitsion faollikning kengayib borayotganini ko'rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Namangan viloyatida yalpi hududiy mahsulotning o'sish dinamikasi, 2020-2025 yillar

Namangan viloyatida yalpi hududiy mahsulot hajmi 2020-yildagi 34 169,1 mlrd so'mdan 2025-yilda 85 419,0 mlrd so'mga yetgan. Natijada viloyat iqtisodiyoti hajmi qariyb 2,5 baravarga yoki 149,9 foizga oshgan.

YaHMning o'sishi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, xizmatlar sohasi, qurilish ishlari va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining ko'payishi bilan bog'liq. Xizmatlar sektorining tez rivojlanishi va sanoat ishlab chiqarishining ortishi viloyat iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlar yuz berayotganidan dalolat beradi.

Mazkur tendensiya Namangan viloyatining an'anaviy agrar-industrial modeldan sanoat, xizmatlar va zamonaviy infratuzilma tarmoqlarining roli yuqori bo'lgan diversifikatsiyalashgan iqtisodiy modelga o'tayotganini ko'rsatadi.

Biroq nominal YaHMning o'sishi hududiy rivojlanish sifatini to'liq ifodalamaydi. Investitsiya mexanizmi samaradorligini baholashda aholi jon boshiga YaHM, real o'sish sur'atlari, mehnat unumdorligi, bandlik, eksport va ishlab chiqarishning texnologik tarkibi kabi ko'rsatkichlarni ham hisobga olish zarur.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya mexanizmlarining samarali harakatlanishi tegishli infratuzilma mavjudligiga bog'liq. Investitsiya infratuzilmasi investorlar, korxonalar, moliyaviy institutlar va davlat boshqaruvi organlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni ta'minlovchi tashkilotlar va xizmatlar tizimidan iborat.

Namangan viloyatidagi investitsiya infratuzilmasining asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

- tijorat banklari va mikromoliya tashkilotlari;
- sug'urta va lizing kompaniyalari;
- erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalar;
- transport va logistika markazlari;
- elektr energiyasi, gaz va suv ta'minoti infratuzilmasi;
- telekommunikatsiya va raqamli xizmatlar;
- investitsiya va eksportni qo'llab-quvvatlovchi institutlar;
- konsalting, marketing va loyiha xizmatlari;
- xalqaro moliya institutlari va xorijiy investorlar bilan hamkorlik tizimi.

Infratuzilmaning rivojlanishi investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish xarajatlarini kamaytiradi, investorlar uchun axborot olish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda moliyaviy resurslarning real sektorga yo'naltirilishini tezlashtiradi [7].

Hududiy investitsiya mexanizmi faoliyatini baholashda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari alohida ahamiyatga ega. Korxona va aholi mablag'larining jami investitsiyalardagi ulushi ichki moliyaviy resurslarning investitsiya jarayonidagi rolini ifodalaydi (2-jadval).

Asosiy kapitalga investitsiyalarda korxona va aholining o'z mablag'lari ulushi,%²

Mintaqalar	2005y.	2010y.	2015y.	2020y.	2025y.
O'zbekiston Respublikasi	57,5	52,5	56,2	40,8	21,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	41,0	57,3	27,8	39,1	20,6
Andijon viloyati	59,2	77,8	66,8	47,6	16,5
Buxoro viloyati	79,2	29,7	51,8	38,3	20,1
Jizzax viloyati	68,5	70,2	58,4	20,9	19,1
Qashqadaryo viloyati	76,8	63,7	61,0	21,6	21,1
Navoiy viloyati	62,7	41,9	60,8	25,8	15,3
Namangan viloyati	50,5	72,1	55,5	41,9	13,9
Samarqand viloyati	50,3	77,9	73,1	53,0	24,5
Surxondaryo viloyati	67,5	56,0	61,2	23,7	22,5
Sirdaryo viloyati	49,0	55,9	41,2	29,9	12,4
Toshkent viloyati	63,8	52,8	53,6	51,6	26,3
Farg'ona viloyati	62,4	61,6	63,8	43,3	20,9
Xorazm viloyati	52,4	63,4	67,5	41,2	23,6
Toshkent sh.	37,5	41,4	64,4	54,0	28,7

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston bo'yicha korxona va aholi mablag'larining asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 2005 yildagi 57,5 foizdan 2025 yilda 21,6 foizgacha pasaygan.

Namangan viloyatida mazkur ko'rsatkich 2010-yilda 72,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilga kelib 13,9 foizgacha kamaygan. Natijada ichki mablag'larning ulushi 58,2 foiz punktga qisqargan.

2025 yilda Namangan viloyati korxona va aholi mablag'larining ulushi bo'yicha respublika o'rtacha ko'rsatkichidan 7,7 foiz punkt past bo'lgan. Mazkur holat viloyatda investitsiya jarayonlarining korxona va aholi mablag'laridan xorijiy investitsiyalar, kreditlar va boshqa institutsional moliyalashtirish manbalariga o'tayotganini ko'rsatadi.

Investitsiyalarni moliyalashtirish tarkibidagi bunday transformatsiya quyidagi omillar bilan izohlanishi mumkin:

yirik sanoat va infratuzilma loyihalarining ko'payishi;

xorijiy investorlar faoliyatining kengayishi;

sanoat zonalar va investitsiya dasturlarining rivojlanishi;

xalqaro moliya institutlari resurslarining jalb qilinishi;

ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish uchun katta hajmdagi tashqi kapitalga talabning ortishi;

mahalliy korxonalar o'z mablag'larining yirik loyihalarni moliyalashtirish uchun yetarli emasligi.

Tashqi va institutsional mablag'larning ortishi viloyat iqtisodiyotiga yangi texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va eksport bozorlariga chiqish imkoniyatlarini olib kirishi mumkin. Biroq xorijiy kapitalga haddan tashqari bog'liqlik valyuta tavakkalchiligi, foydaning repatriatsiyasi va tashqi iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi bilan bog'liq xavflarni ham yuzaga keltiradi.

Shuning uchun investitsiya mexanizmi barqarorligini ta'minlashda ichki va tashqi moliyalashtirish manbalari o'rtasidagi maqbul mutanosiblikni shakllantirish zarur.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi hududiy investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi. TTXI tarkibining diversifikatsiyalashuvi hudud iqtisodiyotining tashqi ta'sirlarga chidamliligini oshirishga xizmat qiladi (3-jadval).

² Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Namangan viloyati iqtisodiyotiga jalb etilgan TTXI hajmi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (mln. AQSh dollari, 2020–2025 yy.)³

Iqtisodiy faoliyat turlari	2020	2021	2022	2023	2024	2025	Ulushi, % (2025)
Sanoat	55	68	82	95	110	125	34,3
Qishloq xo'jaligi	12	13	15	16	16	18	4,9
Qurilish	20	22	28	30	32	37	10,1
Savdo	18	20	19	18	17	18	4,9
Transport va logistika	25	30	38	45	55	65	17,8
Ko'chmas mulk operatsiyalari	15	17	20	23	25	29	7,9
Axborot va aloqa	5	6	8	9	10	12	3,3
Ta'lim, sog'liqni saqlash	3	3	4	4	4	5	1,4
Boshqa faoliyat turlari	25	27	32	36	47	56	15,4
Jami	178	206	246	276	316	365	100,0

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Namangan viloyatiga jalb etilgan TTXI hajmi 2020 yildagi 178 mln AQSh dollaridan 2025 yilda 365 mln AQSh dollariga yetgan. Natijada xorijiy investitsiyalar hajmi 187 mln dollarga yoki 105,1 foizga oshgan.

Mazkur davrda TTXIning o'rtacha yillik o'sish sur'ati qariyb 15,4 foizni tashkil etgan. Bu xorijiy investorlarning Namangan viloyati iqtisodiyotiga qiziqishi barqaror ravishda ortib borayotganini ko'rsatadi.

Sanoat, transport-logistika va qurilish tarmoqlarining jami TTXIdagi ulushi 62,2 foizni tashkil etgan. Bu viloyatda ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, sanoatlashuv va transport infratuzilmasini rivojlantirish investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlariga aylanganini ko'rsatadi.

Sanoat sohasiga yo'naltirilgan TTXI hajmi 2020 yildagi 55 mln dollardan 2025 yilda 125 mln dollarga yetib, 2,3 baravarga oshgan. Transport va logistika sohasidagi investitsiyalar esa 25 mln dollardan 65 mln dollarga ko'payib, 2,6 baravarlik o'sishni qayd etgan.

Axborot va aloqa sohasidagi investitsiyalar hajmi 5 mln dollardan 12 mln dollarga oshgan bo'lsa-da, 2025-yilda uning jami TTXIdagi ulushi atigi 3,3 foizni tashkil etgan. Ta'lim va sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi esa 1,4 foiz darajasida qolgan.

Qishloq xo'jaligi viloyat iqtisodiyotida muhim o'rin egallashiga qaramay, uning TTXIdagi ulushi 4,9 foizni tashkil etgan. Ushbu holat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, saqlash, logistika va eksport infratuzilmasiga xorijiy investitsiyalarni ko'proq jalb qilish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari Namangan viloyatida demografik va iqtisodiy salohiyatning o'sishi investitsiya mexanizmlarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratayotganini ko'rsatadi. Aholi sonining ko'payishi mehnat resurslari va ichki bozor hajmini kengaytiradi. Biroq bu jarayon investitsiya siyosatining bandlik, inson

kapitali va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bilan muvofiqlashtirilishini talab qiladi.

Viloyat YaHMinig qariyb 2,5 baravarga o'sishi hududda iqtisodiy faollikning kengayganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sishning barqarorligi uning qanday moliyalashtirilayotgani, investitsiyalarning qaysi tarmoqlarga yo'naltirilayotgani va ular natijasida qanday qo'shilgan qiymat yaratilayotgani bilan belgilanadi.

Korxona va aholi mablag'larining investitsiyalardagi ulushi keskin kamayib borayotgani investitsiya mexanizmining tashqi resurslarga asoslangan modelga o'tayotganini anglatadi. Ushbu tendensiya yirik loyihalarni amalga oshirish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi, biroq mahalliy korxonalar va moliyaviy institutlarning investitsiya jarayonidagi ishtiroki zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

Shu bois xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan bir qatorda quyidagi yo'nalishlarda ichki investitsiya salohiyatini kuchaytirish lozim:

korxonalar foydasini reinvestitsiya qilishni rag'batlantirish;

aholi jamg'armalarini kapital bozoriga jalb etish;

korporativ obligatsiyalar bozorini rivojlantirish;

mahalliy investitsiya fondlarini tashkil etish;

tijorat banklarining uzoq muddatli resurs bazasini kengaytirish;

sug'urta va pensiya jamg'armalari mablag'larini investitsiya loyihalariga yo'naltirish.

TTXIning sanoat, transport va qurilishda yuqori darajada jamlanishi hudud iqtisodiyotining real sektoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq investitsiyalarning cheklangan tarmoqlarda konsentratsiyalashuvi hududiy iqtisodiyotni ayrim tarmoqlardagi talab va narx o'zgarishlariga bog'lab qo'yishi mumkin.

Xorijiy investitsiyalar tarkibini diversifikatsiyalash uchun raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm, yashil energetika va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash sohalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

³ Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<https://globalsciencehub.uz/index.php/IE/uz>

**XULOSA**

Olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, Namangan viloyatining yuqori demografik salohiyati investitsiya mexanizmlarini rivojlantirish uchun muhim iqtisodiy omil hisoblanadi. 2020–2025-yillarda viloyat aholisi 323,4 ming kishiga yoki 11,3 foizga oshgan. Bu mehnat resurslari va ichki bozor hajmining kengayishiga xizmat qilgan.

Ikkinchidan, viloyatda yalpi hududiy mahsulot hajmi 2020-yildagi 34 169,1 mlrd soʻmdan 2025-yilda 85 419,0 mlrd soʻmga yetib, qariyb 2,5 baravarga oshgan. Ushbu holat ishlab chiqarish, xizmatlar, qurilish va investitsion faollik kengayganini koʻrsatadi.

Uchinchidan, Namangan viloyatida korxona va aholining oʻz mablagʻlari ulushi 2010-yildagi 72,1 foizdan 2025-yilda 13,9 foizgacha pasaygan. Natijada hududiy investitsiya mexanizmi ichki manbalarga asoslangan modeldan xorijiy va institutsional kapitalning roli yuqori boʻlgan modelga oʻtmoqda.

Toʻrtinchidan, Namangan viloyatiga jalb etilgan TTXI hajmi 2020–2025-yillarda 178 mln dollardan 365 mln dollarga koʻpaygan. Ushbu davrda xorijiy investitsiyalar hajmi 2,1 baravarga oshgan.

Beshinchidan, 2025-yilda TTXIning 34,3 foizi sanoat, 17,8 foizi transport va logistika, 10,1 foizi qurilishga yoʻnaltirilgan. Ushbu uch tarmoqning jami ulushi 62,2 foizni tashkil etgan.

Oltinchidan, axborot va aloqa, taʼlim, sogʻliqni saqlash va qishloq xoʻjaligida TTXI ulushining pastligi investitsiya siyosatini innovatsion, raqamli va ijtimoiy yoʻnalishlar boʻyicha diversifikatsiyalash zarurligini koʻrsatadi.

Yettinchidan, Namangan viloyatida investitsiya mexanizmlarining samarali harakatlanishi uchun demografik oʻsish, iqtisodiy rivojlanish, investitsiya infratuzilmasi va moliyalashtirish manbalarini yagona hududiy boshqaruv tizimi doirasida muvofiqlashtirish zarur.

Umuman olganda, Namangan viloyatining demografik va iqtisodiy salohiyati investitsiya faoliyatini kengaytirish uchun yetarli imkoniyatlar yaratmoqda. Mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanish investitsiya oqimlarini tarmoqlar boʻyicha diversifikatsiyalash, ichki moliyaviy manbalarni faollashtirish, xorijiy investitsiyalarni yuqori qoʻshilgan qiymatli sohalarga yoʻnaltirish hamda hududiy infratuzilmani rivojlantirishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. London: Macmillan, 1936.
2. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. Cambridge: Harvard University Press, 1934.
3. Perroux F. Economic Space: Theory and Applications // Quarterly Journal of Economics. 1950. Vol. 64. No. 1. P. 89–104.
4. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990.
5. Myrdal G. Economic Theory and Underdeveloped Regions. London: Duckworth, 1957.
6. North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
7. World Bank. World Development Report: Infrastructure for Development. Washington, D.C.: World Bank.
8. OECD. Policy Framework for Investment. Paris: OECD Publishing.
9. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasining hududiy demografik va iqtisodiy koʻrsatkichlari.
10. Namangan viloyati statistika boshqarmasining 2020–2025-yillarga oid maʼlumotlari.
11. Namangan viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar haqidagi maʼlumotlar.
12. Muallifning Namangan viloyatidagi investitsiya mexanizmlari va hududiy investitsiya oqimlari boʻyicha hisob-kitoblari.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Kenjayev Ikrom Ergashboyevich University of Business and Science “Moliya” kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Кенжаев Икром Эргашбоевич заведующий кафедрой «Финансы» University of Business and Science, доктор философии по экономическим наукам (PhD), доцент / Kenjayev Ikrom Ergashboyevich Head of the Department of Finance, University of Business and Science, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
E-mail: ikromk@mail.ru



QASHQADARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIY SEKTORLARNING RIVOJLANISH DARAJASI VA EKOLOGIK-IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI

Usmonova Mohigu Mansur qizi

УРОВЕНЬ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ СЕКТОРОВ ЭКОНОМИКИ В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И АНАЛИЗ ЭКОЛОГО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ

Усмонова Мохигул Мансур кизи

THE LEVEL OF DEVELOPMENT OF GREEN ECONOMIC SECTORS IN KASHKADARYA REGION AND AN ANALYSIS OF ECOLOGICAL AND ECONOMIC INDICATORS

Usmonova Mohigul Mansur qizi

Annotatsiya. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishi bo'lib, bu jarayon Prezidentning 2025-yil 30-yanvardagi UP-16-son Farmoni asosida yanada jadallashdi. Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi, sanoat salohiyati va quyosh energiyasi resurslari bilan yashil transformatsiya uchun katta imkoniyatlarga ega. 2025-yilda viloyatda yalpi hududiy mahsulot 6,8 foizga, sanoat ishlab chiqarishi 7,2 foizga, qurilish ishlari 10,8 foizga va qishloq xo'jaligi mahsulotlari 4,3 foizga o'sdi. Aholi soni 3,72 million kishiga, faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 30,4 mingdan oshdi. Tadqiqotda viloyatda qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish, barqaror qishloq xo'jaligi, sanoatni modernizatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik ko'rsatkichlar asosida yashil iqtisodiyotning rivojlanish darajasi baholanadi. Shuningdek, iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinib, yashil transformatsiyani jadallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, Qashqadaryo viloyati, barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya, ekologik ko'rsatkichlar, iqtisodiy samaradorlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan samarali foydalanish, mintaqaviy rivojlanish, O'zbekiston.

Abstract. The transition to a green economy in Uzbekistan is a priority area of sustainable development, and this process was further accelerated by the Presidential Decree No. UP-16 dated January 30, 2025. Kashkadarya region has great potential for green transformation with its agricultural, industrial potential and solar energy resources. In 2025, the gross regional product in the region grew by 6.8%, industrial production by 7.2%, construction work by 10.8%, and agricultural products by 4.3%. The population increased by 3.72 million people, and the number of operating enterprises exceeded 30.4 thousand. The study assesses the level of development of the green economy in the region based on the use of renewable energy, sustainable agriculture, industrial modernization, efficient use of resources, and environmental indicators. The relationship between economic growth and environmental sustainability will also be analyzed and practical recommendations will be developed to accelerate the green transformation.

Keywords: Green economy, Kashkadarya region, sustainable development, renewable energy, environmental indicators, economic efficiency, environmental protection, efficient use of resources, regional development, Uzbekistan.

Аннотация. Переход к зеленой экономике в Узбекистане является приоритетным направлением устойчивого развития, и этот процесс был дополнительно ускорен Указом Президента № УП-16 от 30 января 2025 года. Кашкадарьинский регион обладает огромным потенциалом для зеленой трансформации благодаря своему сельскохозяйственному, промышленному потенциалу и ресурсам солнечной энергии. В 2025 году валовой региональный продукт региона вырос на 6,8%, промышленное производство — на 7,2%, строительные работы — на 10,8%, а сельскохозяйственная продукция — на 4,3%. Население увеличилось на 3,72 миллиона человек, а число действующих предприятий превысило 30,4 тысячи. В исследовании



оценивается уровень развития зеленой экономики в регионе на основе использования возобновляемых источников энергии, устойчивого сельского хозяйства, промышленной модернизации, эффективного использования ресурсов и экологических показателей. Также будет проанализирована взаимосвязь между экономическим ростом и экологической устойчивостью, и разработаны практические рекомендации по ускорению зеленой трансформации.

Ключевые слова: зеленая экономика, Кашкадарьинский край, устойчивое развитие, возобновляемая энергия, экологические показатели, экономическая эффективность, охрана окружающей среды, эффективное использование ресурсов, региональное развитие, Узбекистан.

Kirish. Global miqyosda yashil iqtisodiyotga o'tish iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning yomonlashishi va barqaror iqtisodiy rivojlanishga bo'lgan talabning ortib borayotganiga muhim javob bo'ldi. Xalqaro tashkilotlar iqtisodiy o'sishga atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirish, resurslardan samarali foydalanishni oshirish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlash bilan erishish kerakligini tobora ko'proq tan olmoqdalar. Yashil iqtisodiyot siyosati qayta tiklanadigan energiya texnologiyalari, aylanma ishlab chiqarish tizimlari, barqaror qishloq xo'jaligi va kam uglerodli sanoat rivojlanishini joriy etishni rag'batlantiradi, bu esa mamlakatlarga global iqlim majburiyatlarini bajarish bilan birga uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka erishish imkonini beradi.

O'zbekiston so'nggi yillarda yashil transformatsiya kun tartibini sezilarli darajada tezlashtirdi. 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sonli Prezident Farmonining qabul qilinishi muhim bosqich bo'ldi, unda Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yilida O'zbekiston-2030 strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturi tasdiqlandi. Farmonda qayta tiklanadigan energiya quvvatini kengaytirish, suvni tejaydigan texnologiyalarni takomillashtirish, yashil tadbirkorlikni rivojlantirish, yashil tariflarni joriy etish, ekologik boshqaruvni kuchaytirish va iqtisodiyotning barcha sohalarida energiya samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar joriy etildi.

O'zbekiston hududlari orasida Qashqadaryo o'zining kuchli qishloq xo'jaligi bazasi, sanoat korxonalari, quyosh energiyasi ishlab chiqarish uchun qulay iqlim sharoitlari va o'sib borayotgan investitsiya faolligi tufayli strategik mavqega ega. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda mintaqada yalpi hududiy mahsulotning 6,8%, sanoat ishlab chiqarishning 7,2%, qurilishning 10,8%, bozor xizmatlarining 13,6% va qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va baliqchilikning 4,3% o'sishi kuzatildi. 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mintaqada 3 716 949 nafar aholi va 30 424 ta faoliyat yuritayotgan korxonalar mavjud bo'lib, bu iqtisodiy faoliyatning kengayib borayotganidan dalolat beradi, bu esa bir vaqtning o'zida barqaror resurslarni boshqarish va atrof-muhitni muhofaza qilishning ahamiyatini oshiradi.

Ushbu ijobiy iqtisodiy dinamikaga qaramay, suvdan samarali foydalanish, qayta tiklanadigan energiya integratsiyasi, sanoat dekarbonizatsiyasi, chiqindilarni boshqarish va atrof-muhit sifati bilan bog'liq muammolar saqlanib qolmoqda. Shuning uchun ekologik va iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali yashil iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish darajasini baholash muhim ilmiy va siyosiy masalaga aylandi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot tarmoqlarining hozirgi rivojlanishini asosiy ekologik va iqtisodiy ko'rsatkichlarni baholash, mintaqaviy kuchli tomonlar va mavjud cheklavlarni aniqlash hamda O'zbekistonning milliy yashil iqtisodiyot strategiyasi va xalqaro barqarorlik majburiyatlariga muvofiq barqaror mintaqaviy rivojlanishni tezlashtirish bo'yicha dalillarga asoslangan tavsiyalar berish orqali tahlil qilishdir.

Adabiyotlar sharhi. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi zamonaviy iqtisodiy fanda eng keng muhokama qilinadigan yondashuvlardan biriga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi ma'lumotlariga ko'ra, yashil iqtisodiyot inson farovonligini va ijtimoiy tenglikni yaxshilaydi, shu bilan birga ekologik xavflar va ekologik tanqislikni sezilarli darajada kamaytiradi. UNEP qayta tiklanadigan energiya, barqaror qishloq xo'jaligi, samarali resurslarni boshqarish va yashil infratuzilmaga investitsiyalar bir vaqtning o'zida iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikka hissa qo'shishini ta'kidlaydi[4].

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti yashil o'sishni kelajak avlodlar uchun tabiiy resurslarni saqlab qolish bilan birga unumdorlik va innovatsiyalarni rag'batlantiradigan iqtisodiy rivojlanish modeli sifatida belgilaydi[2]. OECD tadqiqotchilari mintaqaviy hukumatlar yashil investitsiya siyosatini amalga oshirishda va institutsional islohotlar orqali ekologik samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydilar.

Barbier[1] muvaffaqiyatli yashil iqtisodiy transformatsiya ekologik siyosatni sanoatni modernizatsiya qilish va ish o'rinlarini yaratish bilan integratsiyalashga bog'liqligini ta'kidlaydi. Xuddi shunday, Pearce, Markandya va Barbier uzoq muddatli rivojlanishda tabiiy kapital va ekologik resurslarning iqtisodiy qiymatini ta'kidlab, barqaror rivojlanishning nazariy asoslarini taqdim etdilar[3].

So'nggi yillarda Jahon banki suv tanqisligi va iqlim xavflarining ortishi tufayli Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun iqlim o'zgarishiga moslashish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini kengaytirish va suv resurslarini samarali boshqarish ayniqsa muhim ahamiyat kasb etayotganini ta'kidladi. Bank mintaqaviy yashil investitsiyalarni kuchaytirishni va barqaror rivojlanish uchun institutsional mexanizmlarni takomillashtirishni tavsiya qiladi[5].

O'zbek olimlari orasida Q. Abdurahmonov barqaror iqtisodiy rivojlanish iqtisodiy o'sishni atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy farovonlik bilan birlashtirishi kerakligini ta'kidlaydi[6]. Uning tadqiqotlari ekologik jihatdan mas'uliyatli tadbirkorlikni



rivojlantirish va mintaqaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning muhimligini ta'kidlaydi.

B. Berkinov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirish va barqaror mintaqaviy rivojlanishga erishishda atrof-muhitni boshqarishning roliga qaratilgan[7]. Muallif qayta tiklanadigan energiya, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va sanoatni ekologik modernizatsiya qilish iqtisodiy raqobatbardoshlikning muhim omili ekanligini ta'kidlaydi.

A. Vahobov va Sh. Mustafauqulov mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish va investitsiya siyosatini keng o'rganib, yashil iqtisodiyotga o'tish sanoat infratuzilmasini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni kengaytirish va samarali davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini talab qilishini ta'kidladilar[8].

O'zbekistonda yaqinda qabul qilingan siyosat hujjatlari yashil rivojlanish uchun huquqiy va institutsional asosni sezilarli darajada mustahkamladi. Prezidentning 2023-yil 11-sentabrda PF-27-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasida ekologik barqarorlik, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va resurslarni samarali boshqarish strategik ustuvorliklar sifatida belgilangan[9]. Bundan tashqari, Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yiliga bag'ishlangan 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-sonli Prezident farmonida yashil sanoatni kengaytirish, qayta tiklanadigan energiya quvvatini oshirish, suvni tejaydigan texnologiyalarni rivojlantirish va ekologik toza tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaliy choralar joriy etilgan[10].

Avvalgi tadqiqotlar yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanishning nazariy asoslarini o'rganish bo'lsa-da, mintaqaviy darajada, ayniqsa Qashqadaryo viloyatida ekologik va iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali yashil iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish darajasini baholashga nisbatan cheklangan e'tibor qaratildi.

Metodologiya. Ushbu maqola Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish darajasi va ekologik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni baholash uchun keng qamrovli mintaqaviy analitik yondashuvdan foydalanadi. Tadqiqot barqaror rivojlanish, yashil o'sish va mintaqaviy iqtisodiy tahlil tamoyillariga asoslangan bo'lib, ham sifat, ham miqdoriy tadqiqot usullarini birlashtiradi.

Tahlil asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Energetika vazirligi, rasmiy mintaqaviy statistik hisobotlar va boshqa hukumat nashrlaridan olingan ikkilamchi ma'lumotlarga tayanadi. 2021–2025 yillarni qamrab oluvchi so'nggi ma'lumotlar mintaqaning iqtisodiy va ekologik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni aniqlash uchun ishlatilgan.

Tadqiqotda vaqt o'tishi bilan asosiy ekologik va iqtisodiy ko'rsatkichlarning dinamikasini o'rganish uchun qiyosiy tahlil qo'llaniladi. Tavsiflovchi statistik usullar yalpi mintaqaviy mahsulot, sanoat ishlab chiqarishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish choralari, investitsiya faoliyati va

resurslar samaradorligi tendentsiyalarini baholash uchun qo'llaniladi. Bundan tashqari, iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun tizimli tahlil va mantiqiy sintez qo'llaniladi.

Natijalar integratsiyalashgan ekologik-iqtisodiy nuqtai nazardan talqin qilinadi, bu esa Qashqadaryo viloyatida yashil transformatsiyaga ta'sir qiluvchi mavjud imkoniyatlar va cheklavlarni aniqlash imkonini beradi. Tahliliy natijalar asosida barqaror mintaqaviy rivojlanishni mustahkamlash, ekologik ko'rsatkichlarni yaxshilash va yashil iqtisodiyot siyosati samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

Natijalar va muhokama. Tahlil shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyati qulay quyosh nurlanishi, kuchli qishloq xo'jaligi bazasi va kengayib borayotgan sanoat sektori tufayli yashil iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish uchun katta salohiyatga ega. Shu bilan birga, tez iqtisodiy o'sish tabiiy resurslarga bosimni oshirdi va ekologik jihatdan barqaror ishlab chiqarish usullarini joriy etishni tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Statistika Agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda Qashqadaryoning yalpi hududiy mahsuloti (YHM) 6,8% ga, sanoat ishlab chiqarishi 7,2% ga, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va baliqchilik mahsulotlari 4,3% ga, qurilish 10,8% ga va bozor xizmatlari 13,6% ga o'sdi. Bu ko'rsatkichlar barqaror mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni ko'rsatadi va qayta tiklanadigan energiya, energiya tejaydigan texnologiyalar va ekologik toza ishlab chiqarishga investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratadi.

Viloyat, shuningdek, yuqori quyosh nurlanishi (yiliga taxminan 300 quyoshli kun) tufayli O'zbekistonning quyosh fotoelektr stansiyalarini rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xorijiy investitsiyalar bilan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli qayta tiklanadigan energiya loyihalari toza elektr energiyasi ishlab chiqarish ulushini oshirishi, shu bilan birga issiqxona gazlari chiqindilarini va qazilma yoqilg'ilarga bog'liqlikni kamaytirishi kutilmoqda. Ushbu loyihalar O'zbekiston-2030 strategiyasi va milliy Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish dasturining maqsadlarini bevosita qo'llab-quvvatlaydi.

Ijobiy yutuqlarga qaramay, bir qator ekologik muammolar saqlanib qolmoqda. Mintaqaning asosiy iqtisodiy tarmoqlaridan birini ifodalovchi qishloq xo'jaligi sug'orish suviga katta tayanch bo'lib qolmoqda. Iqlim o'zgarishi, haroratning oshishi va vaqti-vaqti bilan suv tanqisligi tomchilatib sug'orish va raqamli suvni boshqarish tizimlari kabi suvni tejaydigan texnologiyalarga ehtiyojni kuchaytirdi. Ushbu texnologiyalarni kengaytirish qishloq xo'jaligi unumdorligini oshirish bilan birga atrof-muhitga bosimni kamaytiradi.

Ekologik-iqtisodiy baholash shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryoning yashil iqtisodiyotining kelajakdagi rivojlanishi nafaqat qayta tiklanadigan energiya quvvatlarini kengaytirishga, balki yashil investitsiyalarni ko'paytirishga, ekologik jihatdan mas'uliyatli tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga, chiqindilarni boshqarishni takomillashtirishga, resurslarni tejaydigan qishloq xo'jaligini rivojlantirishga va atrof-muhitni



boshqarish uchun institutsional mexanizmlarni mustahkamlashga ham bog'liq. Davlat idoralari, xususiy investorlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari va mahalliy

jamoalar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish yashil texnologiyalarni joriy etish va barqaror mintaqaviy rivojlanishni tezlashtiradi.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiy sektorlarning rivojlanish ko'rsatkichlari (2025-yil yanvar-dekabr)[11]

№	Ko'rsatkich	2025-yil	Ulushi / o'sish sur'ati
1	Asosiy kapitalga investitsiyalar	39 876,0 mlrd so'm	106,9 %
2	Elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalash sohasiga investitsiyalar	5 798,9 mlrd so'm	14,5 %
3	Suv ta'minoti, kanalizatsiya va chiqindilarni boshqarish sohasiga investitsiyalar	1 154,0 mlrd so'm	2,9 %
4	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligiga investitsiyalar	5 381,7 mlrd so'm	13,5 %
5	Xorijiy investitsiya va kreditlar	29 234,1 mlrd so'm	2 305,0 mln AQSh dollari
6	Ishga tushirilgan suv tarmoqlari	36,6 km	—

Jadvaldan ko'rinadiki, 2025-yilda Qashqadaryo viloyatida asosiy kapitalga 39 876,0 mlrd so'm investitsiya o'zlashtirilgan bo'lib, bu 2024-yilga nisbatan 106,9 %ni tashkil etgan. Yashil iqtisodiyot bilan bevosita bog'liq tarmoqlar ichida elektr energiyasi, gaz va bug' bilan ta'minlash sohasiga 5 798,9 mlrd so'm, suv ta'minoti, kanalizatsiya va chiqindilarni boshqarish sohasiga esa 1 154,0 mlrd so'm investitsiya yo'naltirilgan.

Ayniqsa, suv ta'minoti, kanalizatsiya va chiqindilarni boshqarish sektorining jami investitsiyalardagi 2,9 % ulushi yashil infratuzilmaning hali yetarlicha katta bo'lmaganini, biroq ushbu yo'nalishda investitsiya salohiyati mavjudligini ko'rsatadi. 2025-yilda viloyatda 36,6 km suv tarmog'i ishga tushirilgan.

Umuman olganda, natijalar Qashqadaryo viloyati yashil iqtisodiy transformatsiyaning faol bosqichiga kirganligini ko'rsatadi. Shunga qaramay, uzoq muddatli barqarorlikka erishish uchun innovatsion texnologiyalarni kengroq joriy etish, qayta tiklanadigan energiyaga doimiy investitsiyalar kiritish, ekologik monitoringni yaxshilash va milliy ekologik siyosatni yanada kuchliroq amalga oshirish talab etiladi. Ushbu chora-tadbirlar muvozanatli iqtisodiy o'sishga, atrof-muhitni muhofaza qilishga va hayot sifatini yaxshilashga hissa qo'shadi, shu bilan birga O'zbekistonning kam uglerodli va barqaror iqtisodiyotga o'tishini qo'llab-quvvatlaydi.

Xulosa va tavsiyalar. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyati o'sib borayotgan iqtisodiyoti, boy quyosh energiyasi salohiyati, kengayib borayotgan sanoat bazasi va kuchli qishloq xo'jaligi salohiyati tufayli yashil iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish uchun qulay sharoitlarga ega. So'nggi iqtisodiy ko'rsatkichlar barqaror mintaqaviy o'sishni

ko'rsatmoqda, shu bilan birga O'zbekiston-2030 strategiyasi va 2025-yilgi Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili Davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan milliy islohotlar yashil transformatsiyani tezlashtirish uchun mustahkam institutsional asos yaratadi.

Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishni kuchaytirish uchun quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

- Qayta tiklanadigan energiya loyihalariga, xususan, quyosh energiyasi ishlab chiqarishga investitsiyalarni ko'paytirish va toza energiya texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish.

- Resurslar samaradorligi va qishloq xo'jaligi barqarorligini oshirish uchun suvni tejaydigan sug'orish tizimlari va iqlimga mos qishloq xo'jaligi amaliyotlarini rag'batlantirish.

- Energiya tejaydigan texnologiyalar, toza ishlab chiqarish jarayonlari va chiqindilarni qayta ishlash tizimlari orqali sanoat korxonalarini modernizatsiya qilishni tezlashtirish.

- Ekologik toza biznes uchun moliyaviy rag'batlantirish, soliq imtiyozlari va yashil moliyalashtirishga osonroq kirishni ta'minlash orqali yashil tadbirkorlikni rag'batlantirish.

- Mintaqaviy ekologik monitoringni kuchaytirish va davlat muassasalari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, xususiy sektor va mahalliy jamoalar o'rtasida yashil rivojlanish tashabbuslarini amalga oshirishda hamkorlikni yaxshilash.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish ekologik va iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilashga, mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirishga, tabiiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga va O'zbekistonning uzoq muddatli barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni qo'llab-quvvatlashga hissa qo'shadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Barbier E. B. The Policy Challenges for Green Economy and Sustainable Economic Development. – New York: United Nations, 2011.
2. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). Towards Green Growth. – Paris: OECD Publishing, 2011.
3. Pearce D., Markandya A., Barbier E. Blueprint for a Green Economy. – London: Earthscan Publications, 1989.
4. United Nations Environment Programme (UNEP). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. – Nairobi: UNEP, 2011.
5. World Bank. Country Climate and Development Report: Uzbekistan. – Washington, DC: World Bank, 2022.
6. Abdurahmonov Q. X. Milliy iqtisodiyot. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2021.
7. Berkinov B. B. Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
8. Vahobov A. V., Mustafakulov Sh. A. Mintaqaviy iqtisodiyot. – Toshkent:

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida. PF–27-son Farmon. 2023-yil 11-sentabr.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" Davlat dasturi to'g'risida. PF–16-son Farmon. 2025-yil 30-yanvar.

11. O'zbekiston Respublikasi Statistika boshqarmasi agentligi <https://stat.uz>

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Usmonova Mohigu Mansur qizi Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti, 08-00-12-“Mintaqaviy iqtisodiyot” ixtisosligi mustaqil tadqiqotchisi / Усмонова Мохигул Мансур кизи Каршинский государственный университет Экономический факультет независимый исследователь по специальности 08.00.12 — «Региональная экономика» / Usmonova Mohigul Mansur qizi Karshi State University Faculty of Economics Independent Researcher in the specialty 08.00.12 — “Regional Economics”

E-mail: usmonovamohi99@gmail.com



QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH DINAMIKASI VA UNING AHOLI XARID QOBILIYATIGA MOSLIGINI BAHOLASH

Ramazonov Zafar Ulug‘bek o‘g‘li

ДИНАМИКА ПРОИЗВОДСТВА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ И ОЦЕНКА ЕЁ СООТВЕТСТВИЯ ПОКУПАТЕЛЬНОЙ СПОСОБНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ

Рамазонов Зафар Улугбек угли

DYNAMICS OF AGRICULTURAL PRODUCT PRODUCTION AND ASSESSMENT OF ITS COMPLIANCE WITH THE PURCHASING POWER OF THE POPULATION

Ramazonov Zafar Ulugbek ugli

Annotatsiya. Maqolada 2009–2025 yillar davomida hudud qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining dinamikasi tahlil qilingan hamda uning aholining o‘rtacha umumiy daromadlari va xarajatlari bilan muvofiqligi, ya‘ni xarid qobiliyatiga mosligi ekonometrik usullar yordamida baholangan. Tahlil natijasida aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi bilan aholining o‘rtacha umumiy daromadlari o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlangan, regressiya modeli orqali ishlab chiqarishning xarid qobiliyatiga ta‘sir darajasi miqdoriy jihatdan asoslangan. Shuningdek, nominal o‘sish sur‘atlarining farqi va daromadlarning xarajatlarni qoplash darajasi asosida aholi farovonligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish hajmi, xarid qobiliyati, aholi daromadlari, aholi xarajatlari, korrelyatsiya, regressiya, oziq-ovqat xavfsizligi, jon boshiga ishlab chiqarish.

Аннотация. В статье проанализирована динамика объёма производства сельскохозяйственной продукции в регионе за 2009–2025 годы, а также с использованием эконометрических методов оценено её соответствие средним совокупным доходам и расходам населения, то есть покупательной способности населения. В результате анализа выявлена сильная положительная связь между объёмом произведённой сельскохозяйственной продукции в расчёте на душу населения и средними совокупными доходами населения. С помощью регрессионной модели количественно обоснована степень влияния объёма производства на покупательную способность населения. Кроме того, на основе различий в темпах номинального роста и уровня покрытия расходов доходами разработаны предложения, направленные на повышение благосостояния населения.

Ключевые слова: сельское хозяйство, объём производства, покупательная способность, доходы населения, расходы населения, корреляция, регрессия, продовольственная безопасность, производство на душу населения.

Abstract. The article analyzes the dynamics of agricultural production in the region during 2009–2025 and evaluates its consistency with the average total income and expenditures of the population, i.e., purchasing power, using econometric methods. The analysis reveals a strong positive relationship between the volume of agricultural products produced per capita and the average total income of the population. A regression model is used to quantitatively substantiate the degree to which agricultural production affects purchasing power. In addition, based on differences in nominal growth rates and the extent to which income covers expenditures, proposals aimed at improving the welfare of the population have been developed.

Keywords: agriculture, production volume, purchasing power, population income, population expenditures, correlation, regression, food security, per capita production.



KIRISH

Qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'i bo'lib, u aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, qishloq joylarda bandlikni oshirish va aholi daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan agrar islohotlar, jumladan, klaster tizimining joriy etilishi, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari tarmoqda ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishini ta'minlamoqda. Biroq ishlab chiqarish hajmining o'sishi o'z-o'zidan aholi farovonligining oshishini anglatmaydi. Ishlab chiqarilgan mahsulot aholining xarid qobiliyatiga mos bo'lishi, ya'ni aholi daromadlari iste'mol uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib olish imkoniyatini berishi lozim. Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqarish dinamikasi bilan aholi daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muvofiqlikni miqdoriy baholash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va aholi farovonligi o'rtasidagi bog'liqlik masalasi xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. B.Jonston va J.Mellor [1] agrar sektorning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini tahlil qilib, qishloq xo'jaligi o'sishi aholi daromadlarini oshirish va ichki bozor talabini kengaytirishning asosiy omili ekanligini asoslagan. K.P.Timmer [2] agrar transformatsiya jarayonida oziq-ovqat narxlari barqarorligi va aholining xarid qobiliyati o'rtasidagi muvozanat oziq-ovqat xavfsizligining markaziy sharti ekanligini ko'rsatgan.

A.Sen [3] tomonidan ishlab chiqilgan «imkoniyatlar» nazariyasiga ko'ra, oziq-ovqat bilan ta'minlanganlik faqat ishlab chiqarish hajmiga emas, balki aholining mazkur mahsulotlarni sotib olish imkoniyatiga, ya'ni real daromadlariga bog'liqdir. Bu yondashuv ishlab chiqarish va xarid qobiliyati muvofiqligini birgalikda baholash zarurligini nazariy jihatdan asoslaydi. E.Engel [4] qonuniga muvofiq, daromadlar oshgan sari oziq-ovqatga sarflanadigan xarajatlarning ulushi kamayib boradi, bu esa agrar mahsulotlarga bo'lgan talab tarkibining o'zgarishini belgilaydi.

Mahalliy olimlardan S.S.G'ulomov va boshqalar [5] qishloq xo'jaligida islohotlarning iqtisodiy samaradorligini baholash uslubiyotini takomillashtirish masalalarini o'rgangan. T.X.Farmonov [6] agrar sohada xo'jalik yuritish shakllarini rivojlantirish va fermer xo'jaliklari daromadlilikini oshirish yo'nalishlarini tadqiq etgan. A.S.Soliev va R.X.Ergashev [7] mintaqaviy agrar iqtisodiyot va hududlarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini joylashtirish samaradorligini tahlil qilgan bo'lsa, X.P.Abulqosimov [8] aholi daromadlari, iste'mol xarajatlari va turmush darajasi o'rtasidagi bog'liqlikni makroiqtisodiy barqarorlik nuqtai nazaridan yoritgan.

O'tkazilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda ishlab chiqarish samaradorligi va aholi daromadlari alohida-alohida chuqur o'rganilgan bo'lsa-da, muayyan hudud misolida uzoq muddatli

qatorlar asosida ishlab chiqarish hajmining aholi xarid qobiliyatiga mosligini kompleks ekonometrik baholash masalasi yetarlicha ochib berilmagan. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda 2009–2025 yillarni qamrab olgan rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanildi: qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd so'm), chorvachilik mahsulotlari hajmi (mlrd so'm), doimiy aholi soni (ming kishi), aholining o'rtacha umumiy daromadlari va xarajatlari (ming so'm). Tahlilda quyidagi usullar qo'llanildi: dinamik qatorlar tahlili (o'sish sur'atlari, o'rtacha yillik o'sish sur'ati — CAGR), taqqoslama tahlil, guruhlash.

Aholi jon boshiga ishlab chiqarish ko'rsatkichi quyidagicha hisoblandi: $Ijb = IChH / AS \times 1000$, bu yerda IChH — ishlab chiqarish hajmi (mlrd so'm), AS — doimiy aholi soni (ming kishi). Xarid qobiliyatiga moslik darajasi ikki yo'nalishda baholandi: birinchidan, daromadlarning xarajatlarni qoplash koeffitsienti ($Kq = Daromad / Xarajat$); ikkinchidan, jon boshiga ishlab chiqarish bilan o'rtacha daromadlar o'rtasidagi bog'liqlik zichligi Pirson korrelyatsiya koeffitsienti orqali aniqlanib, bog'liqlik shakli bir omilli chiziqli regressiya modeli ($Y = a + bX$) yordamida ifodalandi. Modelning statistik ishonchliligi determinatsiya koeffitsienti (R^2) orqali tekshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil davrida hududda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2314,2 mlrd so'mdan 42239,6 mlrd so'mga yetib, nominal ifodada 18,3 barobar oshdi, o'rtacha yillik o'sish sur'ati 19,9 foizni tashkil etdi. Xuddi shu davrda aholining o'rtacha umumiy daromadlari 12568,4 ming so'mdan 66504,5 ming so'mga, ya'ni 5,3 barobar (o'rtacha yillik 11,0 foiz) o'sdi. Doimiy aholi soni 2315,6 ming kishidan 3639,3 ming kishiga yetib, o'rtacha yillik 2,9 foiz o'sish kuzatildi (1-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2009 yildagi 999,4 ming so'mdan 2025 yilda 11606,5 ming so'mga yetib, 11,6 barobar oshgan. Bu ko'rsatkich aholi sonining o'sishiga qaramay, ishlab chiqarish sur'atlari demografik o'sishdan sezilarli darajada yuqori bo'lganligini ko'rsatadi va hududning o'zini o'zi oziq-ovqat bilan ta'minlash salohiyati mustahkamlanganidan dalolat beradi.

Daromadlarning xarajatlarni qoplash koeffitsienti butun davr mobaynida 1,0 dan yuqori bo'lib, 2009 yilda 1,215 ni, 2017 yilda 1,111 ni, 2025 yilda esa 1,192 ni tashkil etdi. Demak, aholining o'rtacha daromadlari iste'mol xarajatlarini to'liq qoplagan holda, jamg'arma uchun 10–18 foiz atrofida imkoniyat qoldirgan. Ayni paytda 2014–2018 yillarda qoplash koeffitsientining pasayishi (1,10–1,11 darajasigacha) aholi real xarid qobiliyatiga bosim kuchaygan davrni aks ettiradi; 2019 yildan boshlab daromadlarning jadal o'sishi hisobiga mazkur ko'rsatkich yana yaxshilangan.

**Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va aholi daromadlari dinamikasi
(2009–2025 yy.)**

Yil	Ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm	Aholi soni, ming kishi	Jon boshiga ishlab chiqarish, ming so'm	O'rtacha umumiy daromad, ming so'm	O'rtacha umumiy xarajat, ming so'm	Qoplash koeff
2009	2314,2	2315,6	999,4	12568,4	10345,5	1,215
2010	2686,3	2456,9	1093,4	13136,3	11360,4	1,156
2011	2753,7	2616,1	1052,6	14080,5	12672,5	1,111
2012	4235,5	2722,9	1555,5	14925,4	13432,8	1,111
2013	5442,2	2777,8	1959,2	15820,9	14238,8	1,111
2014	6368,8	2831,3	2249,4	16770,2	15093,1	1,111
2015	7689,1	2895,3	2655,7	17776,4	15998,7	1,111
2016	9089,0	2958,9	3071,7	18843,0	16958,7	1,111
2017	10863,6	3025,6	3590,6	19973,5	17976,2	1,111
2018	14360,6	3088,8	4649,2	21171,9	19054,7	1,111
2019	17206,5	3148,4	5465,2	25876,8	23289,1	1,111
2020	19933,9	3213,1	6203,9	30924,7	27832,3	1,111
2021	23777,8	3280,4	7248,4	35086,8	31578,1	1,111
2022	28275,6	3335,4	8477,4	42478,9	39657,8	1,071
2023	32240,7	3408,3	9459,5	51866,9	45874,8	1,131
2024	38462,6	3482,3	11045,2	57635,4	50747,9	1,136
2025	42239,6	3639,3	11606,5	66504,5	55789,9	1,192

Manba: taqdim etilgan statistik ma'lumotlar asosida muallif hisob-kitoblari.

Ishlab chiqarish va xarid qobiliyati muvofiqligini baholash maqsadida korrelyatsion tahlil o'tkazildi. Natijalar qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bilan aholining o'rtacha umumiy daromadlari o'rtasida juda kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi: $r = 0,988$. Jon boshiga ishlab chiqarish bilan o'rtacha daromadlar o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti $r = 0,979$ ga teng bo'ldi. Bu ishlab chiqarishning o'sishi aholi daromadlarining oshishi bilan hamohang kechayotganligini, ya'ni tarmoq rivoji aholi xarid qobiliyatining muhim omili ekanligini tasdiqlaydi.

Regression tahlil natijasida quyidagi model olindi: $Y = 5505,7 + 4,635 \cdot X$, bu yerda Y — aholining o'rtacha umumiy daromadi (ming so'm), X — jon boshiga ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi (ming so'm). Model bo'yicha determinatsiya koeffitsienti $R^2 = 0,959$ bo'lib, aholi daromadlari variatsiyasining 95,9 foizi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi o'zgarishi bilan izohlanadi. Regressiya koeffitsientining iqtisodiy mazmuni shundaki, jon boshiga ishlab chiqarishning 1 ming so'mga oshishi

aholining o'rtacha umumiy daromadini taxminan 4,6 ming so'mga oshishiga mos keladi, bu esa qishloq xo'jaligidagi qo'shilgan qiymaning daromadlar zanjiri orqali multiplikativ ta'sirini aks ettiradi.

Davrlarni taqqoslash maqsadida tahlil uch bosqichga bo'lib o'rganildi: 2009–2013 yillar (islohotlarga bo'lgan davr), 2014–2019 yillar (tarkibiy o'zgarishlar davri) va 2020–2025 yillar (jadal islohotlar davri). Har bir bosqich bo'yicha o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 2-jadvalda keltirilgan.

Jadvaldan ko'rinadiki, barcha davrlarda ishlab chiqarish sur'atlari daromadlar sur'atidan yuqori bo'lgan, ammo 2020–2025 yillarda daromadlar o'sishi sezilarli jadallashib (yiliga o'rtacha 16 foizdan yuqori), ishlab chiqarish sur'atlariga yaqinlashgan. Bu daromadlar siyosatidagi ijobiy siljishlarni, jumladan, ish haqi, pensiya va ijtimoiy to'lovlarning oshishi hamda qishloq joylarda tadbirkorlik daromadlarining kengayishini aks ettiradi. Ayni shu davrda xarajatlar sur'atining daromadlar sur'atidan biroz pastligi aholidagi jamg'arish imkoniyatining tiklanganidan dalolat beradi.

Asosiy ko'rsatkichlarning o'rtacha yillik o'sish sur'atlari, foizda

Davr	Ishlab chiqarish hajmi	Aholi soni	O'rtacha daromadlar	O'rtacha xarajatlar
2009–2013	23,8	4,7	5,9	8,3
2014–2019	22,0	2,1	9,1	9,1
2020–2025	16,2	2,5	16,5	14,9
2009–2025	19,9	2,9	11,0	11,1

Manba: muallif hisob-kitoblari.

Shu bilan birga, nominal ko'rsatkichlar taqqoslamasi muhim nomutanosiblikni ham ochib beradi: ishlab chiqarish hajmining o'rtacha yillik o'sish sur'ati (19,9%) daromadlar o'sish sur'atidan (11,0%) qariyb ikki barobar yuqori. Bu farqning bir qismi qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlarining o'sishi bilan bog'liq bo'lib, narx omili aholining real xarid qobiliyatini cheklashi mumkin. Daromadlar tarkibida xarajatlar ulushining 2009 yildagi 82,3 foizdan 2025 yilda 83,9 foizgacha oshgani ham iste'mol xarajatlari bosimining saqlanib qolayotganini bildiradi. Demak, ishlab chiqarish hajmi jihatidan ta'minot yetarli bo'lsa-da, narx va daromad muvozanati nuqtai nazaridan xarid qobiliyatiga to'liq moslik uchun daromadlarni jadal oshirish va ichki bozorda narx barqarorligini ta'minlash talab etiladi.

Olingan natijalar B.Jonston va J.Mellorning agrar o'sish ichki talabni kengaytiradi, degan xulosasi bilan hamohangdir: tahlil qilingan hududda ishlab chiqarishning o'sishi daromadlar o'sishi bilan kuchli bog'liqlikda kechgan. Ayni paytda A.Senning imkoniyatlar nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, xarid qobiliyatiga to'liq moslikka erishish uchun faqat fizik hajm emas, balki daromadlarning real o'sishini ta'minlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari, shuningdek, E.Engel qonunida bashorat qilingan tendensiyalarni hisobga olgan holda, daromadlar oshishi bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qo'shilgan qiymati yuqori turlarini (qayta ishlangan, chorvachilik mahsulotlari) ko'paytirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, 2009–2025 yillarda hududda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi barqaror va jadal o'sib, jon boshiga ishlab chiqarish 11,6 barobar oshdi, bu aholini mahsulot bilan ta'minlashning fizik asosini mustahkamladi. Ikkinchidan, ishlab chiqarish bilan aholi daromadlari o'rtasida juda kuchli ijobiy bog'liqlik aniqlandi, bu tarmoq rivojining aholi xarid qobiliyatiga mosligini umumiy tarzda tasdiqlaydi. Uchinchidan, daromadlarning xarajatlarni qoplash koeffitsienti butun davr davomida birdan yuqori bo'lsa-da, ayrim yillarda pasayishi va xarajatlar ulushining oshib borishi real xarid qobiliyatidagi zaifliklardan dalolat beradi. Shulardan kelib chiqib quyidagi takliflar ilgari suriladi: qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish orqali qishloq aholisi daromadlarini oshirish; ichki bozorda oziq-ovqat narxlari

barqarorligini ta'minlovchi zaxira va logistika tizimini takomillashtirish; jon boshiga ishlab chiqarish va xarid qobiliyati muvofiqligini muntazam monitoring qilish uchun hududiy darajada indikatorlar tizimini (qoplash koeffitsienti, real daromad indeksi, oziq-ovqat xarajatlari ulushi) joriy etish; chorvachilik va meva-sabzavotchilik kabi daromad elastikligi yuqori yo'nalishlarga investitsiyalarni rag'batlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Johnston B.F., Mellor J.W. The Role of Agriculture in Economic Development // The American Economic Review. – 1961. – Vol. 51, No. 4. – P. 566–593.
2. Timmer C.P. Food Security and Economic Growth: an Asian perspective // Asian-Pacific Economic Literature. – 2005. – Vol. 19, No. 1. – P. 1–17.
3. Sen A. Poverty and Famines: An Essay on Entitlement and Deprivation. – Oxford: Clarendon Press, 1981. – 257 p.
4. Engel E. Die Productions- und Consumtionsverhältnisse des Königreichs Sachsen // Zeitschrift des Statistischen Bureaus des Königlich Sächsischen Ministeriums des Innern. – 1857. – No. 8–9.
5. G'ulomov S.S. va boshq. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent: Fan, 2018.
6. Farmonov T.X. Qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritish shakllarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2016.
7. Soliev A.S., Ergashev R.X. Mintaqaviy iqtisodiyot va agrar soha rivojlanishi masalalari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019.
8. Abulqosimov X.P. Aholi daromadlari va turmush darajasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Akademiya, 2020.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Ramazonov Zafar Ulug'bekovich Xalqaro innovatsion universiteti, assistant o'qituvchisi/ Рамазонов Зафар Улугбекович, Международный инновационный университет, ассистент-преподаватель / Ramazonov Zafar Ulugbekovich, International Innovation University, Assistant Lecturer.
E-mail: zafarmznv@gmail.com



ФОРМИРОВАНИЕ СКРИНИНГ ЦЕНТРОВ КАК МЕХАНИЗМ СОДЕЙСТВИЯ ТРУДОУСТРОЙСТВУ ВЫПУСКНИКОВ ВУЗОВ НА РЫНКЕ ТРУДА

Узакова Вазира Саидмуродовна

OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI BITIRUVCHILARINING MEHNAT BOZORIDA ISHGA JOYLASHISHIGA KO'MAKLASHISH MEKANIZMI SIFATIDA SKRINING MARKAZLARINI SHAKLLANTIRISH

Uzakova Vazira Saidmuradovna

FORMATION OF SCREENING CENERS AS A MECHANISM FOR FACILITATING EMPLOYMENT OF UNIVERSITY GRADUATES IN THE LABOR MARKET

Uzakova Vazira Saidmuradovna

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы содействия трудоустройству выпускников вузов на рынке труда. Проведен социологический опрос среди выпускников вузов для того, чтобы выявить проблемы их трудоустройства. Также изучена деятельность вузовских Центров содействия трудоустройству. На основе результатов анализа выявлен пробел в постоянном сотрудничестве между работодателями и вузами. В работе предложено создание Скрининг Центров в вузах как механизма, объединяющего интересы вузов, работодателей и государства в подготовке конкурентоспособных специалистов. Определены цели, направления деятельности, методы работы и организационно-правовые аспекты функционирования предлагаемой структуры, а также ее отличия от действующих центров содействия трудоустройству.

Ключевые слова: трудоустройство выпускников, конкурентоспособность, рынок труда, Скрининг Центр, теория скрининга, содействие занятости, высшее образование.

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat bozorida ishga joylashishiga ko'maklashish masalalari ko'rib chiqiladi. Bitiruvchilarning ishga joylashish muammolarini aniqlash maqsadida ular o'rtasida sotsiologik so'rov o'tkazildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalaridagi Ishga joylashishga ko'maklashish markazlarining faoliyati o'rganildi. Tahlil natijalari asosida ish beruvchilar va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi barqaror hamkorlikdagi bo'shliq aniqlandi. Ishda oliy ta'lim muassasalari, ish beruvchilar va davlatning manfaatlarini birlashtiruvchi mexanizm sifatida oliy ta'lim muassasalarida Skrinig Markazlarini tashkil etish taklif etiladi. Taklif etilayotgan tuzilmaning maqsadlari, faoliyat yo'nalishlari, ish uslublari va tashkiliy-huquqiy jihatlari, shuningdek uning mavjud ishga joylashishga ko'maklashish markazlaridan farqlari belgilab berilgan.

Kalit so'zlar: bitiruvchilarni ishga joylashtirish, raqobatbardoshlik, mehnat bozori, Skrinig Markazi, skrinig nazariyasi, bandlikka ko'maklashish, oliy ta'lim.

Abstract. This article examines the issues of facilitating the employment of university graduates in the labor market. A sociological survey was conducted among university graduates to identify the problems they face in finding employment. The activities of university Employment Assistance Centers were also studied. Based on the analysis results, a gap in sustained cooperation between employers and universities was identified. The paper proposes the establishment of Screening Centers at universities as a mechanism uniting the interests of universities, employers, and the state in training competitive specialists. The goals, activity directions, working methods, and organizational-legal aspects of the proposed structure are defined, as well as its differences from existing employment assistance centers.

Keywords: graduate employment, competitiveness, labor market, Screening Center, screening theory, employment assistance, higher education.



ВВЕДЕНИЕ

Процессы инновационного развития, осуществляемые в экономике республики, влияют на ситуацию на рынке труда, особенно на трудоустройство молодых людей, впервые вступающих на него по своей профессии или своим интересам. В Узбекистане ежегодно выходят на рынок труда более 600 тысяч молодых людей⁴, что делает все более актуальной задачу поддержки занятости, создания новых рабочих мест, подготовки профессиональных и высокообразованных кадров на основе международных стандартов. Сегодня студентам помимо фундаментальных знаний становится необходимым приобретение таких мягких навыков, как критическое мышление, коммуникация и общение, самопрезентация, работа в команде, гибкость, необходимые для их профессиональной деятельности.

В связи с этим в Узбекистане начался новый этап реформирования системы образования, и придается большое значение качеству подготовки высококвалифицированных специалистов. За последние годы был принят ряд мер, направленных на повышение уровня трудоустройства выпускников вузов. Так, в Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года одной из основных задач является приведение содержания и структуры образования в соответствие с потребностями рынка труда⁵. В стране идет процесс адаптации качества образования к международным стандартам, подготовки высококвалифицированных кадров, обладающих современными знаниями и высокими духовно-нравственными качествами.

Но, несмотря на проводимые масштабные реформы, проблема обеспечения эффективного трудоустройства выпускников с высшим образованием и повышения их конкурентоспособности на рынке труда остаются одной из актуальных задач современного этапа развития. Результаты проведенного нами социологического опроса среди выпускников вузов позволили выявить такие проблемы, как отсутствие у них информации о состоянии рынка труда и вакансиях, неумение планировать карьерный рост, грамотно составлять резюме и создавать портфолио (сертификаты, дипломы, рекомендательные письма, гранты, стипендии), наглядно подтверждающее практические достижения на протяжении всего учебного процесса, а также ряд психологических проблем, связанных с поведенческой неустойчивостью, завышенной самооценкой, мотивацией в отношении размера заработной платы, отсутствием достаточного опыта работы, дополнительных навыков, личностных качеств и др. В целом это указывает на необходимость формирования и развития в процессе деятельности вуза адекватных поведенческих навыков и реакций конкурентного поведения как важной составляющей конкурентоспособности. В связи с этим выпускники

вузов остро нуждаются в услугах по содействию трудоустройству.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Исследование строится на нескольких взаимодополняющих методах. Во-первых, использован метод социологического опроса: проведен опрос среди выпускников вузов для выявления проблем, с которыми они сталкиваются при выходе на рынок труда, а также опрос среди студентов Самаркандского института экономики и сервиса — для оценки их осведомленности о работе действующего вузовского Центра карьеры. Во-вторых, применен сравнительно-аналитический метод: проанализирован отечественный и зарубежный опыт деятельности центров содействия трудоустройству вузов, центров содействия занятости населения.

Анализ действующей системы содействия трудоустройству выпускников вузов. Проведенный нами анализ опыта вузов по содействию в трудоустройстве молодых специалистов показал, что деятельность в них носит разрозненный характер. В вузах Республики Узбекистан этими вопросами занимаются Центры содействия трудоустройству, оснащенные информационной системой поддержки с выходом в интернет, однако их работа в основном сводится к установлению контакта с работодателями, организации производственных практик и участию в ярмарках вакансий. Реальной фундаментальной практики, обеспечивающей трудоустройство молодых специалистов, нет, недостаточно и мероприятий по профориентации и адаптации на рынке труда.

Подобные центры созданы не во всех вузах республики — в этом случае задачи по трудоустройству студентов берет на себя отдел «Маркетинг», который, в отличие от зарубежных вузов, недостаточно работает с потенциальными работодателями. Как правило, он отвечает за мониторинг трудоустройства выпускников, оформление договоров и ведение финансовой отчетности по оплате контрактов, что не позволяет в полной мере осуществлять маркетинговые исследования; сказываются и нечеткость основных задач отдела, и недостаточная квалификация сотрудников.

Стало традицией ежегодно проводить «Дни карьеры» для студентов магистратуры с участием потенциальных работодателей, однако подобные мероприятия проводятся лишь 1-2 раза в течение учебного года, что ограничивает возможности студентов по трудоустройству. Таким образом, на практике задачи, связанные с трудоустройством студентов, зачастую выполняются только «на бумаге».

Зарубежный опыт деятельности центров карьеры достаточно сформирован. В действующих в Узбекистане зарубежных учебных заведениях подобные центры уже имеют место в организационной структуре. Центры карьеры —

⁴ <https://clck.ru/3VG85i>

⁵ Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года.



относительно новая концепция для государственных вузов республики: открытие Центра карьеры в Самаркандском институте экономики и сервиса связано с переходом вуза на кредитно-модульную систему. Центр призван организовывать краткосрочные курсы обучения на основе сотрудничества с местными и международными компаниями-работодателями, привлекать экспертов, формировать базу данных требований компаний к новым сотрудникам, а также организовывать обучение и стажировку студентов.

Другими важными структурами процесса регулирования занятости являются Центры содействия занятости населения, частные агентства занятости и сайты трудоустройства — к ним часто обращаются ищущие работу выпускники. Центры содействия занятости имеют большую базу вакансий с агрегированными резюме соискателей, изучают спрос и предложение рабочей силы на рынке труда; их основная цель — снижение безработицы. Учитывая высокий уровень безработицы среди молодежи в республике, было бы целесообразным связать деятельность таких центров с центрами карьеры вузов. Центры ведут учет безработных, выплачивают пособия по безработице, оказывают бесплатную помощь в подборе вакансий, обучении новой профессии, временном трудоустройстве и юридическую помощь по вопросам трудового права, а также предоставляют льготные кредиты желающим трудоустроиться. Вместе с тем в своей деятельности они не уделяют особого внимания трудоустройству именно молодежи, окончившей вуз, что существенно сокращает ее возможности.

С конца 1990-х годов в Узбекистане стало формироваться новое учреждение — частные агентства занятости (кадровые агентства), которые играют значительную роль в поиске рабочих мест. Однако в действующем законодательстве обязанности частных агентств перед соискателями не до конца прописаны, не установлены строгие процедуры и четкий предел размера вознаграждения за оказываемые услуги, отсутствует прозрачный механизм регистрации и контроля договоров — все это мешает получению точной информации об их деятельности. При этом такие агентства в основном ведут деятельность, связанную с трудоустройством граждан Узбекистана за рубежом, а их роль в трудоустройстве выпускников вузов республики по специальностям не очень значительна. Существуют также частные HR-консалтинговые фирмы, которые наряду с консалтинговыми услугами занимаются трудоустройством квалифицированных кадров, однако из-за многогранности их деятельности они не очень заметны при трудоустройстве молодых выпускников.

Отдельно стоит выделить интернет-сайты трудоустройства, позволяющие соискателям регистрироваться, просматривать вакансии, а также проводить онлайн-опросы и публиковать их результаты. Среди преимуществ этого метода — оперативность, удобство, экономия времени и денег, конфиденциальность, свободный доступ к базе

вакансий, возможность отправки резюме на множество вакансий; к недостаткам можно отнести высокий спрос со стороны соискателей и ограниченное количество публикуемых вакансий по конкретной сфере деятельности. По статистике, лишь 5-10% соискателей устраиваются на работу через сайты вакансий; специфика деятельности разных сайтов различается незначительно — в основном с точки зрения способов поддержки и качества предлагаемых вакансий.

Анализируя схемы работы центров содействия трудоустройству, частных агентств занятости и сайтов трудоустройства, можно сказать, что все они выступают посредниками между работником и работодателем, исключая их прямое общение и беря на себя полную ответственность за поиск специалиста или вакансии. Это существенно ограничивает возможности соискателя найти подходящую работу, а работодателя — найти высококвалифицированный персонал. Учитывая изложенное, необходимо совершенствовать деятельность существующих Центров содействия трудоустройству выпускников вузов и модернизировать ее в соответствии с требованиями современного этапа развития.

Предложения по совершенствованию системы содействия трудоустройству. Основными направлениями деятельности центров содействия трудоустройству молодежи, на наш взгляд, должны стать работа со студентами и выпускниками, взаимодействие с работодателями, органами власти регионального и местного уровня, учреждениями занятости и СМИ, а также методическая и научно-исследовательская деятельность — на основе организационных, информационных, обучающих, методических и исследовательских мероприятий. При этом необходимо изучать рынок труда и определять потребность в кадрах, поскольку спрос на них существенно зависит от социальной, экономической и политической ситуации в стране.

Работа с обучающимися должна включать информирование об актуальном состоянии регионального рынка труда и возможностях дополнительного профессионального образования; консультирование по вопросам планирования карьеры и трудоустройства; развитие навыков ориентации и поведения на рынке труда; профтестирование с использованием современных компьютерных программ (применимо и в профориентационной работе с абитуриентами); организацию мероприятий, способствующих трудоустройству выпускников и временной занятости студентов. Взаимодействие с региональными и местными органами управления и работодателями должно решать как тактические, так и стратегические задачи: предоставление работодателям информации о выпускниках, нуждающихся в трудоустройстве, о программах профессионального образования и условиях целевой подготовки, а также установление партнерских и договорных отношений, прямых связей с



работодателями по вопросам практик, стажировок и временной занятости.

В этих целях предлагается создать в вузах «Скрининг Центры» по содействию адаптации и трудоустройству выпускников. Суть их работы заключается в том, что они станут крепким мостом между вузами и работодателями для подготовки конкурентоспособных специалистов и их эффективного трудоустройства: вузы будут готовить выпускников в соответствии с требованиями и предложениями работодателей, а работодатели — отбирать готовые кадры исходя из специальностей, навыков и знаний выпускников. Такой алгоритм благоприятно повлияет на подготовку конкурентоспособных выпускников, их успешное трудоустройство и благосостояние, на эффективность и производительность организаций, удовлетворенность работодателей, а также на развитие экономики государства в целом. Вузы будут четко понимать потребности рынка труда в конкретных навыках и знаниях; выпускники смогут заранее готовиться к рабочему процессу, зная, над развитием каких навыков нужно работать, и получают содействие в трудоустройстве по специализации к моменту окончания вуза; работодатели, в свою очередь, не будут находиться в долгих поисках сотрудников с нужным набором soft skills, hard skills и базовых знаний.

Название «Скрининг» соответствует теории скрининга, разработанной Нобелевскими лауреатами по экономике Майклом Спенсом и Джозефом Стиглицом в рамках институциональной школы экономики как объяснение процесса фильтра, проводимого организациями при найме конкурентоспособных специалистов. Теория скрининга предполагает, что образование выступает основным индикатором в процессе определения уровня способностей человека⁶. Согласно гипотезе Спенса⁷, Эрроу⁸ и Стиглица⁹, образование является важным сигналом производительности: работник с высшим образованием рассматривается как кандидат, способный выполнять работу более высокого уровня с более высокой заработной платой¹⁰. Более того, образование играет роль в передаче необходимой информации (диплом, специальность, сертификаты) нанимающей стороне, чтобы работодатель мог определить, подходит ли кандидат на работу с его уровнем образования, — то есть действует как механизм проверки, сигнализирующий работодателю о способностях человека, и позволяющий учесть потребности организации в отборе при принятии решения о найме¹¹. Эта закономерность подтверждает взаимосвязь между образованием и рынком труда, что и служит теоретическим основанием для создания Скрининг Центров в вузах Узбекистана.

Основными целями деятельности Скрининг Центра являются повышение конкурентоспособности выпускников, содействие приобретению ими раннего профессионального опыта и увеличение шансов на получение постоянного места работы после окончания практики или обучения. Деятельность Центра по социально-психологической и профессиональной адаптации и сопровождению трудоустройства выпускников должна вестись как внутри вуза (совместно с факультетами, деканатами и студентами), так и во взаимодействии с компаниями, ассоциациями, органами власти, СМИ и общественными институтами — то есть по трем направлениям: внешнее сотрудничество с учреждениями, органами власти, СМИ и государственными органами; внутреннее взаимодействие с факультетами (кафедрами), деканатами и другими структурами вуза в рамках схемы «вуз — рынок труда — производство»; взаимодействие со студентами и выпускниками.

Внешняя деятельность направлена на постоянное сотрудничество с органами власти, предприятиями, кадровыми агентствами, ассоциациями, аналогичными структурами вузов и СМИ; ее результатом становятся договоры и соглашения о сотрудничестве по содействию трудоустройству выпускников, адаптации на рынке труда, прохождению практик и стажировок. Внутренняя деятельность по схеме «вуз — рынок труда — производство» включает: создание базы данных «целевых групп предприятий»; разработку программ по профильным специальностям с учетом специфики профессионального образования; разработку методических материалов по вопросам трудоустройства; изучение требований к выпускникам-соискателям на основе методики оценки конкурентоспособности выпускников, предлагаемой автором; определение рейтинга конкурентоспособности выпускников с использованием разработанной автором методики и подбор соискателей исходя из значимых для работодателя критериев; участие в организации курсов и семинаров по бизнес-планированию и технологии трудоустройства (тренинги самопрезентации, делового общения, уверенного поведения, информирование о ситуации на рынке труда); участие в мониторинге успешности трудоустройства и проблем адаптации выпускников.

Основными методами работы со студентами и выпускниками являются: информирование об актуальных вакансиях; содействие в подборе временной и постоянной работы; индивидуальное консультирование по вопросам трудоустройства; помощь в профессиональном самоопределении в соответствии со способностями и рынком

⁶ Swanson, R. A., & Holton, E. F. (2001). Foundations of human resource development. San Francisco: Berrett-Koehler.

⁷ Spence, M.A. (1973), Job market signalling, Quarterly Journal of Economics, 87, 355-374.

⁸ Arrow, K.J. (1973), Higher education as a filter, Journal of Public Economics, 2(3), 193-216.

⁹ Stiglitz, J.E. (1975), The theory of screening, education, and the distribution of income, American Economic Review, 65(3), 283-300.

¹⁰ Brown, S., & Sessions, J. G. (2004). Signalling and screening. International handbook on the economics of education, 58.

¹¹ Swanson, R. A. (2008). Economic foundation of human resource development: Advancing the theory and practice of the discipline. Advances in Developing Human Resources.



профессий; профессиональная ориентация; диагностика профессионально важных качеств; помощь в написании резюме по современным требованиям; проведение отборочных соревнований по soft skills и hard skills; мастер-классы и беседы по самопрезентации и составлению резюме. Студенты будут обучаться составлению резюме и мотивационных писем под разные цели, роли, компании и индустрии, отрабатывать навыки самопрезентации на интервью и моделировать различные рабочие ситуации при участии представителей компаний из разных индустрий, которые будут проводить мастер-классы, факультативы и кейс-чемпионаты; на таких встречах студенты смогут развивать профессиональный английский, навыки ораторского искусства, тайм-менеджмента, сторителлинга, деловой коммуникации, управления командой и структурирования информации, а также определять свои профессиональные цели, интересы и слабые стороны, над которыми нужно работать еще во время учебы.

В отличие от действующих центров, Скрининг Центр будет работать со всеми студентами вуза, а не только с теми, кто к нему обратился: для всех студентов будут организовываться встречи с потенциальными работодателями, посещение специализированных выставок, а также анкетирование выпускных курсов для анализа их профессиональных намерений и потребностей.

Правовой статус вузовского Центра регулируется приказом о создании нового структурного подразделения (или реорганизации существующего), паспортом структурного подразделения и положением о Центре содействия трудоустройству выпускников, включающим общие правила, основные задачи и направления деятельности. Организационная структура зависит от размера вуза: в крупных вузах с большим числом факультетов, кафедр и специальностей необходима подчиненная структура, координирующая эту работу и подчиняющаяся ректору или первому проректору; окончательный выбор структуры остается прерогативой руководителя вуза. Структуру, численность и штатное расписание Скрининг Центра, а также изменения в них утверждает руководитель образовательной организации высшего образования.

Главные отличия Скрининг Центра от действующих в вузах Центров содействия трудоустройству заключаются в следующем: взаимодействие с работодателями ведется на постоянной, а не эпизодической основе; Центр работает со всеми студентами вуза, а не только с обратившимися; в отличие от действующих центров, уделяется внимание развитию мягких и жестких навыков, требуемых работодателями; на основе ежегодного тестирования осуществляется

диагностика профессионально важных качеств и выявление уровня соответствия выпускников требованиям работодателей; Центр сотрудничает с работодателями для корректировки и совершенствования учебных планов в соответствии с изменениями рынка труда.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

По нашему мнению, работа Скрининг Центра по содействию социально-психологической и профессиональной адаптации и сопровождению трудоустройства выпускников станет важным качественным ресурсом вуза по обеспечению конкурентоспособности выпускников, создавая при этом положительный имидж вузу. Таким образом, созданные в вузах Скрининг Центры могут стать структурой, в рамках которой будут приниматься реальные практические меры по регулированию сотрудничества между субъектами содействия: высшим образованием (вузами), рынком труда, производством (работодателями) и государственной властью — в решении проблем обеспечения конкурентоспособности выпускников на рынке труда.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. [Электронный ресурс]. URL: <https://clck.ru/3VG85i>
2. Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года.
3. Swanson, R. A., & Holton, E. F. (2001). Foundations of human resource development. San Francisco: Berrett-Koehler.
4. Spence, M.A. (1973), Job market signalling, Quarterly Journal of Economics, 87, 355-374.
5. Arrow, K.J. (1973), Higher education as a filter, Journal of Public Economics, 2(3), 193-216.
6. Stiglitz, J.E. (1975), The theory of screening, education, and the distribution of income, American Economic Review, 65(3), 283-300.
7. Brown, S., & Sessions, J. G. (2004). Signalling and screening. International handbook on the economics of education, 58.
8. Swanson, R. A. (2008). Economic foundation of human resource development: Advancing the theory and practice of the discipline. Advances in Developing Human Resources.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Узакова Вазира Саидмурадовна
Самаркандский институт экономики и сервиса, PhD /
Uzakova Vazira Saidmuradovna Samarqand iqtisodiyot
va servis instituti, PhD / Uzakova Vazira Saidmuradovna
Samarkand Institute of Economics and Service, PhD.
E-mail: uzakovavaziras@gmail.com



TRANSFERT NARXLARNI NAZORAT QILISH MEKANIZMI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONDA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Kurbonov Baxodir Ergashevich

МЕХАНИЗМ КОНТРОЛЯ ТРАНСФЕРТНОГО ЦЕНООБРАЗОВАНИЯ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И НАПРАВЛЕНИЯ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Курбонов Баходир Эргашевич

TRANSFER PRICING CONTROL MECHANISM: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND DIRECTIONS FOR ITS IMPROVEMENT IN UZBEKISTAN

Kurbonov Baxodir Ergashevich

Annotatsiya: Maqola transfert narxlarni davlat tomonidan nazorat qilish mexanizmini tadqiq etishga bag'ishlangan. Muallif tomonidan nazorat tizimining tarkibiy elementlari ajratib ko'rsatilgan, nazorat ostidagi bitimlarni aniqlash mezonlari tahlil qilingan hamda risklarga asoslangan tanlov modeli taklif etilgan. Xalqaro tajriba tahlili asosida hujjatlashtirishning uch bosqichli tizimi, oldindan narx kelishuvi instituti va o'zaro kelishuv tartib-taomili mexanizmlarining O'zbekiston sharoitida joriy etilish imkoniyatlari baholangan. Tadqiqot natijasida nazorat samaradorligini oshirishga qaratilgan uslubiy va tashkiliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq nazorati, nazorat ostidagi bitim, hujjatlashtirish, risk-tahlil, oldindan narx kelishuvi, o'zaro kelishuv tartib-taomili, mamlakatlar bo'yicha hisobot.

Аннотация: Статья посвящена исследованию механизма государственного контроля трансфертного ценообразования. Автором выделены структурные элементы системы контроля, проанализированы критерии определения контролируемых сделок и предложена модель отбора, основанная на оценке рисков. На основе анализа международного опыта оценены возможности внедрения в условиях Узбекистана трёхуровневой системы документации, института предварительного соглашения о ценообразовании и механизма процедуры взаимного согласования. По результатам исследования разработаны методические и организационные предложения, направленные на повышение эффективности контроля.

Ключевые слова: налоговый контроль, контролируемая сделка, документация, анализ рисков, предварительное соглашение о ценообразовании, процедура взаимного согласования, отчётность по странам.

Abstract: The article is devoted to the study of the mechanism of state control over transfer pricing. The author identifies the structural elements of the control system, analyzes the criteria for determining controlled transactions, and proposes a risk-based selection model. Based on an analysis of international experience, the possibilities of introducing a three-tier documentation system, the Advance Pricing Agreement (APA) institution, and the Mutual Agreement Procedure (MAP) mechanism in Uzbekistan are assessed. As a result of the study, methodological and organizational proposals aimed at improving the effectiveness of transfer pricing control are developed.

Keywords: tax control, controlled transaction, documentation, risk analysis, Advance Pricing Agreement, Mutual Agreement Procedure, Country-by-Country Reporting.

KIRISH

Transfert narxlarni nazorat qilish zamonaviy soliq ma'muriyatchiligining eng murakkab va bilim talab qiladigan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Uning murakkabligi bir necha omil bilan izohlanadi. Birinchidan, nazorat ob'ekti bo'lgan narx o'z tabiatiga

ko'ra yagona to'g'ri qiymatga ega emas, balki maqbul oraliqda joylashadi. Ikkinchidan, nazoratni amalga oshirish uchun soliq organi xodimi nafaqat soliq qonunchiligini, balki tegishli tarmoq iqtisodiyotini ham chuqur bilishi talab etiladi. Uchinchidan, nazorat



natijalari ko'pincha boshqa davlat soliq organining manfaatlariga daxldor bo'ladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hisob-kitoblariga ko'ra, transfert narxlaridan foydalanib foydani ko'chirish natijasida davlatlar har yili korporativ foyda solig'i bo'yicha jami tushumlarning 4-10 foizini yo'qotmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ushbu ko'rsatkich yanada yuqori, chunki ularning soliq organlari zarur ma'lumot va malakaga ega emas.

O'zbekiston Respublikasida transfert narxlarini nazorat qilish institutining shakllanishi Soliq kodeksining yangi tahriri qabul qilinishi bilan bog'liq. Amaldagi qonunchilikda nazorat ostidagi bitimlar doirasi, taqqoslanuvchanlik mezonlari va hujjatlashtirish talablari belgilangan. Biroq nazorat mexanizmining amaliy jihatlari, xususan risk-tahlil tizimi va tekshiruv ob'ektlarini tanlash metodikasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu maqolaning maqsadi mavjud nazorat mexanizmini tahlil qilish va uni takomillashtirish yo'nalishlarini asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Transfert narxni belgilashda ilmiy tadqiqotlar rivojlangan mamlakatlarda tadqiqot yo'nalishini sifatida o'rganilib kelinmoqda. Xasanov (2003) fikriga ko'ra transfert baho ciyosati masalasi bo'yicha moliyachi va marketologlar o'rtasida uni shakllantirishga nisbatan ikki muqobil yondashuv – xarajatlar va qiymat yondashuvlari sohasida bahs-munozara kelib chiqadi deb ta'kidlagan. Transfert baholar to'g'risida mulohaza yuritishda uning bozor baholari bilan farqli jihatlarga e'tibor qaratish lozim. Amaldagi Soliq kodeksining «Bozor narxlari to'g'risidagi umumiy qoidalar» moddasida bitimlarning narxlari, ushbu bitimlar taraflarining daromadlari va xarajatlari bozor narxlarini sifatida tan olinishi uchun quyidagi talablar bajarilishi ta'kidlangan: mustaqil shaxslar o'rtasidagi bitimlar, birja savdolarining natijalariga ko'ra tuzilgan bitimlardagi shartnomaviy narxlar bandi yoki narxlarini kelishish bayonnomasi, soliq to'lovchi soliq (zarar) summalariga mustaqil tuzatish kiritishni amalga oshirmagan bo'lsa va qonunchilikda ko'rsatilgan boshqa holatlarda bozor narxi deb topiladi. Soya-Serko (2020) transfert baholarni ustidan o'rnatilgan soliq nazoratiga ishora qilib, ularni iqtisodiy adabiyotlarda shubhali yoki g'ayrioddiy baho deb qaralayotganini e'tirof etadi. Uning fikricha, transfert bahoga berilgan ta'rif o'rinli bo'lib, bu holat transfert baholarning tijorat maqsadlariga erishish uchun bozordan tashqarida tomonlarning kelishuviga muvofiq aniqlanishi hamda aynan soliq yukini pasaytirish maqsadida qo'llanilishi bilan izohlanadi.

Avrova (2007) ta'kidlashicha boshqaruv hisobi – bu boshqarishning rejalashtirish, tartibga solish, tashkillashtirish va rag'batlantirish kabi funksiyalari bilan bir qatorda bo'lgan asosiy funksiyasidir. Bu shuni anglatadiki, boshqaruvni takomillashtirish, bozor mexanizmini yaratish buxgalteriya hisobi tizimini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Bogatin (2007) boshqaruv hisobini ishlab chiqarishni boshqarishning bir qismi sifatida tavsiflab, u korxonani boshqarishda kompleks ma'lumotlar bilan ta'minlashni amalga oshirish boshqa turdagi xizmatlar

bilan birgalikda korxonaning normal faoliyat yuritish jarayoniga zarur bo'lgan infratuzilmasi bo'lib hisoblanadi.

Druri (2003) boshqaruv hisobini menejerlarga tashkilot ishlash ko'rsatkichlarini aniqlash, rejalashtirish, nazorat qilish va baholashda zarur bo'lgan axborotni yetkazib berishda ko'radi. U o'z ishlarida boshqaruv hisobining quyidagi pozitsiyalariga e'tibor qaratadi;

- boshqaruv hisobining maqsadi;
- hisob axboroti foydalanuvchilari;
- boshqaruv va moliyaviy hisob tizimlarining qiyosiy xususiyatlari;
- qaror qabul qilish jarayoni; - transfert bahoni shakllantirish;
- boshqaruv jarayoni;
- boshqaruv jarayonida buxgalter-tahlilchilarning roli.

Popova (2014) soliq potensialini baholashning yagona metodikasini ishlab chiqishda quyidagilar bilan bog'liq bo'lgan ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlari qabul qilish zarurligini ko'rsatib o'tgan: donor hududlar va dotatsion hududlar o'rtasida hududlararo transfertlar taqsimlanishi; hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasining ishlab chiqilishi; amaldagi soliq tizimining miqdoriy baholanishi va uni yanada rivojlantirish yo'llari mavjudligi; hududlar darajasida tarmoqlar kesimi, shuningdek, soliq potentsiali dinamikasining shakllanish pozitsiyasi bo'yicha taqqoslashdan foydalanish imkoniyatlari; soliq raqobati pozitsiyasidan hududlarni baholash imkoniyatini beruvchi soliq potentsialini davlatlararo taqqoslanishi.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv asos qilib olindi. Transfert narxlarini nazorat qilish yaxlit tizim sifatida qaralib, uning tarkibiy elementlari va ular o'rtasidagi bog'liqliklar aniqlandi. Qiyosiy-huquqiy tahlil usuli yordamida O'zbekiston, Qozog'iston, Rossiya va OECD a'zo davlatlari qonunchiligidagi nazorat normalari solishtirildi.

Statistik tahlil usuli 2020-2024-yillar davomidagi nazorat tadbirlari natijalarini o'rganishda qo'llanildi. Guruhlash va o'rtacha kattaliklar usuli yordamida tekshiruvlar samaradorligi tarmoqlar kesimida baholandi. Grafik usul aniqlangan tendensiyalarni ko'rgazmali ifodalash uchun ishlatildi.

O'tkazilgan tahlil transfert narxlarini nazorat qilish mexanizmi beshta o'zaro bog'liq elementdan tashkil topishini ko'rsatdi. Birinchi element huquqiy baza bo'lib, u nazorat ostidagi bitimlar doirasini, taqqoslanuvchanlik mezonlarini va soliq bazasini tuzatish tartibini belgilaydi. Ikkinchi element axborot ta'minoti bo'lib, unga soliq to'lovchi taqdim etadigan hujjatlar hamda soliq organi foydalanadigan tashqi ma'lumotlar bazasi kiradi.

Uchinchi element risk-tahlil tizimi hisoblanadi. Uning vazifasi mavjud bitimlar massivi ichidan eng yuqori soliq riski mavjud bo'lganlarini ajratib olishdan iborat. To'rtinchi element tekshiruv tartib-taomili bo'lib, u tahlil o'tkazish, isbot yig'ish va qaror qabul qilish jarayonlarini qamrab oladi. Beshinchi element nizolarni hal etish mexanizmi bo'lib, unga ma'muriy shikoyat, sud



tartibi hamda xalqaro darajadagi o'zaro kelishuv tartib-taomili kiradi.

Ushbu elementlardan biri yetarlicha rivojlanmagan bo'lsa, butun tizim samaradorligi

pasayadi. Masalan, mukammal huquqiy baza mavjud bo'lgan taqdirda ham axborot ta'minoti zaif bo'lsa, soliq organi o'z pozitsiyasini isbotlay olmaydi.

1-jadval

Nazorat ostidagi bitimlarni aniqlash mezonlarining qiyosiy tahlili

Mezon	O'zbekiston	Qozog'iston	OECD tavsiyasi
Ishtirok ulushi bo'yicha bog'liqlik	20 % va yuqori	20 % va yuqori	25 % va yuqori
Bitim summasi chegarasi	Belgilangan	Belgilangan	Milliy ixtiyorda
Tashqi savdo bitimlari	Qamrab olingan	Qamrab olingan	Qamrab olingan
Imtiyozli yurisdiksiyalar	Qamrab olingan	Qamrab olingan	Tavsiya etiladi
Ichki bitimlar	Qisman	Qisman	Milliy ixtiyorda

Manba: milliy qonunchilik hujjatlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, mamlakatimiz qonunchiligidagi mezonlar mintaqadagi qo'shni davlatlar bilan asosan uyg'unlashgan. Bu integratsiya jarayonlari nuqtai nazaridan ijobiy holat bo'lib, transchegaraviy bitimlarni nazorat qilishda soliq organlarining hamkorligini osonlashtiradi.

Soliq organi resurslari cheklangan bo'lgani sababli barcha nazorat ostidagi bitimlarni chuqur tekshirish imkonsiz. Shu bois zamonaviy soliq

ma'muriyatchiligida risklarga asoslangan yondashuv qo'llaniladi. Uning mohiyati eng yuqori soliq riskiga ega bo'lgan soliq to'lovchilarni maqsadli tanlab olishdan iborat.

Muallif tomonidan mamlakatimiz sharoitiga moslashtirilgan olti mezonli risk-tahlil modeli taklif etilmoqda. Har bir mezon bo'yicha soliq to'lovchiga ball beriladi va yig'ilgan umumiy ball asosida risk darajasi aniqlanadi

2-jadval

Risk mezonlari va ularning og'irlik koeffitsientlari

Risk mezonlari	Og'irlik, %	Baholash oralig'i
Imtiyozli yurisdiksiya bilan bitim	25	0-10 ball
Tarmoq rentabelligidan chetlanish	20	0-10 ball
Zarar bilan ishlashning davomiyligi	20	0-10 ball
Nomoddiy aktivlar bo'yicha to'lovlar	15	0-10 ball
Hujjatlar to'liqligi	12	0-10 ball
Bitim hajmining keskin o'zgarishi	8	0-10 ball

Manba: muallif ishlanmasi.

Taklif etilayotgan modelda eng katta og'irlik imtiyozli soliq yurisdiksiyalari bilan tuzilgan bitimlarga

berilgan. Bu tanlov xalqaro amaliyot bilan uyg'un, chunki aynan bunday bitimlar orqali foydani ko'chirish eng ko'p

<https://globalsciencehub.uz/index.php/IE/uz>



uchraydi. Tarmoq o'rtacha rentabelligidan sezilarli chetlanish esa transfert narxning erkin bozor sharoitiga mos kelmasligining bilvosita belgisi hisoblanadi.

Modelni sinovdan o'tkazish maqsadida tanlangan 42 ta korxona ma'lumotlari asosida hisob-kitob amalga oshirildi. Natijada korxonalarning 21,4 foizi yuqori risk guruhiga, 38,1 foizi o'rta risk guruhiga, qolgan 40,5 foizi esa past risk guruhiga kiritildi. Yuqori risk guruhiga kirgan korxonalarda oldin o'tkazilgan tekshiruvlar natijalari bilan solishtirish modelning bashorat aniqligi 76 foizni tashkil etishini ko'rsatdi.

BEPS tashabbusining 13-chorasi doirasida transfert narxlar bo'yicha hujjatlashtirishning uch bosqichli tizimi ishlab chiqilgan. Birinchi bosqich global hujjat bo'lib, unda butun korporativ guruhning tuzilishi, faoliyat turlari, nomoddiy aktivlari va moliyalashtirish siyosati bayon etiladi. Ikkinchi bosqich milliy hujjat

bo'lib, u aniq soliq to'lovchining nazorat ostidagi bitimlari, funksional tahlili va tanlangan usul asoslanishini qamrab oladi.

Uchinchi bosqich mamlakatlar bo'yicha hisobot bo'lib, unda guruhning har bir davlatdagi daromadi, foydasi, to'langan solig'i, xodimlar soni va aktivlari qiymati ko'rsatiladi. Ushbu hisobot soliq organlariga guruh miqyosidagi foyda taqsimotini yaxlit ko'rish imkonini beradi va risk-tahlil uchun qimmatli manba hisoblanadi.

Mamlakatimizda ushbu tizimning birinchi va ikkinchi bosqichlari qonunchilikda mustahkamlangan. Uchinchi bosqich, ya'ni mamlakatlar bo'yicha hisobotni avtomatik almashish mexanizmi esa hali to'liq ishga tushirilmagan. Ushbu mexanizmni joriy etish nazorat samaradorligini sezilarli oshirish imkonini beradi.

3-jadval

Hujjatlashtirish holati va tekshiruv natijalari o'rtasidagi bog'liqlik

Hujjatlar holati	Korxonalar ulushi, %	Qo'shimcha hisoblash ehtimoli, %	O'rtacha summa, mlrd so'm
To'liq va o'z vaqtida	31,0	18,4	0,42
To'liq, ammo kechiktirilgan	26,2	44,7	1,18
Qisman mavjud	28,6	71,2	2,64
Mavjud emas	14,2	93,5	4,87

Manba: tanlangan korxonalar bo'yicha muallif hisob-kitoblari.

3-jadval ma'lumotlari hujjatlashtirish sifati bilan soliq riski o'rtasida kuchli teskari bog'liqlik mavjudligini ko'rsatmoqda. Hujjatlarni to'liq va o'z vaqtida shakllantirgan korxonalarda qo'shimcha soliq hisoblanishi ehtimoli 18,4 foizni tashkil etsa, hujjatlari umuman mavjud bo'lmagan korxonalarda ushbu ko'rsatkich 93,5 foizga yetadi. O'rtacha qo'shimcha hisoblash summasi esa 11,6 baravar farq qiladi.

Ushbu natija muhim amaliy xulosani beradi: hujjatlashtirish soliq to'lovchi uchun shunchaki ma'muriy yuk emas, balki soliq riskini boshqarishning eng samarali vositasidir. Shu bois soliq organlari hujjatlashtirish madaniyatini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini kuchaytirishi maqsadga muvofiq.

Oldindan narx kelishuvi soliq to'lovchi va soliq organi o'rtasida kelgusi davrlarda qo'llaniladigan transfert narx usuli va uning parametrlari bo'yicha oldindan tuziladigan bitimdir. Ushbu institutning asosiy afzalligi soliq to'lovchi uchun huquqiy aniqlikni ta'minlash va nizolarning oldini olishdan iborat.

Xalqaro amaliyotda oldindan narx kelishuvining bir tomonlama, ikki tomonlama va ko'p tomonlama shakllari qo'llaniladi. Ikki tomonlama kelishuv ikkala davlat soliq organlari ishtirokida tuzilib, u qo'sh soliqqa tortish riskini butunlay bartaraf etadi. Mamlakatimizda hozircha asosan bir tomonlama kelishuvlar amaliyoti shakllanmoqda.

Oldindan narx kelishuvi institutining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: kelishuv tuzish tartib-taomilining nisbatan uzoq davom etishi, soliq to'lovchidan katta hajmdagi axborot talab etilishi hamda ushbu institutning afzalliklari haqida biznes hamjamiyatida yetarli tasavvur mavjud emasligi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, kelishuvlar sonining o'sishi soliq nizolari sonining barqaror kamayishiga olib keladi.

Transfert narxlar bo'yicha nizolarning o'ziga xosligi shundaki, bir davlat soliq organi tomonidan amalga oshirilgan tuzatish avtomatik ravishda boshqa davlatda qo'sh soliqqa tortishga olib keladi. Masalan, agar O'zbekiston soliq organi mahalliy korxonaning eksport narxini oshirib, qo'shimcha soliq hisoblasa, xorijdagi sotib oluvchi korxona o'z davlatida shu summani xarajatga kiritish huquqiga ega bo'lmaydi. Natijada bitta iqtisodiy foyda ikki marta soliqqa tortiladi.

Ushbu muammoni hal etish uchun qo'sh soliqqa tortishni bartaraf etish to'g'risidagi xalqaro shartnomalarda o'zaro kelishuv tartib-taomili nazarda tutilgan. Uning mohiyati ikki davlat vakolatli organlari o'rtasida bevosita muzokaralar olib borish orqali kelishilgan yechimga erishishdan iborat. Mamlakatimiz 50 dan ortiq davlat bilan tegishli shartnomalarni imzolagan bo'lsa-da, ushbu mexanizmdan foydalanish amaliyoti hali keng tarqalmagan.

Transfert narxlar bo'yicha nizolarni hal etish shakllari

Hal etish shakli	O'rtacha muddat	Qo'sh soliqni bartaraf etish	Xarajat darajasi
Ma'muriy shikoyat	1-3 oy	Ta'minlanmaydi	Past
Sud tartibi	6-18 oy	Ta'minlanmaydi	Yuqori
O'zaro kelishuv tartib-taomili	12-24 oy	To'liq ta'minlanadi	O'rtacha
Oldindan narx kelishuvi	9-18 oy	Oldindan bartaraf etiladi	O'rtacha

Manba: xalqaro amaliyot tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.

4-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, milliy darajadagi nizo hal etish shakllari qo'sh soliqqa tortish muammosini yecha olmaydi. Faqat xalqaro mexanizmlar ushbu vazifani bajarish qobiliyatiga ega. Shu bois soliq to'lovchilarni ushbu imkoniyatlar haqida xabardor qilish va tegishli tartib-taomillarni soddalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot transfert narxlarni nazorat qilish mexanizmi mamlakatimizda shakllanish bosqichini bosib o'tayotganini ko'rsatdi. Huquqiy baza asosan xalqaro standartlarga uyg'unlashtirilgan, biroq axborot ta'minoti va risk-tahlil tizimi yetarlicha rivojlanmagan.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Soliq organlarida transfert narxlar bo'yicha ixtisoslashtirilgan tarkibiy bo'linma tashkil etish va uni tarmoq mutaxassislari bilan to'ldirish;

Taklif etilgan olti mezonli risk-tahlil modelini avtomatlashtirilgan axborot tizimiga integratsiya qilish;

Mamlakatlar bo'yicha hisobotlarni avtomatik almashish mexanizmini to'liq ishga tushirish;

Ikki tomonlama oldindan narx kelishuvi amaliyotini yo'lga qo'yish uchun sherik davlatlar bilan tegishli tartib-taomillarni ishlab chiqish;

O'zaro kelishuv tartib-taomilini ko'rib chiqish muddatlarini qonunchilikda aniqlash;

Soliq to'lovchilar uchun hujjatlashtirish bo'yicha namunaviy shakl va uslubiy qo'llanma tayyorlash.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi nazorat tizimi samaradorligini oshirish bilan birga soliq to'lovchilar uchun ma'muriy yukni oqilona darajada saqlab qolish imkonini beradi. Bu esa investitsiya muhitining jozibadorligini ta'minlashning muhim shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. - Toshkent: Adolat, 2026.

2. "Soliq auditini o'tkazish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi hujjat. Lex.uz milliy qonunchilik bazasi.

3. "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi normativ hujjat. Lex.uz milliy qonunchilik bazasi.

4. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. "2024-yilda soliq organlarining faoliyatini raqamlashtirish davom ettirildi" axboroti.

5. Soliq ma'murchiligi va raqamli iqtisodiyotga oid ilmiy-amaliy manbalar.

6. OECD Transfer Pricing Guidelines for Multinational Enterprises and Tax Administrations. - Paris: OECD Publishing, 2022.

7. Hirshleifer J. On the Economics of Transfer Pricing // The Journal of Business, 1956, Vol. 29, No. 3.

8. United Nations Practical Manual on Transfer Pricing for Developing Countries. - New York: UN, 2021.

9. Eccles R. The Transfer Pricing Problem: A Theory for Practice. - Lexington Books, 1985.

10. OECD/G20 Base Erosion and Profit Shifting Project. Action 13 Final Report. - Paris: OECD Publishing, 2015.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Kurbonov Baxodir Ergashevich Qo'qon universiteti Andijon filiali "Iqtisodiyot va moliya" kafedrasini mudiri, dotsent, (PhD) / Курбанов Баходир Эргашевич Заведующий кафедрой «Экономика и финансы» Андижанского филиала Кокандского университета, доцент, PhD. / Kurbonov Baxodir Ergashevich Andijan Branch of Kokand University Head of the Department of Economics and Finance, Associate Professor, PhD

E-mail: kurbanoff750909@gmail.com



KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING HUDUDIIY TAHLILI ANDIJON VILOYATI MISOLIDA

Omonqulov Bekzod Tursunali o'g'li

ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА НА ПРИМЕРЕ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Омонкулов Бекзод Турсунали угли

REGIONAL ANALYSIS OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT: THE CASE OF ANDIJAN REGION

Omonqulov Bekzod Tursunali o'g'li

Annotatsiya. Ushbu maqolada Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish holati hududiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda kichik biznesning viloyat yalpi hududiy mahsulotidagi ulushi, faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining 2021–2025 yillardagi dinamikasi hamda ushbu ko'rsatkichlarning o'zgarish tendensiyalari o'rganilgan. Tahlil natijalari asosida kichik biznesning hududiy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati baholangan, 2022–2023 yillarda kuzatilgan pasayish hamda 2024–2025 yillardagi tiklanish jarayonlarining asosiy jihatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, kichik biznesni innovatsion faoliyat, sanoat kooperatsiyasi, xizmatlar sohasi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida rivojlantirish hamda hududlar kesimida uning iqtisodiy faolligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, hududiy iqtisodiyot, Andijon viloyati, yalpi hududiy mahsulot, kichik korxonalar, mikrofirmalar, tadbirkorlik faoliyati, iqtisodiy rivojlanish, innovatsion rivojlanish, sanoat kooperatsiyasi, eksport, hududiy tahlil.

Аннотация: В статье проведен территориальный анализ состояния развития малого бизнеса и частного предпринимательства в Андижанской области. В исследовании изучены доля малого бизнеса в валовом региональном продукте области, динамика количества действующих малых предприятий и микрофирм в 2021–2025 годах, а также тенденции изменения данных показателей. На основе результатов анализа оценены роль и значение малого бизнеса в региональной экономике, рассмотрены основные аспекты снижения показателей, наблюдавшегося в 2022–2023 годах, а также процессов восстановления в 2024–2025 годах. Кроме того, разработаны предложения и рекомендации по развитию малого бизнеса в направлениях инновационной деятельности, промышленной кооперации, сферы услуг и производства экспортно ориентированной продукции, а также по повышению его экономической активности в разрезе территорий.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, региональная экономика, Андижанская область, валовой региональный продукт, малые предприятия, микрофирмы, предпринимательская деятельность, экономическое развитие, инновационное развитие, промышленная кооперация, экспорт, территориальный анализ.

Abstract: This article presents a regional analysis of the development of small businesses and private entrepreneurship in the Andijan Region. The study examines the share of small businesses in the region's gross regional product, the dynamics of the number of operating small enterprises and microfirms during 2021–2025, and the trends in changes in these indicators. Based on the results of the analysis, the role and importance of small businesses in the regional economy are assessed, with particular attention paid to the main aspects of the decline observed in 2022–2023 and the recovery processes recorded in 2024–2025. In addition, proposals and recommendations are developed for promoting small business development in the areas of innovation, industrial cooperation, services, and the production of export-oriented products, as well as for increasing its economic activity across different territories of the region.

Keywords: small business, private entrepreneurship, regional economy, Andijan Region, gross regional product, small enterprises, microfirms, entrepreneurial activity, economic development, innovative development, industrial cooperation, export, regional analysis.

KIRISH

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, mahalliy resurslardan samarali foydalanish, raqobat

muhitini shakllantirish hamda hududlarda innovatsion faollikni oshirishda muhim o'rin tutadi. Bozor munosabatlari chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda kichik biznes subyektlari nafaqat ishlab chiqarish va



xizmat ko'rsatish hajmini oshirish, balki yangi mahsulotlar yaratish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, eksportga yo'naltirilgan faoliyatni kengaytirish va yuqori qo'shilgan qiymat yaratishda ham muhim iqtisodiy kuch sifatida namoyon bo'lmoqda.

Andijon viloyatida kichik biznesning rivojlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Viloyat aholisining zich joylashuvi, mehnat resurslarining yetarliligi, savdo va xizmat ko'rsatish an'analari shakllanganligi, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish salohiyatining mavjudligi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun qulay iqtisodiy muhit yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan bo'lib, tadqiqotchilar tomonidan uning iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash, raqobat muhitini shakllantirish va hududiy rivojlanishdagi o'rni turli nazariy va amaliy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni shartli ravishda kichik biznesning iqtisodiy o'sishdagi roli, hududiy rivojlanish omillari, tadbirkorlik muhitini shakllantirish hamda innovatsion rivojlanish masalalariga ajratish mumkin.

Kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni o'rganilgan xorijiy olimlar, xususan, P. Drucker, J. Schumpeter va D. Birch tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy o'sish va yangi ish o'rinlarini yaratishdagi ahamiyatini asoslab bergan. J. Schumpeter tadbirkorni innovatsiyalarni joriy etuvchi va iqtisodiy rivojlanishning muhim harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholaydi. Uning yondashuvida yangi mahsulot, yangi texnologiya, yangi bozor yoki ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi usullarini joriy etish iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

P. Drucker tadbirkorlikni mavjud resurslardan yangi imkoniyatlar yaratishga yo'naltirilgan faoliyat sifatida ko'rib, innovatsiyalarni tadbirkorlik faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuv kichik biznesni faqat mahsulot ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi subyekt sifatida emas, balki hududiy iqtisodiyotda innovatsion jarayonlarni jadallashtiruvchi omil sifatida baholash imkonini beradi.

Hududiy rivojlanish nuqtayi nazaridan M. Porterning raqobatbardoshlik nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Uning tadqiqotlarida hudud va mamlakatlarning raqobat ustunliklarini shakllantirishda mahalliy resurslar, infratuzilma, mehnat resurslari, talab va korxonalar o'rtasidagi aloqalarning muhimligi ta'kidlanadi. Mazkur yondashuv Andijon viloyatida kichik biznes rivojlanishining hududiy omillarini baholashda metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kichik va o'rta biznesning hududiy rivojlanishdagi ahamiyati xalqaro tashkilotlar tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. Jahon banki, OECD va boshqa xalqaro tashkilotlarning tahlillarida kichik biznes subyektlarining bandlikni ta'minlash, daromadlarni shakllantirish, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va iqtisodiy faollikni oshirishdagi hissassi qayd etiladi. Ayniqsa, kichik biznes subyektlarining

moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati, raqamlashtirish darajasi, innovatsion salohiyati va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari ularning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillar sifatida ko'rsatiladi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning institutsional, moliyaviy va hududiy jihatlariga katta e'tibor qaratilgan. Mazkur tadqiqotlarda tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, kredit va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, soliq imtiyozlari, infratuzilmani rivojlantirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish masalalari muhim yo'nalish sifatida tadqiq etilgan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes rivojlanishini baholashda umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda hududlar o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash, kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining dinamikasini baholash, ularning yalpi hududiy mahsulotni shakllantirishdagi hissasini aniqlash va hududiy rivojlanish omillarini kompleks tahlil qilish zarur. Ayniqsa, Andijon viloyati misolida kichik biznesning rivojlanish dinamikasi, hududiy iqtisodiyotdagi ulushi va so'nggi yillardagi o'zgarishlarini tizimli ravishda o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda kichik biznes rivojlanishining hududiy xususiyatlarini baholash uchun YAHMdagi ulush, faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni hamda ularning o'sish sur'ati kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkichlarning vaqt bo'yicha o'zgarishini tahlil qilish Andijon viloyatida kichik biznes rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aniqlash va uning hududiy iqtisodiyotdagi rolini baholash imkonini beradi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish holatini baholashda statistik tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik tahlil va guruhlash usullaridan foydalanildi. Statistik tahlil orqali kichik biznesning YAHMdagi ulushi hamda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni bo'yicha ma'lumotlar o'rganildi. Dinamik tahlil yordamida 2018–2025 yillardagi ko'rsatkichlarning o'zgarish tendensiyalari va o'sish sur'atlari aniqlandi. Qiyosiy tahlil asosida turli yillardagi ko'rsatkichlar o'zaro solishtirilib, kichik biznes rivojlanishidagi ijobiy va salbiy o'zgarishlar baholandi. Tadqiqotda umumlantirish va mantiqiy xulosa chiqarish usullaridan foydalanib, hududda kichik biznesni yanada rivojlantirish bo'yicha tegishli xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mustaqillik yillarida viloyatda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlar izchil amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu maqsadli davlat dasturlarining samarasi bugungi kunda viloyat yalpi hududiy mahsulotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 70,1 foizga yetganligida o'z aksini topadi. Ushbu ko'rsatkich 2022 yilda 69,8 foizni, 2023 yilda esa 68,6 foizni tashkil etganligini aytib



o'tish maqsadga muvofiq. Tahlil etilayotgan davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida kichik biznes va

xususiy tadbirkorlikning ulushi 70,1 foizga ortdi (1-jadval).

1-jadval

Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan foizda)[1]

Yillar	Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi, %
2018	75,4
2019	72,5
2020	73,0
2021	74,6
2022	69,8
2023	68,6
2024	70,1
2025	70,1

Viloyat yalpi hududiy mahsulotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2018–2025 yillar davomida yuqori darajada saqlangan. 2018 yilda ushbu ko'rsatkich 75,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilda 70,1 foizga teng bo'lgan. Bu davrda ko'rsatkich 5,3 foiz punktga pasaygan. Yillar kesimida qaralganda, 2018–2021 yillarda kichik biznesning YAHMdagi ulushi 72–75 foiz atrofida bo'lgan. 2022–2023 yillarda esa ma'lum pasayish kuzatilib, 2023 yilda eng past ko'rsatkich — 68,6 foiz qayd etilgan. 2024–2025 yillarda esa ulush 70,1 foiz darajasida barqarorlashgan.

Ushbu holat Andijon viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hali ham muhim o'rin tutayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ulushning nisbatan pasayishi kichik biznesni innovatsion faoliyat, sanoat kooperatsiyasi, xizmatlar sohasi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida yanada qo'llab-quvvatlash zarurligini anglatadi. Shu bilan birga, hududlarda kichik biznes subyektlari soni va ularning

iqtisodiy faolligi bir xil emas. Bu esa kichik biznesni rivojlantirishda hududiy xususiyatlarni chuqur tahlil qilish, mavjud farqlarni aniqlash va innovatsion rivojlanish imkoniyatlarini tumanlar kesimida baholash zarurligini ko'rsatadi.

Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2026 yil 1 yanvar holatiga viloyatda faoliyat olib borayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 21,5 mingtani tashkil etgan. 2021–2022 yillarda mazkur ko'rsatkich o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lsa, 2023–2024 yillarda keskin pasayish kuzatilgan, 2025 yil yakuniga kelib esa ma'lum darajada tiklanish qayd etilgan. Xususan, faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 2024 yilda 20,0 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2025 yil yakunida 21,5 mingtaga yetgan. Bu 2025 yilda kichik biznes subyektlari sonida tiklanish jarayoni boshlanganini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval

Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi[2]

Yillar	Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, ming birlikda	O'sish sur'ati, %
2021	35,0	186,0
2022	39,0	111,4
2023	24,4	62,6
2024	20,0	82,0
2025	21,5	107,5

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Andijon viloyatida kichik korxona va mikrofirmalar soni 2021–2022 yillarda yuqori darajada bo'lgan. Biroq 2023 yildan boshlab ushbu ko'rsatkichda pasayish kuzatilgan. Bu holatni davlat organlari ma'lumotlar bazalarini bixillashtirish, faoliyat yuritmayotgan subyektlarni statistik hisobdan chiqarish, bozorda raqobatning kuchayishi, moliyaviy resurslarga kirishdagi qiyinchiliklar va ayrim tadbirkorlik subyektlarining barqaror faoliyat yurita olmasligi bilan izohlash mumkin. Shu bilan birga, 2025 yil yakunida kichik korxona va mikrofirmalar soni 21,5

mingtaga yetgani viloyatda tadbirkorlik muhitida muayyan tiklanish mavjudligini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, kichik biznes subyektlari Andijon shahrida eng ko'p jamlangan. 2026 yil 1 yanvar holatiga Andijon shahrida 6052 ta kichik korxona va mikrofirma faoliyat yuritgan. Keyingi o'rinlarda Andijon tumani – 1885 ta, Asaka tumani – 1663 ta, Shahrixon tumani – 1463 ta, Baliqchi tumani – 1232 ta, Oltinko'l tumani – 1144 ta va Izboskan tumani – 1102 ta subyekt bilan ajralib turadi (3-jadval).

**Andijon viloyati hududlarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni [3]
(1-yanvar holati)**

Hududlar	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y	2023-y	2024-y	2025-y	2026-y	2026/2019 (% da)
Andijon shahri	8139	9678	10526	11445	11865	6635	5492	6052	110,2
Andijon tumani	1549	1694	2577	3534	3718	1989	1672	1885	112,7
Asaka tumani	2177	2475	2682	2907	2877	2114	1666	1663	99,8
Shahrixon tumani	1435	1786	2144	2533	2619	1697	1349	1463	108,5
Baliqchi tumani	1128	1131	1509	1918	2227	1311	1207	1232	102,1
Oltinko'l tumani	1128	1113	1467	1850	1864	1238	1042	1144	109,8
Izboskan tumani	925	1053	1408	1793	1693	1180	938	1102	117,5
Qo'rg'ontepa tumani	993	1192	1536	1910	1852	1099	988	996	100,8
Marhamat tumani	1015	1018	1215	1429	1598	1197	911	973	106,8
Xo'jaobod tumani	744	918	1402	1928	1905	1232	850	930	109,4
Paxtaobod tumani	699	919	1203	1512	1479	1032	759	842	110,9
Jalaquduq tumani	790	793	1161	1560	1691	1053	869	832	95,7
Bo'ston tumani	541	512	823	1161	1137	796	672	749	111,5
Ulug'nor tumani	429	367	567	783	796	611	631	655	103,8
Buloqboshi tumani	541	649	847	1062	995	721	585	594	101,5
Xonobod shahri	338	509	616	732	722	438	336	391	116,4

3-jadval ma'lumotlari shuni izohlaydiki, viloyatda kichik biznes subyektlarining hududiy joylashuvi nomutanosib bo'lib, kichik korxona va mikrofirmalarning eng katta qismi Andijon shahrida to'plangan, bu viloyat markazining bozor infratuzilmasi, moliyaviy xizmatlar, transport-kommunikatsiya imkoniyatlari, iste'mol bozori va kadrlar salohiyati yuqori ekani bilan bog'liq. Andijon tumani, Asaka, Shahrixon va Baliqchi tumanlari ham kichik biznes faolligi yuqori hududlar qatoriga kiradi.

Ayni paytda Xonobod shahri, Buloqboshi, Ulug'nor va Bo'ston tumanlarida kichik biznes subyektlari soni nisbatan kamligicha qolmoqda. Lekin ushbu hududlarda ham 2025 yil davomida o'sish kuzatilgan. Masalan, Xonobod shahrida kichik biznes subyektlari soni 336 tadan 391 taga, Bo'ston tumanida 672 tadan 749 taga, Paxtaobod tumanida 759 tadan 842 taga oshgan. Bu holat kichik biznesni hududlar kesimida maqsadli qo'llab-quvvatlash natijasida nisbatan past faollikka ega hududlarda ham o'sish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hududiy iqtisodiyotning

<https://globalsciencehub.uz/index.php/IE/uz>

muhim tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatdi. 2018–2025 yillarda kichik biznesning YAHMdagi ulushi yuqori darajada saqlanib, 2025 yilda 70,1 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2021–2024 yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonida sezilarli pasayish kuzatilgan bo'lsa, 2025 yilda mazkur ko'rsatkich 21,5 mingtaga yetib, tiklanish tendensiyasi shakllangan. Ushbu holat kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. Kelgusida hududlar kesimida kichik biznes rivojlanishidagi tafovutlarni aniqlash, tadbirkorlik infratuzilmasini takomillashtirish hamda moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish Andijon viloyatida kichik biznesning barqaror va innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest, and the Business Cycle. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.



2. Drucker P.F. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. – New York: Harper & Row, 1985.
3. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
4. Birch D.L. The Job Generation Process. – Cambridge, MA: MIT Program on Neighborhood and Regional Change, 1979.
5. OECD. The Missing Entrepreneurs 2023: Policies for Inclusive Entrepreneurship and Self-Employment. – Paris: OECD Publishing, 2023.
6. World Bank. Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance. – Washington, DC: World Bank.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar. – Toshkent.
8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi. – Toshkent.
9. Andijon viloyati statistika boshqarmasi. Andijon viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati va kichik

biznes rivojlanishi bo'yicha statistik ma'lumotlar. – Andijon.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida. – Toshkent.

11. O'zbekiston Respublikasi. Tadbirkorlik kodeksi. – Toshkent.

12. Абдуллаев А.М., Каримов И.А. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni rivojlantirishning xududiy jihatlari. – Toshkent.

Muallif(lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Omonqulov Bekzod Tursunali o'g'li Qo'qon universiteti mustaqil tadqiqotchisi / Омонкулов Бекзод Турсунали угли Независимый исследователь Кокандского университета / Omonqulov Bekzod Tursunali o'g'li Independent Researcher at Kokand University

E-mail: bomonqulov1994@gmail.com



OLIIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDAGI RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI

Xalilova Maftuna Raxmon qizi

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНЦИИ МЕЖДУ ВЫСШИМИ УЧЕБНЫМИ ЗАВЕДЕНИЯМИ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО ПРИМЕНЕНИЯ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Халилова Мафтуна Рахмановна

FOREIGN EXPERIENCE IN DEVELOPING COMPETITION BETWEEN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AND THE POSSIBILITIES OF ITS APPLICATION IN THE CONDITIONS OF UZBEKISTAN

Khalilova Maftuna Rakhmon qizi

Annotatsiya. Ushbu maqola (tadqiqot ishi) oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobatni rivojlantirishning xorijiy tajribasini o'rganish hamda uni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim tizimida raqobat muhitini shakllantirish ta'lim sifatini oshirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va xalqaro reytinglarda mavqeni mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi.

Maqolada AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobatni tartibga solish tajribasi, moliyalashtirish mexanizmlari, akkreditatsiya tizimlari va reyting ko'rsatkichlaridan foydalanish amaliyoti ko'rib chiqilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi, professor-o'qituvchilar tarkibini rag'batlantirish tizimi, talabalarni jalb qilish strategiyalari va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish borasidagi xorijiy tajriba tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh muhitni yaratish, davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobatni rivojlantirish, moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda milliy reyting tizimini joriy etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. oliy ta'lim, raqobat muhiti, xorijiy tajriba, akkreditatsiya, reyting tizimi, moliyalashtirish, ta'lim sifati, O'zbekiston.

Аннотация. Данная статья (научная работа) посвящена изучению зарубежного опыта развития конкуренции между высшими учебными заведениями и анализу возможностей его применения в условиях Узбекистана. В современных условиях формирование конкурентной среды в системе высшего образования является важным фактором повышения качества образования, внедрения инновационных подходов и укрепления позиций в международных рейтингах.

В статье рассматривается опыт регулирования конкуренции между высшими учебными заведениями в развитых странах, таких как США, Великобритания, Германия, Южная Корея, механизмы финансирования, системы аккредитации и практика использования рейтинговых показателей. Также анализируется зарубежный опыт финансовой независимости высших учебных заведений, системы мотивации преподавательского состава, стратегий привлечения студентов и развития научно-исследовательской деятельности.

На основе результатов исследования разработаны научно обоснованные предложения по созданию конкурентной среды в системе высшего образования Узбекистана, развитию здоровой конкуренции между государственными и негосударственными высшими учебными заведениями, совершенствованию системы финансирования и внедрению национальной рейтинговой системы.

Ключевые слова. Высшее образование, конкурентная среда, зарубежный опыт, аккредитация, рейтинговая система, финансирование, качество образования, Узбекистан.



Abstract. This article is devoted to the study of foreign experience in developing competition between higher education institutions and the analysis of the possibilities of its application in the conditions of Uzbekistan. In modern conditions, the formation of a competitive environment in the higher education system is an important factor in improving the quality of education, introducing innovative approaches and strengthening positions in international rankings.

The article examines the experience of regulating competition between higher education institutions in developed countries such as the USA, Great Britain, Germany, South Korea, financing mechanisms, accreditation systems and the practice of using rating indicators. It also analyzes foreign experience in the financial independence of higher education institutions, the system of motivating the teaching staff, student attraction strategies and the development of scientific and research activities.

Based on the results of the research, scientifically based proposals were developed to create a competitive environment in the higher education system of Uzbekistan, develop healthy competition between state and non-state higher education institutions, improve the financing system, and introduce a national rating system.

Keywords. higher education, competitive environment, foreign experience, accreditation, rating system, financing, quality of education, Uzbekistan.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda oliy ta'lim tizimi mamlakatning innovatsion rivojlanishi, iqtisodiy raqobatbardoshligi va inson kapitalini shakllantirishning asosiy omili sifatida qaralmoqda. Globallashuv jarayonlari, ta'lim xizmatlari bozorining kengayishi hamda talabalar va ilmiy kadrlar uchun xalqaro raqobatning kuchayishi oliy ta'lim muassasalarini doimiy ravishda faoliyat sifatini oshirishga undamoqda.

Mavzu bo'yicha xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim sohasidagi raqobat muammosi iqtisodchi va ta'limshunos olimlar tomonidan turli jihatdan o'rganilgan. Xususan, universitetlar o'rtasidagi raqobatning moliyalashtirish tizimi bilan bog'liqligi, sifat nazorati institutlarining roli, shuningdek reyting tizimlarining universitetlar faoliyatiga ta'siri bo'yicha bir qator ilmiy ishlar mavjud. Biroq O'zbekiston sharoitida ushbu masalaning kompleks tahlili va xorijiy tajribani moslashtirish bo'yicha aniq mexanizmlar hali yetarlicha ishlab chiqilmagan — bu tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda: oliy ta'lim muassasalari sonining oshishi, xususi oliy ta'lim muassasalarining faoliyat yuritishi, xorijiy universitetlar filiallarining ochilishi va boshqalar. Biroq oliy ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, ularning moliyaviy-akademik mustaqilligini ta'minlash hamda sifat nazorati tizimini takomillashtirish masalalari hali to'liq yechimini topmagan.

Tadqiqotning maqsadi — xorijiy davlatlarning oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobatni rivojlantirish bo'yicha tajribasini tahlil qilish va shu asosda O'zbekiston oliy ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari:

oliy ta'lim sohasidagi raqobatning nazariy-mafhumiy asoslarini yoritish;

rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim tizimidagi raqobat mexanizmlarini qiyosiy tahlil qilish;

O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi mavjud holatni baholash;

xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda oliy ta'lim tizimida raqobatni o'rganish uchun qiyosiy-huquqiy, tizimli va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Xorijiy tajribadagi umumiy tendensiyalarni aniqlash hamda ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirishda induktiv-deduktiv yondashuv qo'llanildi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimining kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda tahdidlarni baholashda SWOT-tahlil elementlaridan foydalanildi. Tadqiqot 2020–2026-yillar oralig'idagi ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarni qamrab oldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlil natijasida oliy ta'lim sohasidagi raqobat besh asosiy yo'nalishda namoyon bo'lishi aniqlandi:

1-jadval

Oliy ta'lim sohasidagi raqobatning nazariy-tarkibiy tahlili natijalari

Raqobat yo'nalishi	Mazmuni
Talabalar uchun raqobat	Sifatli abituriyentlarni jalb qilish
Kadrlar uchun raqobat	Malakali professor-o'qituvchilarni jalb qilish va ushlab qolish
Moliyaviy resurslar uchun raqobat	Davlat granti, investitsiya, homiylik mablag'lari
Ilmiy-tadqiqot salohiyati uchun raqobat	Grantlar, patentlar, xalqaro loyihalar
Nufuz uchun raqobat	Milliy va xalqaro reytinglardagi o'rin

Qiyosiy tahlil natijasida quyidagi jadval shakllantirildi:

Davlat	Asosiy mexanizm	Natija
AQSH	Moliyaviy-akademik avtonomiya, xayriya jamg'armalari (endowment)	Yuqori darajadagi institutsional mustaqillik va raqobat
Buyuk Britaniya	Mustaqil sifat agentligi (QAA), Research Excellence Framework	Natijaga asoslangan moliyalashtirish
Germaniya	"Excellence Initiative" tanlov dasturi	Ilmiy-tadqiqot salohiyatiga asoslangan raqobat
Janubiy Koreya	BK21 davlat dasturi	Xalqaro hamkorlik va ilmiy natijadorlikka asoslangan moliyalashtirish

Tahlil shuni ko'rsatdiki, barcha o'rganilgan davlatlarda raqobatni rivojlantirishning umumiy tamoyillari mavjud: natijaga asoslangan moliyalashtirish,

mustaqil baholash institutlari, universitet avtonomiyasi va ilmiy-tadqiqot faoliyatini alohida rag'batlantirish tizimlari.

Xorijiy mamlakatlarda oliy ta'lim sohasida raqobat ko'rsatkichlari				
Mamlakat	Oliy ta'lim muassasalari soni	Xalqaro reyting (Top-1000)	Talabalar soni (mln)	Xususiy sektor ulushi (%)
 AQSH	4 500+	50	19,5	35
 Buyuk Britaniya	165	8	2,9	40
 Germaniya	423	24	3,4	28
 Singapur	6	11	0,6	52
 Avstraliya	1 100+	36	1,5	37

1-rasm. O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi mavjud holatni baholash natijalari

O'zbekiston oliy ta'lim tizimini xorijiy tajriba bilan qiyoslash natijasida quyidagi muammoli jihatlar aniqlandi:

- davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida teng sharoitlarning to'liq ta'minlanmaganligi;
- milliy reyting tizimining zaif rivojlanganligi va uning moliyalashtirish bilan bog'liq emasligi;
- mustaqil akkreditatsiya institutlarining yetarli darajada shakllanmaganligi;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish mexanizmlarining cheklanganligi;
- hududiy oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik salohiyati bo'yicha poytaxt muassasalaridan orqada qolishi.

Olingan natijalar oliy ta'lim sohasidagi raqobatning ko'p qirrali hodisa ekanligini tasdiqlaydi. Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatdiki, raqobatni davlat tomonidan to'g'ri tartibga solish — uni bostirish emas, balki uni sifat va natijadorlik yo'nalishiga qaratish muhim ahamiyatga ega. Bu, o'z navbatida, tadqiqotning boshida qo'yilgan gipotezani tasdiqlaydi: natijaga asoslangan moliyalashtirish va mustaqil sifat nazorati institutlari raqobat muhitini sog'lom yo'nalishga burish uchun samarali vositadir.

Shu bilan birga, xorijiy tajribani mexanik ravishda ko'chirish maqsadga muvofiq emasligini ta'kidlash lozim. Masalan, AQSHdagi xayriya jamg'armalari tizimi uzoq tarixiy an'analarga asoslangan bo'lib, uni O'zbekiston sharoitida joriy etish bosqichma-bosqich, soliq va huquqiy rag'batlantirish choralari orqali amalga oshirilishi kerak. Germaniya va Janubiy Koreya tajribasi esa — tanlov asosidagi qo'shimcha moliyalashtirish dasturlari — O'zbekiston sharoitiga nisbatan tezroq va kamroq resurs bilan moslashtirilishi mumkin bo'lgan modeldir.

Olingan natijalar asosida quyidagi amaliy takliflar shakllantirildi:

1. Natijaga asoslangan moliyalashtirish tizimini joriy etish — davlat grant o'rinlarini taqsimlashda bitiruvchilar bandligi, ilmiy nashrlar soni va talabalar mamnunligi ko'rsatkichlarini hisobga olish.

2. Mustaqil milliy akkreditatsiya va reyting tizimini rivojlantirish — uning natijalarini moliyalashtirish va qabul kvotalari bilan bog'lash.

3. Oliy ta'lim muassasalarining akademik-moliyaviy avtonomiyasini kengaytirish.

4. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantiruvchi tanlov dasturlarini joriy etish (Germaniya, Janubiy Koreya modeli asosida).



5. Xayriya jamg'armalari (endowment fund) tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirish.

6. Hududiy oliy ta'lim muassasalarini qo'llab-quvvatlash maqsadli dasturlarini kuchaytirish.

Tadqiqotning cheklovlari. Ushbu tadqiqot asosan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ochiq statistik ma'lumotlar tahliliga asoslangan bo'lib, oliy ta'lim muassasalari rahbariyati va professor-o'qituvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazish keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi sog'lom raqobat muhitini shakllantirish ta'lim sifatini oshirish, ilmiy-innovatsion salohiyatni rivojlantirish va mamlakatning xalqaro ta'lim maydonidagi mavqeini mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqobatni samarali rivojlantirish uchun natijaga asoslangan moliyalashtirish, mustaqil sifat nazorati institutlari, universitetlarning avtonomiyasi va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag'batlantirish mexanizmlari muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ushbu tajribadan foydalanish, milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda, tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Taklif etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi oliy ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, ta'lim sifatini oshirish hamda mamlakat inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Organisation for Economic Co-operation and Development. Education at a Glance: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing, 2023.

2. Andreas Schleicher. World Class: How to Build a 21st-Century School System. Paris: OECD Publishing, 2018.

3. World Bank. World Development Report: Learning to Realize Education's Promise. Washington, DC: World Bank, 2018.

4. UNESCO. Global Education Monitoring Report. Paris: UNESCO Publishing, 2022.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari. 2022-2024 y.

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari va statistik hisobotlari. 2022-2024 y.

7. Organisation for Economic Co-operation and Development. PISA 2022 Results. Paris: OECD Publishing, 2023.

8. United Nations. Sustainable Development Goal 4: Quality Education. New York: UN Publications, 2022.

9. Sun'iy intellekt asosidagi o'quv rejalari uchun ma'lumotlar tahlili va ma'lumotlarni yig'ish. Xalilova Maftuna. <https://cyberleninka.ru/article/n/sun-iy-intellekt-asosidagi-o-quv-rejalari-uchun-ma-lumotlar-tahlili-va-ma-lumotlarni-yig-ish>. 2025. 56-58 b.

10. O'ZBEKISTON RAQAMLI IQTISODIYOTIDA SUN'IY INTELEKTNING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI. MR Xalilova, DB Fayziyeva - Экономика и социум, 2024. 5-1 (120). 916-919.

11. Xalilova, M. R. q (2026). TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBAT MUHITINI KUCHAYTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI VA UNI QO'LLASH IMKONIYATLARI. Innovatsion iqtisodiyot, 4(4). <https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.4.4.2026.54>

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Xalilova Maftuna Raxmon qizi Qarshi davlat texnika universiteti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi assistenti Халилова Мафтун Рахмановна, ассистент кафедры «Инновационная экономика» Каршинского государственного технического университета / Khalilova Maftuna Rakhmon qizi, assistant of the Department of Innovative Economics of the Karshi State Technical University

E-mail: xalilova_0130@icloud.com



QASHQADARYO VILOYATI HUDUDLARIDA YER-SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Qurbonov Alisher Boboqulovich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF LAND AND WATER RESOURCE USE IN THE TERRITORIES OF QASHQADARYO REGION

Kurbonov Alisher

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНО-ВОДНЫХ РЕСУРСОВ НА ТЕРРИТОРИЯХ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Курбонов Алишер Бобокулович

Annotatsiya: Mazkur maqolada 2010–2025 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari bo‘yicha jami hamda qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik sub‘ektlari sonining dinamikasi, shuningdek qishloq xo‘jaligi tadbirkorlik sub‘ektlarining jami sub‘ektlar tarkibidagi ulushi tahlil qilingan. Statistik ma‘lumotlar asosida uch hudud kesimida ko‘rsatkichlarning o‘shish sur‘atlari qiyoslangan, 2023–2025 yillarda kuzatilgan tadbirkorlik sub‘ektlari sonining qisqarish tendensiyasi sabablari muhokama qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik faolligi hududiy kesimda notekis rivojlanmoqda, xususan Surxondaryo viloyatida qishloq xo‘jaligi sub‘ektlari soni eng yuqori o‘shish sur‘atiga erishgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik sub‘ektlari, qishloq xo‘jaligi, tadbirkorlikning hududiy tuzilishi, kichik biznes.

Аннотация: В данной статье проанализирована динамика общего числа субъектов предпринимательства, а также субъектов, действующих в сельском хозяйстве, по Республике Узбекистан, Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областям за 2010–2025 годы, а также доля сельскохозяйственных субъектов предпринимательства в общей структуре субъектов. На основе статистических данных сопоставлены темпы роста показателей в разрезе трёх регионов, обсуждены причины сокращения числа субъектов предпринимательства, наблюдавшегося в 2023–2025 годах. Согласно результатам исследования, предпринимательская активность в сельском хозяйстве развивается неравномерно в региональном разрезе, при этом Сурхандарьинская область достигла наивысшего темпа роста числа сельскохозяйственных субъектов предпринимательства.

Ключевые слова: субъекты предпринимательства, сельское хозяйство, Кашкадарьинская область, Сурхандарьинская область, региональная структура предпринимательства, малый бизнес.

Abstract: This article analyzes the dynamics of the total number of business entities, as well as those operating in agriculture, in the Republic of Uzbekistan, Qashqadaryo region, and Surkhandarya region over 2010–2025, along with the share of agricultural business entities within the total. Based on statistical data, growth rates were compared across the three regions, and the reasons behind the decline in the number of business entities observed in 2023–2025 were discussed. The findings show that entrepreneurial activity in agriculture has developed unevenly across regions, with Surkhandarya region achieving the highest growth rate in the number of agricultural business entities.

Keywords: business entities, agriculture, Qashqadaryo region, Surkhandarya region, regional structure of entrepreneurship, small business.

KIRISH

Tadbirkorlik sub‘ektlarining soni va ularning tarmoqlar kesimidagi tuzilishi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasini aks ettiruvchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikni, shu jumladan qishloq xo‘jaligi sohasida, qo‘llab-quvvatlash so‘nggi o‘n besh yil davomida O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik sub‘ektlarining rivojlanishi oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, qishloq aholisining bandligini oshirish va eksport salohiyatini

kengaytirish bilan uzviy bog‘liq. Shu bilan birga, mamlakat hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, tabiiy-iqlim sharoiti va tarmoq ixtisoslashuvi jihatidan bir-biridan farq qilishi sababli, tadbirkorlik faolligining hududiy tuzilishi ham notekis shakllanadi. 2010–2025 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida jami va qishloq xo‘jaligidagi tadbirkorlik sub‘ektlari sonining dinamikasini tahlil qilish, ularning o‘shish sur‘atlarini qiyoslash hamda qishloq xo‘jaligi tadbirkorlik sub‘ektlarining jami sub‘ektlar tizimidagi ulushini baholashdan iborat.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Tadbirkorlikning mohiyatini, uning harakat va imkoniyatlari doirasini yaxshiroq tushunib olish uchun, uning mohiyati va iqtisodiyotdagi rolga bo'lgan qarashlar tizimi rivojini tashkiliy, siyosiy – iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik jihatlar nuqtai – nazaridan umumlashgan holda tahlil qilamiz.

O'zbek olimlaridan A.O'lmasov va N.To'xliyevlarning tadbirkorlikni «daromad keltiradigan yoki naf beradigan xo'jalik faoliyati (kasb-kor, mashg'ulot) sohibkorlik - tijorat ishlari bilan shug'ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo'lish» [8], «...tadbirkorlik-pul topish maqsadida mas'uliyatni zimмага olgan holda biron iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish» [8], deb ta'riflashgan. Ushbu ikki ta'rif bir-biriga juda o'xshash bo'lib, ularning bir-birlaridan farqlanishini ko'rsatib berolmaydi. Shu asosda, shunday fikrga kelish mumkinki, A.O'lmasov ushbu ikki tushuncha mazmuniga o'z qarashlarini rivojlantirib, biznes tushunchasiga ancha to'laroq ta'rif beradi. Masalan, u «Biznes keng ma'nodagi qonuniy yo'l bilan daromad topishga qaratilgan faoliyatdir», «tadbirkorlik-kishilar (mulkchilik sub'ektlari)ning moddiy va pul mablag'larini (kapitalni) amalda xo'jalik oborotiga tushirib, daromad topishga mo'ljallangan iqtisodiy faoliyat, deb qaraydi. Tadbirkorlik, umuman, pul topish emas, balki yaratuvchilik faoliyati orqali daromad olishni bildiradi», deb ta'riflaydi [8].

Shunday qilib, biz shunday fikrga kelishimiz mumkinki, daromad topishga qaratilgan har qanday faoliyatni ham biznes tushunchasi bilan ifodalash mumkin emas. Biznes foyda olishga yo'naltirilgan

faoliyat bo'lib, mulkiy mas'uliyat va javobgarlikka, iqtisodiy tahlilga asoslanadi.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda kichik biznes rivojining nazariy-uslubiy asoslari, agrar sohada kichik biznes rivoji, qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori taraqqiyotidagi roli, unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishini olib borgan bir qator olimlarning ishlari nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy tadqiqotlarning dialektika nazariyasiga tayangan holda analiz va sintez, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadbirkorlikni rivojlantirish va uning tarmoq hamda hududiy tuzilishi masalalari iqtisodiyot fanida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, kichik biznes sub'ektlari sonining makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (yalpi ichki mahsulot, bandlik, investitsiyalar) bilan o'zaro bog'liqligi ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan bo'lib, tadbirkorlik sub'ektlari sonining barqaror o'sishi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omili sifatida baholanadi.

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasidagi ilmiy adabiyotlarda, asosan, fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish, kredit-moliya resurslariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek qishloq joylarida yangi ish o'rinlari yaratish masalalariga e'tibor qaratilgan. Hududiy iqtisodiyot bo'yicha tadqiqotlarda esa tadbirkorlik faolligining viloyatlar kesimida notekis taqsimlanishi, bunga tabiiy resurslar, infratuzilma holati va mahalliy boshqaruv sifatining ta'siri alohida ko'rsatib o'tiladi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari bo'yicha 2010–2025 yillar davomidagi jami va qishloq xo'jaligidagi tadbirkorlik sub'ektlari soni hamda ularning ulushi keltirilgan

Yillar	Jami tadbirkorlik sub'ektlari			Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik sub'ektlari			Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi		
	O'zbekiston Respublikasi	Qashqadaryo viloyati	Surxondaryo viloyati	O'zbekiston Respublikasi	Qashqadaryo viloyati	Surxondaryo viloyati	O'zbekiston Respublikasi	Qashqadaryo viloyati	Surxondaryo viloyati
2010	200951	15627	12367	13522	1670	592	6,7	10,7	4,8
2011	214084	18078	12105	15470	1754	658	7,2	9,7	5,4
2012	228736	20347	12559	17028	1864	766	7,4	9,2	6,1
2013	229177	20437	11649	16673	1936	813	7,3	9,5	7,0
2014	241201	19868	14036	20758	2454	1734	8,6	12,4	12,4
2015	246687	19570	12259	21475	3133	1735	8,7	16,0	14,2
2016	257758	18557	12207	23210	3355	1807	9,0	18,1	14,8
2017	268428	18005	13003	18063	2231	791	6,7	12,4	6,1
2018	285531	18471	13719	20633	2339	878	7,2	12,7	6,4
2019	323517	20915	15172	24084	2636	1084	7,4	12,6	7,1
2020	398133	25259	19220	28965	3364	1413	7,3	13,3	7,4
2021	475197	30180	25367	40895	4835	3416	8,6	16,0	13,5
2022	528929	36168	28291	46045	6718	3720	8,7	18,6	13,1
2023	592371	41612	31427	53341	7711	4152	9,0	18,5	13,2
2024	485024	33064	24657	37308	5320	2247	7,7	16,1	9,1
2025	424840	27456	23098	30486	3932	2198	7,2	14,3	9,5
2025/2010, %	211,41	175,70	186,77	225,45	235,42	371,18	x	x	x

Manba: O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari bo'yicha jami va qishloq xo'jaligidagi tadbirkorlik sub'ektlari soni hamda ularning ulushi (2010–2025 yy., birlik, %)



Shu bilan birga, amaliyotda tadbirkorlik sub'ektlari sonining rasmiy ro'yxatdan o'tkazilgan sub'ektlar statistikasi orqali baholanishi ba'zan faoliyat yuritmayotgan («nafaol») sub'ektlarning ham hisobga olinishi, shuningdek davlat tomonidan vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan ro'yxatlarni tozalash chora-tadbirlari bilan bog'liq raqamlar tebranishini inobatga olishni talab etadi. Mazkur holat mazkur tadqiqotda 2023–2025 yillardagi ko'rsatkichlar dinamikasini tahlil qilishda alohida e'tiborga olingan.


Shuni ta'kidlash lozimki, 1-rasmda keltirilgan grafik manba taqdim etgan ko'rinishda, o'ltirgan birligi alohida ko'rsatilmagan holda keltirilgan va unda aks ettirilgan ko'rsatkich 1-jadvaldagi sub'ektlar sonidan farqli o'laroq butun davr mobaynida uzluksiz o'sish tendensiyasini namoyish etadi. Shu sababli grafik ma'lumotlari mazkur maqolada mustaqil ko'rsatkich sifatida, asosiy e'tibor esa 1-jadvaldagi rasmiy sub'ektlar soni va ulush ko'rsatkichlariga qaratilgan holda tahlil qilingan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston bo'yicha jami tadbirkorlik sub'ektlari soni 2010 yildagi 200 951 birlikdan 2023 yilda eng yuqori ko'rsatkich — 592 371 birlikkacha oshgan, so'ngra 2024–2025 yillarda izchil kamayib, 2025 yilda 424 840 birlikni tashkil etgan. Xuddi shunday tendensiya Qashqadaryo (2023 yilda 41 612, 2025 yilda 27 456) va Surxondaryo (2023 yilda 31 427, 2025 yilda 23 098) viloyatlari bo'yicha ham kuzatilgan.

Qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik sub'ektlari soni bo'yicha ham o'xshash tendensiya qayd etilgan: O'zbekiston bo'yicha 2010 yildagi 13 522 birlikdan 2023 yilda 53 341 birlikkacha oshib, 2025 yilda 30 486 birlikkacha kamaygan. Qashqadaryo viloyatida ushbu ko'rsatkich 1670 (2010) → 7711 (2023) → 3932 (2025) birlikni, Surxondaryo viloyatida esa 592 (2010) → 4152 (2023) → 2198 (2025) birlikni tashkil etgan.

2025/2010 yillar nisbatidagi o'sish sur'atlari bo'yicha jami sub'ektlar soni O'zbekistonda 211,41 foizni, Qashqadaryoda 175,70 foizni, Surxondaryoda 186,77 foizni tashkil etgan. Qishloq xo'jaligi sub'ektlari bo'yicha esa ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 225,45, 235,42 va 371,18 foizni tashkil etib, Surxondaryo viloyati eng yuqori o'sish sur'atiga erishgan hudud sifatida ajralib turibdi.

Qishloq xo'jaligi sub'ektlarining jami sub'ektlar tizimidagi ulushi O'zbekiston bo'yicha 2010 yildagi 6,7 foizdan 2023 yilda 9,0 foizgacha oshib, 2025 yilda 7,2 foizni tashkil etgan. Qashqadaryo viloyatida ushbu ulush barcha yillar davomida respublika o'rtachasidan yuqori bo'lib, 2010 yildagi 10,7 foizdan 2023 yilda 18,5 foizgacha oshgan va 2025 yilda 14,3 foizni tashkil etgan. Surxondaryo viloyatida esa ulush 2010 yildagi 4,8 foizdan 2023 yilda 13,2 foizgacha, ya'ni deyarli 2,8 baravar oshgan va 2025 yilda 9,5 foizni tashkil etgan.



1-rasm. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari bo'yicha qo'shilgan qiymatning 2010–2025 yillardagi o'sish dinamikasi(mlrd.so'm)

1-rasmda keltirilgan grafik, yuqorida qayd etilganidek, qo'shilgan qiymatning 2010–2025 yillar davomidagi dinamikasini aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston 21,2 dan 306,3 gacha (taxminan 14,4 barobar), Qashqadaryo viloyati 1,7 dan 30,0 gacha (taxminan 17,6 barobar), Surxondaryo viloyati esa 2,1 dan 24,4 gacha (taxminan 11,6 barobar) o'sgan. Diqqatga sazovorki, ushbu ko'rsatkich 1-jadvaldagi sub'ektlar

sonidan farqli o'laroq 2024–2025 yillarda ham pasaymasdan, barqaror o'sishni davom ettirgan.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, 2010–2023 yillar davomida barcha uch hududda ham jami va qishloq xo'jaligidagi tadbirkorlik sub'ektlari soni izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan, biroq 2024–2025 yillarda bu ko'rsatkichlarning sezilarli darajada qisqarishi kuzatilgan. Ushbu holat, ehtimol, rasmiy ro'yxatdan o'tgan, ammo amalda faoliyat yuritmayotgan («nafaol»)



tadbirkorlik sub'ektlarini davlat reestrindan chiqarish bo'yicha o'tkazilgan chora-tadbirlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, bu esa ko'plab mamlakatlarda vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladigan odatiy statistik-boshqaruv amaliyoti hisoblanadi. Shu bilan birga, bu tendensiyaning aniq sabablarini ochib berish alohida chuqurroq tadqiqotni talab etadi.

Hududlar kesimida qiyoslaganda, Qashqadaryo viloyati butun tahlil davri mobaynida qishloq xo'jaligi sub'ektlarining ulushi bo'yicha respublika o'rtachasidan barqaror yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, bu viloyat iqtisodiyotining agrar yo'nalishga nisbatan yuqori ixtisoslashganligidan dalolat beradi. Surxondaryo viloyati esa, garchi ulush darajasi bo'yicha Qashqadaryodan past bo'lsa-da, 2010–2025 yillar davomida eng yuqori o'sish sur'atlariga (qishloq xo'jaligi sub'ektlari bo'yicha 371,2 foiz, ulush bo'yicha deyarli 2,8 barobar) erishgan hudud hisoblanadi. Bu holat Surxondaryoda so'nggi yillarda qishloq xo'jaligida tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning nisbatan samarali natija berganini ko'rsatishi mumkin. 1-jadval va 1-rasm ma'lumotlarini qiyoslash shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik sub'ektlari sonining rasmiy statistikasi bilan 1-rasmda aks ettirilgan ko'rsatkich turli tendensiyalarga ega: birinchisi 2023 yildan so'ng pasayish kuzatsa, ikkinchisi barqaror o'sishni davom ettiradi. Bu farq ikki ko'rsatkichning turli iqtisodiy mazmunga (masalan, sub'ektlar soni va ishlab chiqarish yoki aylanma hajmi kabi) ega bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi va ma'lumotlarni birgalikda tahlil qilishda ushbu farqni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- 2010–2023 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari bo'yicha jami va qishloq xo'jaligidagi tadbirkorlik sub'ektlari soni izchil o'sgan, biroq 2024–2025 yillarda barcha hududlarda ham sezilarli qisqarish kuzatilgan;

- 2025/2010 yillar nisbatida qishloq xo'jaligi tadbirkorlik sub'ektlari soni bo'yicha eng yuqori o'sish sur'atiga Surxondaryo viloyati (371,18 foiz) erishgan, bu respublika va Qashqadaryo ko'rsatkichlaridan sezilarli yuqori;

- Qashqadaryo viloyati butun tahlil davri mobaynida qishloq xo'jaligi sub'ektlarining ulushi bo'yicha barqaror ravishda respublika o'rtachasidan yuqori ko'rsatkichga ega, bu hudud iqtisodiyotining agrar yo'nalishga ixtisoslashganligini tasdiqlaydi;

- 2024–2025 yillardagi sub'ektlar sonining qisqarishi sabablari, jumladan nafaol sub'ektlarni ro'yxatdan chiqarish chora-tadbirlarining ta'sir darajasi, alohida chuqurroq tadqiqotni talab etadi;

- Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning ijobiy tajribasini

o'rganish va boshqa hududlarda, shu jumladan Qashqadaryoda, tadbiriq etish imkoniyatlarini baholash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1 . Асаул А. Н. / Организация предпринимательской деятельности: учебник для вузов. / А. Н. Асаул. – 4-е изд. – СПб.: Питер, 2013. – 352 с.: ил. ИСБН 978-5-496-00066-6

2.Украинцева И. В. / Предпринимательская деятельность и ее особенности в сельском хозяйстве[Электронный ресурс] / И. В. Украинцева, А. И. Авдеева // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – 100–103 с. – URL: <http://ye-koncept.ru/2017/770442.htm>

3 Перспективы сельского хозяйства в России и в мире: основные направления [Электронный ресурс] // Журнал «Генеральный директор». – 02.06.2020. – URL: <https://www.gd.ru/articles/9254-qqq-17-m6-02-06-2020-perspektivy-selskogo-hozyaystva>

4. Мировая статистика онлайн [Электронный ресурс]//Ворлдометерс.– URL:<http://www.worldmeters.info>

вузов. / А. Н. Асаул. – 4-е изд. – СПб.: Питер, 2013. – 352 с.: ил. ИСБН 978-5-496-00066-6

5. Турсунов Имамназар Эгамбердиевич, Курбанов Алишер Бобокулович Инновационные подходы развития предпринимательства // International Journal of Innovative Technologies in Economy. 2018. №5 (17). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsionnye-podhody-razvitiya-predprinimatelstva>

6. Курбанов А.Б., Джалилова Н.М. Роль кооперации в формировании аграрной собственности Economics № 4 (47), 2020

7. <https://www.unfpa.org/data/world-population-dashboard>.

8. <https://www.interfax.ru/business/806527>.

9. <https://visasam.ru/emigration/canadausa/bednost-v-ssha.html>

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Qurbonov Alisher Boboqulovich – Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti i.f.n. professori. Kurbonov Alisher – Professor (Doctor of Philosophy in Economics) at Qarshi University of Economics and Pedagogy. Курбонов Алишер Бобокулович профессор, кандидат экономических наук, Каршинский университет экономики и педагогики.

E-mail: qurbonovalisher1977@gmail.com



QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARIDA AGROTADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Qurbonov Alisher Boboqulovich

DEVELOPMENT TRENDS OF AGRIBUSINESS ENTITIES IN QASHQADARYO AND SURKHANDARYA REGIONS

Kurbonov Alisher

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СУБЪЕКТОВ АГРОПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В КАШКАДАРЬИНСКОЙ И СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТЯХ

Курбонов Алишер Бобокулович

Annotatsiya: Mazkur maqolada 2010–2025 yillar davomida O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari bo'yicha jami hamda qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik sub'ektlari sonining dinamikasi, shuningdek qishloq xo'jaligi tadbirkorlik sub'ektlarining jami sub'ektlar tarkibidagi ulushi tahlil qilingan. Statistik ma'lumotlar asosida uch hudud kesimida ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari qiyoslangan, 2023–2025 yillarda kuzatilgan tadbirkorlik sub'ektlari sonining qisqarish tendensiyasi sabablari muhokama qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faolligi hududiy kesimda notekis rivojlanmoqda, xususan Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligi sub'ektlari soni eng yuqori o'sish sur'atiga erishgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik sub'ektlari, qishloq xo'jaligi, tadbirkorlikning hududiy tuzilishi, kichik biznes.

Аннотация: В данной статье проанализирована динамика общего числа субъектов предпринимательства, а также субъектов, действующих в сельском хозяйстве, по Республике Узбекистан, Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областям за 2010–2025 годы, а также доля сельскохозяйственных субъектов предпринимательства в общей структуре субъектов. На основе статистических данных сопоставлены темпы роста показателей в разрезе трёх регионов, обсуждены причины сокращения числа субъектов предпринимательства, наблюдавшегося в 2023–2025 годах. Согласно результатам исследования, предпринимательская активность в сельском хозяйстве развивается неравномерно в региональном разрезе, при этом Сурхандарьинская область достигла наивысшего темпа роста числа сельскохозяйственных субъектов предпринимательства.

Ключевые слова: субъекты предпринимательства, сельское хозяйство, Кашкадарьинская область, Сурхандарьинская область, региональная структура предпринимательства, малый бизнес.

Abstract: This article analyzes the dynamics of the total number of business entities, as well as those operating in agriculture, in the Republic of Uzbekistan, Qashqadaryo region, and Surkhandarya region over 2010–2025, along with the share of agricultural business entities within the total. Based on statistical data, growth rates were compared across the three regions, and the reasons behind the decline in the number of business entities observed in 2023–2025 were discussed. The findings show that entrepreneurial activity in agriculture has developed unevenly across regions, with Surkhandarya region achieving the highest growth rate in the number of agricultural business entities.

Keywords: business entities, agriculture, Qashqadaryo region, Surkhandarya region, regional structure of entrepreneurship, small business.

KIRISH

Yer va suv resurslari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy omillari hisoblanib, ulardan oqilona foydalanish mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini

ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda, jumladan Qashqadaryo viloyatida iqlim o'zgarishi, suv resurslarining cheklanganligi va aholi sonining o'sishi natijasida



qishloq xo'jaligi yerlaridan va suvdan samarali foydalanish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Qashqadaryo viloyati respublikaning yirik qishloq xo'jaligi mintaqalaridan biri bo'lib, uning iqtisodiyotida paxtachilik, g'allachilik, bog'dorchilik va chorvachilik yetakchi o'rin tutadi. Vodiy va tog'oldi tumanlari suv ta'minoti darajasi, tuproq unumdorligi hamda irrigatsiya infratuzilmasi jihatidan bir-biridan farq qiladi, bu esa tumanlar kesimida yer va suvdan foydalanish samaradorligining notekis taqsimlanishiga olib keladi. Shu jihatdan Qashqadaryo viloyati tumanlari misolida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar, suvdan foydalanish hajmi va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni statistik tahlil qilish, shuningdek bir gektar yerdan va bir metr kub suvdan olinadigan daromad ko'rsatkichlari asosida tumanlarning resurs samaradorligini baholashdan iborat.

Yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligi masalasi qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti sohasida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro amaliyotda «suvdan foydalanish samaradorligi» («water use efficiency») tushunchasi keng qo'llanilib, u odatda sarflangan suv birligiga to'g'ri keladigan mahsulot yoki daromad hajmi orqali o'lchanadi va suv tanqis mintaqalarda suv resurslarini boshqarish samaradorligini baholashning asosiy mezonini sifatida tavsiya etiladi.

Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston sharoitida suv tanqisligi va iqlim o'zgarishi mavzusida ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lib, ularda asosiy e'tibor sug'orma dehqonchilikda suv sarfini kamaytirish, tomchilatib sug'orish va boshqa suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish masalalariga qaratilgan. Yer resurslaridan foydalanish samaradorligi esa yer unumdorligi, kadastr bahosi va bonitet balli kabi ko'rsatkichlar orqali baholanib, mahalliy olimlarning ishlarida hududlar kesimida uning tabiiy-iqlim sharoiti va xo'jalik yuritish usullariga bog'liq holda farqlanishi masalasi alohida o'rin tutadi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, viloyat yoki tuman miqyosida yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini bir vaqtning o'zida ikkala ko'rsatkich — bir gektar yerga va bir metr kub suvga to'g'ri keladigan daromad — asosida qiyosiy baholovchi tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. Mazkur holat Qashqadaryo viloyati tumanlari misolida ushbu ikki ko'rsatkichni birgalikda tahlil qilishga bag'ishlangan mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

N.Asaul [1] fikricha, tadbirkorlik- bu iqtisodiy faoliyatning o'ziga xos turi bo'lib, uning mohiyati bozor almashinuvi orqali o'z a'zolarining o'ziga xos ehtiyojlariga bo'lgan jamiyat talabini rag'batlantirish va qondirishdan iborat bo'lib, bozor muvozanati buzilishi orqali raqobatdosh ustunliklarga ega bo'lishga qaratilgan. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik ma'lum bir sub'ektlar va tadbirkorlik faoliyatining ob'ektlari ishtirokini o'z ichiga oladi. I.V. Ukrainsevaning so'zlariga ko'ra [2], xo'jalik yurituvchi sub'ektlar — bu

xo'jalik faoliyatini olib boradigan va to'liq javobgarlikni o'z zimmalariga oladigan tadbirkorlarning o'zlari.

Rossianing "Bosh direktor" jurnali [3] ikkita asosiy global muammo yo'nalishini etirof etadi:

➤ oziq-ovqatga muhtoj kishilarning darajasi va agrar munosabatlarning qoloqligi. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda o'z qishloq xo'jaligi aholini oziq-ovqat bilan ta'minlay olmaydi va oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondira olmaydi. Shu bois ko'pchilik ochlikdan aziyat chekmoqda. Zero, ishlab chiqarish hajmi o'sib borsa-da, och odamlar soni hali ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Birlashgan millatlar tashkilotining aholishunoslik jamg'armasi ma'lumotiga ko'ra 2021 yil 1 yanvardagi ma'lumotiga ko'ra¹² hozirgi paytda dunyodagi nochorlar soni taxminan 1181,25 million kishini tashkil etadi, bu umumiy aholining taxminan 15 foizini tashkil qiladi. Dunyo aholisining 60 foizi Osiyo mamlakatlariga tug'ri kelishini hisobga olsak, ushbu mamlakatlarda birlamchi ehtiyojlarni qondira olmaydigan aholi soni ko'pligini anglatadi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda yashash minimumidan kam daromad ega kambag'allar, jumladan, Rossiyada 17,6 mln.(12.1%),¹³. Yevropa ittifoqida kambag'allar soni 85 mln.(17%) kishi, Amerika Qo'shma shtatlarida 40 mln. kishini tashkil qiladi¹⁴. Shu nuqtai nazardan, bu muammo birinchi va eng muhim hisoblanadi.

Ikkinchi dunyo muammosi agrar munosabatlar bilan bog'liq. U turli mamlakatlarda qishloq xo'jaligi rivojlanishidagi farq tufayli paydo bo'lgan. Ba'zi mamlakatlarda yangi yuqori samarali texnologiyalar va o'sish usullarini qo'llash orqali qishloq xo'jaligi sohasi yuqori darajada. Ammo ayrim mamlakatlarda o'tmish qoldiqlaridan kelib chiqqan holda bozor munosabatlariga mos mulkchilik shakllari va munosabatlari tug'ri yo'lga quyilmagan. Ushbu bo'shliq mamlakatlar o'rtasidagi qishloq xo'jaligi munosabatlarida qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu holat O'zbekiston respublikasiga ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda kichik biznes rivojining nazariy-uslubiy asoslari, agrar sohada kichik biznes rivoji, qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozori taraqqiyotidagi roli, unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishini olib borgan bir qator olimlarning ishlari nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy tadqiqotlarning dialektika nazariyasiga tayangan holda analiz va sintez, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot uchun asosiy manba sifatida Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2025 yilga oid statistik ma'lumotlar — jumladan viloyat va uning 13 ta tumani (G'uzor, Dehqonobod, Qamashi, Qarshi, Koson, Kasbi, Kitob, Mirishkor, Muborak, Nishon, Chiroqchi, Shahrisabz tumani va Yakkabog') bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar maydoni (gektar), suvdan foydalanish hajmi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm), bir gektar yerdan va bir metr kub suvdan olinadigan daromad ko'rsatkichlari olindi.

¹² <https://www.unfpa.org/data/world-population-dashboards>

¹³ <https://www.interfax.ru/business/806527>

<https://globalsciencehub.uz/index.php/IE/uz>

¹⁴ <https://visasam.ru/emigration/canadausa/bednost-v-ssha.html>

Qashqadaryo viloyati va uning tumanlari bo'yicha 2025 yil uchun asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan¹⁵.

Hudud nomi	Qishloq xo'jaligiga muljallangan yerlar	Suvdan foydalanish xajmi, metr kub	Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi, mlrd. So'm	Bir gektar yerdan olingan daromad	Bir metr kub suv hisobiga olingan daromad
Qashqadaryo viloyati	2328764	3643,82	49950,0	21449,15	13708,1
Fuzor	249285	180,37	3247,8	13028,46	18006,3
Dehqonobod	287926	10,31	2135,0	7415,1	207080,5
Qamashi	145242,9	178,91	4572,3	31480,37	25556,4
Qarshi	84636,9	414,66	3834,8	45308,84	9248,1
Koson	182061	592,26	5108,1	28057,08	8624,8
Kasbi	70230	451,16	4102,3	58412,36	9092,8
Kitob	95957	81,35	3510,1	36579,93	43148,1
Mirishkor	298938,8	556,38	2505,9	8382,652	4503,9
Muborak	291086	265,01	3451,4	11856,98	13023,7
Nishon	175963	482,84	4255,8	24185,77	8814,1
Chiroqchi	86785,8	140,48	3340,3	38489,02	23777,8
Shahrisabz t	90043	136,33	2957,0	32839,87	21690,0
Yakkabog'	103422,8	153,76	3446,0	33319,54	22411,6

Shuni ta'kidlash lozimki, «bir gektar yerdan olingan daromad» va «bir metr kub suv hisobiga olingan daromad» ko'rsatkichlari manba jadvalida tayyor holda keltirilgan bo'lib, ular qayta hisoblanmasdan, faqat qiyosiy tahlil predmeti sifatida ishlatilgan. Ayrim tumanlarda (masalan, Dehqonobodda) suvdan foydalanish hajmining nisbatan kichik qiymatga ega ekanligi natijasida bir metr kub suvga to'g'ri keladigan daromad ko'rsatkichi statistik jihatdan keskin yuqori chiqishi mumkinligi tahlilda alohida izohlangan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, viloyat bo'yicha jami qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar maydoni 2 328 764 gektarni tashkil etadi. Viloyat bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 49 950,0 mlrd. so'mni tashkil etib, bir gektar yerdan o'rtacha 21 449,15 so'm, bir metr kub suvdan esa 13 708,1 so'm daromad olingan.

Yer maydoni bo'yicha eng katta tumanlar Mirishkor (298 938,8 ga), Muborak (291 086 ga) va G'uzor (249 285 ga) hisoblanadi, eng kichik yer maydoniga ega tumanlar esa Qarshi (84 636,9 ga) va Chiroqchi (86 785,8 ga)dir.

Suvdan foydalanish hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga Koson (592,26), Nishon (482,84) va Kasbi (451,16) tumanlari ega bo'lsa, eng past ko'rsatkich Dehqonobod (10,31) va Kitob (81,35) tumanlarida qayd etilgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha yetakchi tumanlar Koson (5108,1 mlrd. so'm), Nishon (4255,8 mlrd. so'm) va Kasbi (4102,3 mlrd. so'm) hisoblanadi.

Bir gektar yerdan olingan daromad ko'rsatkichi bo'yicha reyting quyidagicha shakllangan (yuqoridan pastga): Kasbi (58 412,36 so'm), Qarshi (45 308,84 so'm), Chiroqchi (38 489,02 so'm), Kitob (36 579,93 so'm), Yakkabog' (33 319,54 so'm), Shahrisabz tumani (32 839,87 so'm), Qamashi (31 480,37 so'm), Koson (28 057,08 so'm), Nishon (24 185,77 so'm), viloyat o'rtachasi (21 449,15 so'm), G'uzor (13 028,46 so'm), Muborak (11 856,98 so'm), Mirishkor (8382,65 so'm) va Dehqonobod (7415,10 so'm).

Bir metr kub suv hisobiga olingan daromad ko'rsatkichi bo'yicha esa Dehqonobod tumani (207 080,5 so'm) sezilarli darajada ajralib turadi, undan keyingi o'rinlarni Kitob (43 148,1 so'm), Qamashi (25 556,4 so'm), Chiroqchi (23 777,8 so'm), Yakkabog' (22 411,6 so'm) va Shahrisabz tumani (21 690,0 so'm) egallaydi. Eng past ko'rsatkichlar Mirishkor (4503,9 so'm), Koson (8624,8 so'm), Nishon (8814,1 so'm), Qarshi (9248,1 so'm) va Kasbi (9092,8 so'm) tumanlarida qayd etilgan.

Olingan natijalar Qashqadaryo viloyati tumanlari o'rtasida yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, bir gektar yerdan

¹⁵ Qashqadaryo viloyati statistika bosh boshqarmasi ma'lumotlari



yuqori daromad olayotgan tumanlar (Kasbi, Qarshi) bir metr kub suvga nisbatan past yoki o'rtacha darajadagi daromad ko'rsatkichiga ega, ya'ni bu tumanlarda intensiv sug'orish, ya'ni birlik maydonga ko'proq suv sarflash hisobiga yuqori hosildorlikka erishilgan bo'lishi mumkin. Bu holat, o'z navbatida, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish rezervlari mavjudligidan dalolat beradi.

Kitob va Qamashi tumanlarida esa nisbatan yuqori yer va suv samaradorligi bir vaqtda kuzatilgan, bu esa ushbu tumanlarda qo'llanilayotgan agrotexnika, ekin turlari tarkibi yoki sug'orish usullarining nisbatan samarali ekanligini ko'rsatishi mumkin.

Dehqonobod tumani bo'yicha bir metr kub suvga to'g'ri keladigan daromadning g'ayrioddiy yuqori qiymati (207 080,5 so'm) alohida izohga muhtoj. Ushbu ko'rsatkich, birinchi navbatda, tumanda rasman qayd etilgan suvdan foydalanish hajmining boshqa tumanlarga nisbatan bir necha o'n baravar kichikligi (10,31) bilan bog'liq bo'lib, bu quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin: tumanning tog'li relefi sharoitida lalmikor (sug'orilmaydigan) dehqonchilik ulushining yuqoriligi, yer osti suvlari yoki mahalliy manbalardan foydalanishning statistikada to'liq aks etmasligi, yoxud hisobot metodologiyasidagi farqlar. Shu sababli, mazkur ko'rsatkich bo'yicha xulosalar ehtiyotkorlik bilan talqin qilinishi lozim va alohida chuqurroq tadqiqotni talab etadi.

Mirishkor, Koson va Nishon tumanlarida bir metr kub suvga to'g'ri keladigan daromadning past darajada bo'lishi ushbu hududlarda suvni tejamkor sarflash texnologiyalarini (tomchilatib sug'orish, lazer bilan tekislash va boshqalar) joriy etish, shuningdek yuqori qo'shilgan qiymatga ega ekin turlariga o'tish orqali samaradorlikni sezilarli darajada oshirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari yer maydonining kattaligi bilan undan olinadigan daromad o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud emasligini tasdiqlaydi — masalan, eng katta yer maydoniga ega Mirishkor tumani bir gektar yerdan daromad bo'yicha oxirgi o'rinlardan birini egallaydi, bu esa ekstensiv, ya'ni maydonni kengaytirish hisobiga emas, balki intensiv, resurslardan samarali foydalanish hisobiga rivojlanish strategiyasining muhimligini ko'rsatadi.

XULOSA

O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

– Qashqadaryo viloyati tumanlari o'rtasida qishloq xo'jaligi yerlari va suv resurslaridan foydalanish samaradorligida sezilarli tafovutlar mavjud bo'lib, bir gektar yerdan olinadigan daromad 7415,1 so'mdan (Dehqonobod) 58 412,4 so'mgacha (Kasbi), ya'ni deyarli 8 baravargacha farq qiladi;

– Yer maydonining kattaligi resurs samaradorligining yuqori bo'lishini kafolatlamaydi; aksincha, ba'zi kichik maydonli tumanlar (Kasbi, Qarshi) yuqori daromadga erishgan, bu intensiv xo'jalik yuritish usullarining samaradorligini tasdiqlaydi;

– Suvdan foydalanish samaradorligi bo'yicha Mirishkor, Koson va Nishon tumanlari eng past ko'rsatkichlarga ega bo'lib, ushbu hududlarda suv

tejoychi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqish tavsiya etiladi;

– Kitob va Qamashi tumanlarining ijobiy tajribasi — bir vaqtning o'zida yer va suv resurslaridan yuqori samaradorlikda foydalanish — boshqa tumanlar uchun namuna sifatida o'rganilishi va tarqatilishi maqsadga muvofiqdir;

– Dehqonobod tumani bo'yicha aniqlangan g'ayrioddiy statistik ko'rsatkich alohida, chuqurroq tadqiqotni, jumladan tuman miqyosida suv manbalari va sug'orish tizimini batafsil o'rganishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Асаул А.Н. / Организация предпринимательской деятельности: учебник для вузов. / А. Н. Асаул. – 4-е изд.– СПб.: Питер, 2013. – 352 с.: ил. ИСБН 978-5-496-00066-6

2. Украинцева И. В. / Предпринимательская деятельность и ее особенности в сельском хозяйстве [Электронный ресурс] / И. В. Украинцева, А. И. Авдеева // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – 100–103 с. – URL: <http://ye-koncept.ru/2017/770442.htm>

3. Перспективы сельского хозяйства в России и в мире: основные направления [Электронный ресурс] // Журнал «Генеральный директор». – 02.06.2020. – URL: <https://www.gd.ru/articles/9254-qqq-17-m6-02-06-2020-perspektivy-selskogo-hozyaystva>

4. Мировая статистика онлайн [Электронный ресурс] // Ворлдометерс. URL: <http://www.worldmeters.info> вузов. / А. Н. Асаул. – 4-е изд.– СПб.: Питер, 2013. – 352 с.: ил. ИСБН 978-5-496-00066-6

5. Турсунов Имамназар Эгамбердиевич, Курбанов Алишер Бобокулович Инновационные подходы развития предпринимательства // International Journal of Innovative Technologies in Economy. 2018. №5 (17). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsionnye-podbody-razvitiya-predprinimatelstva>

10. Курбанов А.Б., Джалилова Н.М. Роль кооперации в формировании аграрной собственности Economics № 4 (47), 2020

11. <https://www.unfpa.org/data/world-population-dashboard>.

12. <https://www.interfax.ru/business/806527>.

13. <https://visasam.ru/emigration/canadausa/benost-v-ssha.html>

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Qurbonov Alisher Boboqulovich – Qarshi iqtisodiyot va pedagogika universiteti i.f.n. professori. Kurbonov Alisher – Professor (Doctor of Philosophy in Economics) at Qarshi University of Economics and Pedagogy. Курбанов Алишер Бобокулович профессор, кандидат экономических наук, Каршинский университет экономики и педагогики.

E-mail: qurbonovalisher1977@gmail.com



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz